ISSN 2181-9335



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY



2022, №4

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA
CONTENTS

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK
I. CONSTITUTION, HUMAN RIGHTS AND NATIONAL LEGISLATION

RUSTAMBAYEV M.X.
Xalqparvar davlat: asosiy belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari **3**
УЗАКОВ Ш.Ш.
К вопросу о потерпевшем от преступления и его защите прокурором **8**
RUZIYEV R.D.
Majburiyatlarni bajarish prinsipi (qoidasi)ning ilmiy-nazariy masalalari **14**
NURMATOV M.M., BEKSARIYEV X.Q.
Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida afv etish institutini takomillashtirishning ayrim masalalari **19**
KUCHKAROV X.Z.
Jinoyat protsessida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish tartibi..... **24**
HOSHIMXONOV A.M.
Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari..... **28**
ISOQOV L.
Markaziy Osiyoda migratsiya huquqi tarixi **34**
ЗОКИРОВ Б.П.
Научные подходы к изучению процесса возвращения доходов (активов), полученных преступным путем **41**
ATANIYAZOV J.K.
Jinoyat ishi yuritishni rad etish yoki tugatishda mavjud protsessual muammolar..... **46**

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI
II. PUBLIC ORDER AND PUBLIC SAFETY

MADJITOV F.F., MAMARASULOV D.X.
Shaxsiy tarkibning ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida mustaqil qaror qabul qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari (yaqin xorij mamlakatlari tajribasi asosida)..... **52**

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR
III. REFORMS IN THE MILITARY SPHERE

MAXSADOV M.I.
Harbiy qonunchilikni tizimlashtirishni shakllanish bosqichlari..... **58**
MURODOV B.M.
Bo‘lajak ofitserning harbiy-kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar tahlili va ularni takomillashtirish..... **65**

ЖУМАЕВ А.Ж., ДОЛГОВА И.Е.
Характеристика различных подходов к индикативной оценке состояния общественной безопасности 71
ASHUROV R.N., GOLUBENKO A.Y.
Qo'l ostidagi harbiy jamoani boshqarishda ofitser rahbarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining tutgan o'rni va ahamiyati 78

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI
IV. CURRENT SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF SOCIAL DEVELOPMENT

SARABEKOV X.D.
Ichki ishlar organlari o'zlariga biriktirilgan sektorlar hududlarida aholini tadbirkorlikka jalb etish va hududga investitsiyalarni kiritishni takomillashtirish 82
MIRZAMAXMUDOV A.A.
Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimidagi ayrim muammolar to'g'risida 90
XURRAMOV M.K.
O'zbekiston – Qozog'iston Respublikalarining mintaqadagi suv-energetika muammolarini hal etish borasidagi yondashuvlari 97
RADJAPOV A.X.
Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash usullari va ularni takomillashtirishning ayrim masalalari 102

V. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT
V. ECONOMICS: THEORY AND PRACTICE

ISLOMOV A.B., MURADULLAYEV A.A.
O'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida autsorsing xizmatlarini tashkil etish afzalliklari... 109

VI. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI
VI. TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

KULDASHEV I.X., ABDULLAYEV L.O.
Sanoat xavfsizligi sohasida xavf, xavf-xatar, va xavfsizlik tushunchalarining tahlili va dolzarbligi 115
ГЛУХОВ Е.В., ХАТАМОВ Б.Б., МАДАЛИЕВ С.О.
Методы управления радиочастотным спектром в когнитивных радиосетях 120

VII. XORIJIY TAJRIBA
VII. FOREIGN EXPERIENCE

SAIDOV A.A.
Mahkumlar bilan muomala qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining amaliyoti va xalqaro hamkorlik 125
ТУРСУНОВ О.Б.
Основные принципы международного водного права 127
КОВАЛЬЧУК А.В., ДУХОВНИК Ю.Е.
Неоказание капитаном судна помощи терпящим бедствие (ст. 160 Уголовного кодекса Республики Беларусь): вопросы регламентации уголовной ответственности и установления наказания 130
РАШИДОВА К.И.
Концептуальные подходы определения современных форм рабства в международном праве 139
MAMARASULOV D.X., KARIMOV J.J.
Xodimlar huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha xorijiy tajriba 146

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

XALQPARVAR DAVLAT: ASOSIY BELGILARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan dunyo davlatchiligi amaliyoti va tajribasida uchramagan, kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun butunlay yangi hisoblangan “inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar davlat” g‘oyasi ilgari surilmoqda. Xalqparvar davlat g‘oyasi keng qamrovli bo‘lib, u o‘z tarkibiga davlat suverenitetini mustahkamlash, adolatni qaror toptirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquqini oliy qadriyat sifatida tan olish, uning farovonligi uchun barcha ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, ekologik shart-sharoitlarni yaratib berish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning chinakam xalq xizmatida bo‘lishi, inson huquqlarini sud yo‘li bilan himoyasini ta’minlash kabilarni qamrab oladi.

Demak, avvalo, xalqparvar davlatda inson qadri yuksak darajada bo‘lishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “inson qadri uchun” g‘oyasi ilgari surilar ekan, uning tushunchasi, mazmuni va asosiy belgilari Yurtboshimizning o‘zi tomonidan ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, inson qadri deganda, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish tushuniladi [1]. Demak, inson qadri tushunchasining belgilari bo‘lib, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta’minlash, fuqarolarning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, kuchli ijtimoiy himoya tizimi, sifatli ta’lim berish, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, sog‘lom ekologik muhit yaratib berish hisoblanadi.

Prezidentimiz farmoni asosida tasdiqlangan yetti yo‘nalishdan iborat O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasi[2]dagi har bir yo‘nalish inson qadri ulug‘lanadigan xalqparvar davlat barpo etishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning mazmun-mohiyatida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish g‘oyalari mujassamlashgan.

Chunonchi, Taraqqiyot strategiyasining yo‘nalishlaridagi asosiy vazifalarga e’tiborni qaratsak, ularda davlat funksiyalarining katta qismini markazdan hududlarga o‘tkazish, har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etish, uning asosiy vazifasi yangi ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirish, oilada sog‘lom muhitni shakllantirish, xalq qabulxonalarini tom ma’noda xalq fikrini ifoda etadigan tuzilmaga aylantirish, odil sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqligi ta’minlash, huquq-tartibot organlari faoliyati yanada takomillashtirish, sud xususiy mulk himoyasida turib, fuqaro va tadbirkorlarning huquqlarini tiklash orqali ijro idoralarini qonun doirasida ishlashga majbur qiladigan tizim yaratish, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish, «Daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish, har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish, oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish, maktabgacha ta’lim qamrovini hozirgi 62 foizdan 80 foizga yetkazish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish [3] vazifalari mustahkamlangan. Sanab o‘tilgan vazifalarning amaliyotdagi ijrosi, albatta, xalqparvar davlatni barpo etishga xizmat qiladi.

Shuni aytish kerakki, inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlatni barpo etish yangi O'zbekistonni shakllantirishga asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yangi O'zbekiston g'oyasi ilgari surilib, uning tushunchasi ishlab chiqildi, belgilari ko'rsatib berildi. Yurtboshimizning ta'rifiga ko'ra, yangi O'zbekiston deganda, har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan, odamlar o'z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lgan, hamma uchun adolatni so'zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlat tushuniladi [4]. Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat tushuniladi.

Demak, yangi O'zbekiston tushunchasining asosiy belgilari sifatida har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratilishi, odamlar o'z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lishi, hamma uchun adolatni so'zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lishini e'tirof etish mumkin.

Ayniqsa, keyingi olti-yetti yilda amalga oshirilayotgan tub islohotlar – davlat organlari va mansabdor shaxslarning amalda chinakam xalqqa xizmat qilishi, Xalq qabulxonalari orqali xalqning dardi va muammolarining to'g'ridan-to'g'ri eshitilishi, mavjud muammolarning joyida hal etilishi, davlat xizmatlarining yo'lga qo'yilishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqqa xizmat qilishi tamoyilining amaliyotga to'la joriy etilishi O'zbekiston chinakam inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar, ijtimoiy, demokratik, dunyoviy davlat barpo etish yo'lida ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababdan, bugungi kunda to'la asoslar bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchada "O'zbekiston – suveren respublika, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat", tahriridagi qoidaning mustahkamlanishi ayni muddao bo'ladi.

Inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlat barpo etish yo'lidagi birinchi vazifa davlat suverenitetini mustahkamlashdan iboratdir. Davlat suvereniteti deganda, davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning mamlakat ichkarisida va xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan to'la mustaqilligi tushuniladi. Suverenitet har qanday mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo'lib, uning to'la huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi. Bugungi kunda davlat suvereniteti prinsipi har bir davlatning boshqa xorij davlatlar bilan xalqaro hamkorlik qilishining eng muhim talablaridan biri hisoblanadi.

1990 yil 20 iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi" [5]da O'zbekiston xalqining xohish-irodasi mustahkamlab qo'yildi va bu bo'lib o'tgan umumxalq referendumi orqali o'z tasdig'ini topdi. Ushbu deklaratsiya orqali O'zbekistonning davlat mustaqilligi va suveren demokratik respublika ekanligi rasmiylashtirildi. Deklaratsiyaning tegishli moddalarida O'zbekistonning davlat hududi va chegarasi daxlsizligi, davlat hokimiyati O'zbekistonning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqliligi mustahkamlandi (2-4 moddalar).

Inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlat barpo etish jarayonidagi asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy davlat qurish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchada O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy davlat ekanligi mustahkamlangan. Ijtimoiy davlat degani - bu uning aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishida va sog'liqni saqlashda faol ishtirok etish, bepul umumiy ta'limni, ish haqining eng kam miqdorini belgilanishi, mehnat va bozor munosabatlarining adolatli ravishda qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi demakdir. O'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy davlatning siyosati to'laligicha insonning munosib yashashi va erkin kamol topishini ta'minlashi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Umume'tirof etilgan yondashuvlarga ko'ra, demokratik xarakterdagi har qanday davlat umumijtimoiy faoliyatni amalga oshirib, butun jamiyat, barcha sinflar, ijtimoiy guruhlar va jamiyat qatlamlarining manfaatlarini himoya qiladi. Ijtimoiy guruhlar va ayrim qatlamlarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda muayyan farqlar ham mavjud bo'lib, bunda ijtimoiy ta'minot masalasida nogironlar, yetim bolalar, kam daromadli oilalar davlatning alohida himoyasida bo'ladi.

Shu o'rinda aytish lozimki, davlat ijtimoiy mohiyatining markazida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida nazarda

tutilgan O'zbekiston Respublikasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi [6] to'g'risidagi qoidani ro'yobga chiqarish yotadi.

Inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlat barpo etishdagi muhim vazifalardan yana biri demokratik huquqiy davlatni shakllantirishdir. Xalqparvar davlat o'z oldiga demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qiladi. Demokratik huquqiy davlat bu - huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlatdir. Demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilari bo'lib huquqning hukmronligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi, davlat va fuqarolarning o'zaro mas'ulligi, jamiyatda hokimiyatning qonuniyligi (legitimligi), hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi, huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi, demokratiyaning takomillashganligi hisoblanadi.

Demokratik huquqiy davlatda demokratiya yuqori darajada takomillashgan bo'ladi. Demokratizmning asosiy belgilari sifatida davlat xalq irodasini ifoda etishi va uning manfaatlariga xizmat qilishi, hokimiyatning birdan-bir manbai xalq hisoblanishi, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etilishi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yilishi, xalq qonun chiqaruvchi organ va Prezident saylovlarida bevosita ishtirok etishi, davlat hokimiyati xalqqa hisob berishi, xalqning qarorlar qabul qilishdan xabardorligi, hukumat qarorlari xalq tomonidan nazorat qilinishi, oddiy fuqaroning davlatni boshqarishdagi ishtiroki, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilmaxilligi tan olinadi.

Demokratik huquqiy davlatda qonuniylik prinsipining belgilari sifatida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi, davlat, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar, birorta ham qonun Konstitutsiya normalariga zid kelishi mumkin emas, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi qaror topadi.

Inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlatni shakllantirishdagi asosiy masalalardan biri dunyoviy davlat barpo etishdan iboratdir. Ushbu maqsad O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan qo'shimchada o'z ifodasini topdi (1-modda). Dunyoviy davlat tushunchasi davlat bilan din o'rtasidagi o'zaro nisbatni, shu davlatning dinga munosabatini, aniqrog'i dindan holi mavjud bo'lishi va faoliyat yuritishini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda, dunyoviy davlat deganda, hech bir dinga davlat dini maqomi berilmaydigan, diniy qarashlarni davlat mafkurasi sifatida tan olmaydigan, dinning davlat siyosatini yuritish, davlat boshqaruvi va ta'lim jarayonini amalga oshirishda aralashuvi man etilgan davlatlar tushuniladi.

Ma'lumki, Konstitutsiya va qonunga ko'ra davlat dindan ajratilgandir. Dinning davlatdan ajratilganligi quyidagilarda ko'rinadi: diniy muassasa va tashkilotlar zimmasiga davlatga tegishli biron bir funksiya yuklatilmaydi; davlat tomonidan hech bir diniy konfessiyaga moddiy yordam ko'rsatilmaydi, ularning hech biriga imtiyozlar berilmaydi; davlat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatiga aralashmaydi; diniy tashkilotlar va ular xizmatchilarining faoliyati faqat bir maqsadga - fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirishga, diniy ibodat va marosimlarni ado etishga qaratiladi.

Ammo, davlat o'z fuqarolarining vijdon erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi [7]. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" [8]gi qonuniga binoan, dindorlarning diniy tuyg'ulari hurmat qilinadi, diniy e'tiqod fuqarolarning shaxsiy ishi deb hisoblanadi, diniy qarashlar uchun hech kim ta'qib qilinmaydi, dindan konstitutsiyaviy tuzum va aholi tinchligini buzishga qaratilgan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlat barpo etish jarayonidagi asosiy vazifalardan biri inson huquqini ta'minlash va uni himoya qilish hisoblanadi. Inson huquqlari xalqparvar demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri bo'lib, u davlatda xalq hokimiyatchiligini qay darajada o'rnatilganligini ko'rsatuvchi o'ziga xos mezondir. Shu sababdan, inson huquqini himoya qilish davlatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy tizimining ustuvor yo'nalishi va maqsadidir.

Shu maqsadda inson huquqini ta'minlashga bag'ishlangan konstitutsiyaviy quyidagi qoidalarning Asosiy qonunimizdan joy topgan-

ligini maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin: birinchidan, insonning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida qonunchilikda yuzaga keladigan, bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi; ikkinchidan, insonning huquq va erkinliklari tug'ilishi bilan unga tegishli bo'ladi, mutloq va ajralmas deb tan olinadi; uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashayotgan fuqarolar va vatandoshlar bilan aloqalarning saqlab qolinishi hamda rivojlanishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi; to'rtinchidan, inson va fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklariga, konstitutsiyaviy tuzum va jamiyatning ma'naviyatiga putur yetkazmasligi shart; beshinchidan, ushlab turishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga yoki ozodlikni boshqacha cheklashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi; oltinchidan, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lmasligi kerak; yettinchidan, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning o'zi va oilasining yashashi uchun yetarli bo'lishi kerak; sakkizinchidan, har kim sog'lom va qulay atrof tabiiy muhitga, uning holati haqidagi haqqoniy axborotga ega bo'lish hamda o'z sog'lig'iga yoki mol-mulkiga ekologik huquqbuzarlik tufayli yetkazilgan zararning o'rnining qoplanishi huquqiga ega; to'qqizinchidan, hech bir shaxs o'z mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emas. Mulkni jamoat ehtiyojlari uchun majburiy ravishda boshqa shaxsga o'tkazish uning o'rnini oldindan va teng qiymatda qoplash sharti bilan amalga oshiriladi; o'ninchidan, bolaning manfaatlari, jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi va hokazo.

Shuningdek, insonning shaxsiy huquq va erkinliklariga bag'ishlangan quyidagi tahrirdagi qoidalarning Konstitutsiyaga kiritilganligi diqqatga sazovordir: birinchidan, yashash huquqi har bir insonning tabiiy va uzviy huquqidir. O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Hech kim tutqunlikda saqlanishi, majburiy mehnatga, hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diradigan ishlarga jalb qilinishi mumkin emas. Odam savdosining har qanday ko'rinishi qonun bilan taqiqlanadi. Har kim o'zining hayoti va sog'lig'ini hamda boshqalarning hayoti va sog'lig'ini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish huquqiga ega; ikkinchidan; har qanday shaxs uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas va hokazo.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlatni shakllantirish maqsadida bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ijtimoiy, demokratik huquqiy, dunyoviy yangi O'zbekistonni bunyod etishga, bu makonda fuqarolarning tinch, osoyishta va farovon yashashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миллий мустақиллик – Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам асосидир //Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз бир йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи;

2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон;

3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон;

4. Миллий мустақиллик – Янги Ўзбекистоннинг мустаҳкам асосидир //Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз бир йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи;

5. 1990 йил 20 июнда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши томонидан қабул қилинган "Мустақиллик декларацияси";

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2019;

7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2019;

8. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 06.07.2021, 03/21/699/0635-сон.

Rustambayev M.X. Xalqparvar davlat: asosiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlari

Maqolada mamlakatimizda inson qadri ulug'lanadigan xalqparvar davlat barpo etish uchun yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, xalqparvar davlat tushunchasi, uning asosiy belgilari, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inson qadri, xalqparvar davlat, yangi O'zbekiston, demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat, suveren davlat, demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi.

Рустамбаев М.Х. Гуманное государство: его основные черты и особенности

В статье проанализированы реформы, направленные на реализацию мер по построению в Узбекистане современного государства при приоритете чести и достоинства человека, дано понятие гуманного государства, обозначены его основные черты, задачи и особенности.

Ключевые слова: достоинство человека, гуманное государство, новый Узбекистан, демократическое правовое государство, социальное государство, светкое государство, суверенное государство, демократия, права человека, приоритет закона.

Rustambaev M.X. A democratic state: its main characteristics and characteristics

The article analyzes fundamental reforms implemented in the new Uzbekistan in recent years to establish a people-friendly state in which human dignity is respected, the concept of a people-friendly state, its main features, tasks and characteristics.

Key words: human dignity, people-friendly state, new Uzbekistan, democratic legal state, social state, secular state, sovereign state, democracy, human rights, rule of law.

Узаков Шухрат Шарапович,
самостоятельный соискатель Университета общественой безопасности
Республики Узбекистан, генерал-майор

К ВОПРОСУ О ПОТЕРПЕВШЕМ ОТ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И ЕГО ЗАЩИТЕ ПРОКУРОРОМ

Исторический момент развития нашего общества требует, чтобы все государственные и общественные органы, махаллинские комитеты и даже рядовые граждане обратили пристальное внимание на кризисное состояние жертв преступлений, ибо преступность в Республике Узбекистан растёт из года в год, уровень виктимизации повышается, а правоохранительная и судебная система основой своей деятельности считает профилактику правонарушений. Безусловно, профилактика правонарушений необходима, но нельзя не принимать во вимание состояние жертв преступления, которым наносится материальный, моральный, физический ущерб, либо имеет место причинение вреда комбинированного характера.

На протяжении многих десятилетий, начиная с периода действия административно-командной системы, и по настоящий момент, когда уже Узбекистан обрёл независимость, отношение к жертвам преступлений имеет сугубо статистический подход, без учёта их нужд и чаяний. Причём, статистика учитывала в основном показатели преступности, количество расследованных уголовных дел, количество привлеченных к уголовной ответственности, в то время как количество жертв преступлений, показатель соблюдения их прав и законных интересов, показатель возмещаемости материального ущерба физическим лицам в результате совершения преступления не интересовал государственную правоохранительную машину, ибо главное внимание уделялось возмещаемости государству ущерба. Интересы государства были выше интересов личности: принцип, когда человек считался винтиком государственной машины, не был ликвидирован и остался в постсоветском обществе. Права человека провозглашались, однако они имели сугубо номинальный характер.

Система уголовного правосудия основывалась на тех же принципах приоритета государственных интересов над личными, и основополагающим принципом был принцип неумолимой ответственности и наказания за совершенное преступление. Никого из государственных чиновников не интересовало бедственное положение потерпевших от преступлений. А интерес если и существовал, то в основном был ведомственный. Последствием такого положения дел стал факт привлечения за коррупцию к уголовной ответственности многих руководителей государственных органов, которые отвечали за безопасность государства, осуществление прокурорского надзора, либо были наделены судебной властью.

Возможно, что положение дел и до сегодяшнего дня оставалось бы без особых изменений, однако благодаря деятельности Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева в Республике Узбекистан осуществляются кореные изменеия в государственной сфере, направленные на учёт интересов народа и удовлетворение его чаяний. Принцип: «Не человек должен служить государственным органам, а государственные органы должны служить человеку»,- уже своим появлением положил начало массовому участию народа в управлении государственными делами через организованные Президентом Республики народные приемные (халқ қабулхоналари). Многие вопросы, которые не имели разрешения в прошлом, легко и быстро разрешались при участии сотрудников государственного аппарата для удовлетворения законных интересов заявителей.

Кроме того, в конце 2018 года Президент Республики Узбекистан выдвинул идею коренного обновления законодательства Республики Узбекистан, в частности, об осуществлении подготовки проектов Уголовного и Уголовно-процессуальных кодексов Республики Узбекистан. Руководитель государства отметил, что эти кодексы отстали от жизни и требуют замены. Необходимо создать новые кодексы, отвечающие требованиям времени, и, что самое главное, основным требованиям народа, ради создания Нового Узбекистана, где ценность человека и удовлетворение его насущных интересов будет в непререкаемом приоритете. Именно для осуществления этих целей была принята Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на основании Указа Президента от 7 февраля 2017 года №УП-4947 [1], где провоз-

глашалось:

Проведенные за годы независимости широкомасштабные реформы заложили прочный фундамент национальной государственности и суверенитета, обеспечения безопасности и правопорядка, неприкосновенности государственных границ, верховенства закона, прав и свобод человека, межнационального согласия и религиозной толерантности в обществе, создали достойные условия жизни для населения и реализации созидательного потенциала граждан.

Отказ от административно-командного управления экономикой, поэтапная реализация рыночных реформ и взвешенная денежно-кредитная политика способствовали обеспечению макроэкономической стабильности, высоких темпов роста экономики, удержанию инфляции в пределах прогнозов, созданию широких возможностей и благоприятных условий для развития малого бизнеса и частного предпринимательства, фермерского движения.

Вместе с тем, всесторонний анализ пройденного этапа развития страны, изменяющаяся конъюнктура мировой экономики в условиях глобализации и усиливающаяся конкуренция требуют выработки и реализации кардинально новых идей и принципов дальнейшего устойчивого и опережающего развития страны.

В целях коренного повышения эффективности проводимых реформ, создания условий для обеспечения всестороннего и ускоренного развития государства и общества, реализации приоритетных направлений по модернизации страны и либерализации всех сфер жизни:

1. Утвердить разработанную по итогам комплексного изучения актуальных и волнующих население и предпринимателей вопросов, анализа действующего законодательства, правоприменительной практики и передового зарубежного опыта, а также широкого общественного обсуждения Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах (далее – Стратегия действий) согласно приложению № 1, предусматривающую:

совершенствование государственного и общественного строительства, направленное на дальнейшее усиление роли парламента и политических партий в углублении демократических реформ и модернизации страны, реформирование системы государственного управления, развитие организационно-правовых основ государственной службы, совершенствование системы «Электронное правительство», повышение качества и эффективности государственных услуг, практическую реализацию механизмов общественного контроля, усиление роли институтов гражданского общества и средств массовой информации;

обеспечение верховенства закона и дальнейшее реформирование судебно-правовой системы, направленное на укрепление подлинной независимости судебной власти и гарантий надежной защиты прав и свобод граждан, совершенствование административного, уголовного, гражданского и хозяйственного законодательства, повышение эффективности системы противодействия преступности и профилактики правонарушений, полную реализацию принципа состязательности в судебном процессе, совершенствование системы оказания юридической помощи и правовых услуг;

развитие и либерализацию экономики, направленные на дальнейшее укрепление макроэкономической стабильности и сохранение высоких темпов роста экономики, повышение ее конкурентоспособности, модернизацию и интенсивное развитие сельского хозяйства, продолжение институциональных и структурных реформ по сокращению присутствия государства в экономике, дальнейшее усиление защиты прав и приоритетной роли частной собственности, стимулирование развития малого бизнеса и частного предпринимательства, комплексное и сбалансированное социально-экономическое развитие регионов, районов и городов, активное привлечение иностранных инвестиций в отрасли экономики и регионы страны путем улучшения инвестиционного климата;

развитие социальной сферы, направленное на последовательное повышение занятости и реальных доходов населения, совершенствование системы социальной защиты и охраны здоровья граждан, повышение социально-политической активности женщин, реализацию целевых программ по строительству доступного жилья, развитию и модернизации дорожно-транспортной, инженерно-коммуникационной и социальной инфраструктур, развитие сферы образования, культуры, науки, литературы, искусства и спорта, совершенствование государственной

молодежной политики;

обеспечение безопасности, межнационального согласия и религиозной толерантности, осуществление взвешенной, взаимовыгодной и конструктивной внешней политики, направленные на укрепление независимости и суверенитета государства, создание вокруг Узбекистана пояса безопасности, стабильности и добрососедства, укрепление международного имиджа страны.

Конечно, укрепление гарантий надежной защиты прав и свобод граждан нельзя представить без обеспечения прав и законных интересов потерпевших от преступлений. В этом плане Президент Республики Узбекистан принял Указ «О мерах по дальнейшему реформированию судебно-правовой системы, усилению гарантий надежной защиты прав и свобод граждан» от 21 октября 2017 года №УП-4850 [2], в котором впервые были системно произведены следующие новации:

«**Важнейшими задачами судебных, правоохранительных и контролирующих органов** по реализации основных приоритетов государственной политики установить:

обеспечение неукоснительного соблюдения конституционных норм о независимости судебной власти и принципа неотвратимости ответственности за вмешательство в деятельность по отправлению правосудия;

незамедлительное принятие необходимых мер по фактам посягательств, нарушающих права, свободы и законные интересы граждан;

своевременное разрешение обращений физических и юридических лиц, обеспечение неотвратимости ответственности, вплоть до уголовной, за допущение фактов волокиты и безразличного отношения к рассмотрению обращений, а также **принятие всех необходимых мер по восстановлению нарушенных прав;**

обеспечение открытости и прозрачности деятельности, широкое применение эффективных механизмов взаимодействия с институтами гражданского общества, средствами массовой информации и населением;

планирование и организацию деятельности на основе комплексного анализа итогов работы, направленного, прежде всего, на выявление и устранение причин и условий системных нарушений путем совершенствования правоприменительной практики и действующего законодательства;

усиление ведомственного контроля по предупреждению, профилактике и пресечению злоупотреблений и других правонарушений среди работников, обеспечение неукоснительного соблюдения правил этического поведения;

совершенствование системы приема на работу на основе прозрачного конкурсного отбора кадров, обладающих высокими морально-волевыми и профессиональными качествами, способных обеспечить выполнение возложенных задач и эффективную реализацию осуществляемых реформ;

внедрение передовых научно-технических средств и информационно-коммуникационных технологий, современных форм и методов организации работы, направленных на повышение эффективности деятельности, а также обеспечение безусловного соблюдения прав и законных интересов граждан.

Требование о необходимости принятия мер по восстановлению нарушенных прав относилось и к жертвам преступлений. Данное требование, возведенное в ранг государственной политики отразилось, еще раньше, и на работе следственного аппарата. Так,18 апреля 2017 года Президент Республики Узбекистан принял Постановление «О мерах по коренному совершенствованию деятельности органов внутренних дел в сфере расследования преступлений» №ПП-2898, в котором провозглашались следующие основные направления повышения эффективности работы следственного аппарата:

«первое — неукоснительное обеспечение уголовно-процессуальной нормы, гарантирующей, что каждый, совершивший преступление, будет подвергнут справедливому наказанию и ни один невиновный не будет привлечен к ответственности;

второе — своевременное раскрытие, всестороннее, полное и объективное расследование преступлений, безусловное соблюдение приоритета прав, свобод и законных интересов граждан, уважения их чести и достоинства при производстве дознания и предварительного следствия;

третье — обеспечение подлинной процессуальной самостоятельности дознавателей и следователей, недопущение незаконного воздействия на них, необоснованного вмешательства в их деятельность;

четвертое — создание достойных условий для работы дознавателей и следователей с целью эффективной реализации возложенных на них задач, решение вопросов их

материального и социального обеспечения;

пятое — широкое внедрение в деятельность экспертно-криминалистических подразделений органов внутренних дел передовых криминалистических и научно-технических средств, а также современных форм и методов работы» [3].

Хотя в данном постановлении фигура потерпевшего не очень просматривается, однако 10 августа 2020 года Президент издает Указ «О мерах по дальнейшему усилению гарантий защиты прав и свобод личности в судебно-следственной деятельности» за №УП-6041, где объективно резюмируется, что «результаты анализа судебно-следственной практики и изучения обращений граждан свидетельствуют о неполном задействовании механизмов обеспечения гарантий защиты прав и свобод личности в уголовном процессе, а также наличии пробелов в законодательстве, связанных с четким определением полномочий правоохранительных органов по расследованию преступлений.

В целях улучшения деятельности по расследованию уголовных дел с учетом международных стандартов и передового зарубежного опыта, обеспечения принципов верховенства закона и неотвратимости ответственности, дальнейшего совершенствования уголовно-процессуального законодательства в стране, а также последовательной реализации задач, определенных в Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах:

Определить основными направлениями дальнейшего совершенствования судебно-следственной деятельности:

обеспечение безусловного соблюдения прав и свобод личности, повышение качества процессуальных действий, пересмотр системы сбора, закрепления и оценки доказательств в уголовном процессе с учетом стандартов доказывания, широко применяемых в передовой зарубежной практике;

поднятие на новый уровень деятельности правоохранительных органов по раскрытию преступлений, **обеспечение неотвратимости ответственности за каждое совершенное преступление и полного возмещения ущерба, причиненного личности, обществу и государству;**

внедрение эффективных механизмов предупреждения совершения деяний, связанных с применением пыток и других жестоких, бесчеловечных или унижающих достоинство видов обращения и наказания, а также усиление ответственности за такие деяния;

широкое внедрение современных информационно-коммуникационных технологий в процесс расследования уголовных дел, дальнейшее укрепление материально-технической базы и повышение кадрового потенциала органов дознания и предварительного следствия;

повышение эффективности системы предупреждения преступности, а также внедрение механизмов своевременного выявления и устранения причин и условий, способствующих преступлениям, повышения правовой культуры и формирования у граждан духа законопослушания» [4].

И вот здесь, требование обеспечения неотвратимости ответственности за каждое совершенное преступление и полное возмещение ущерба причиненного личности означало реализацию принципа римского права, называемого Restitutio in integrum, означающее на латыни «восстановление в целости». In integrum restitutio или integri restitutio в тесном смысле имеет значение чрезвычайного средства судебной защиты; суд в силу предоставленной ему дискреционной власти, вопреки строгому праву, постановляет определение о восстановлении прежнего правового состояния, руководствуясь соображениями высшей справедливости.

Вместе с тем, хотя данный принцип и относится к цивильному праву, однако для потерпевшего от преступления его реализация в уголовном процессе будет означать самое главное- удовлетворение законных интересов жертвы преступления, включая восстановление его допреступного статуса. Однако для того, чтобы добиться этого status quo, потерпевшему приходится в правовом отношении намного труднее, чем подозреваемому или обвиняемому, которые обеспечены правовой защитой адвоката, если даже у них нет средств для оплаты деятельности адвоката за юридические услуги.

И вот, мы подошли к самому главному, а именно, представитель потерпевшего - это фигура уголовного процесса, который за соответствующую плату осуществляет защиту потерпевшего. На практике адвокаты, скорее займутся уголовными делами подозреваемых или обвиняемых, чем станут защищать интересы жертвы преступления. И вот здесь, на

правовом поле и появляется фигура прокурора. Именно он должен обеспечить права и законные интересы жертвы преступления. Возникает закономерный вопрос: «Почему?» Попытаемся ответить.

Если лицо производящее доследственную проверку, дознаватель либо следователь будут ощущать на себе воздействие прокурора через потерпевшего от преступления, то можно гарантированно ответствовать, что права и законные интересы потерпевшего в досудебных стадиях уголовного процесса будут обеспечены. Только, здесь, появляется одна правовая недомолвка, какая?

Дело в том, что законодательство бывшего Союза ССР, а также УПК Республики Узбекистан 1994 года все ещё были тесно связаны между собой фундаментальной системой отраслевых норм, подчиненных идее тоталитарного строя. Даже УПК независимого Узбекистана в какой-то мере повторял Модельный УПК разработанный авторами Института государства и права СССР. Все это не могло не отражаться на правовом положении потерпевшего. Поэтому предложения Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева относительно коренного изменения Уголовного и Уголовно-процессуального кодексов – веление времени [5]. Старое «инквизиционное» законодательство не учитывало коренных интересов жертв преступлений, демократическое законодательство Нового Узбекистана, основанного на защите прав человека, призвано стать несокрушимым фундаментом защиты жертв преступлений, а прокурор будет являться гарантом в процессе обеспечения прав и законных интересов потерпевшего в уголовном процессе.

На наш взгляд, появится доселе неизвестный, однако очень эффективный правовой институт процессуального сопровождения прокурором участия потерпевшего в досудебных и судебных стадиях уголовного процесса. Цель такого сопровождения –везде и всегда отстаивать права и законные интересы потерпевшего, принимающего участие в ходе доследственной проверки, возбуждения уголовного дела, отказа в возбуждении уголовного дела, применения мер пресечения, мер обеспечения гражданского иска, продления срока следствия, приостановления и возобновления предварительного следствия, предъявления окончательного обвинения, ознакомления с материалами уголовного дела, ознакомления с обвинительным заключением и направлением уголовного дела в суд, включая и судебное разбирательство, вплоть до исполнения приговора, а также удовлетворения материально-правовых, имущественных интересов потерпевшего от преступления.

В заключении статьи, выразим надежду в том, что в новой Стратегии развития Республики Узбекистан(которая, в настоящее время, находится в стадии общественного обсуждения), вопросы обеспечения прокурором прав и законных интересов потерпевшего в досудебных стадиях уголовного процесса обязательно найдут свое отражение. Тем более, что поставлена еще более сложная задача: бумажное делопроизводство уголовного дела. в уголовном процессе перевести в кратчайшие сроки в электронную форму

Использованная литература

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

2. См.: Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Суд-ҳуқуқ тизими янада ислоҳ килиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликарини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2017 йил 21 октябрдаги ПФ-4850-сон Фармони//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 43-сон, 497-модда

3. См.: Ўзбекистон Республикаси Президентининг « Ички ишлар органларининг жиноятларни тергов қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 18 апрельдаги №ПҚ-2898-сон Қарори//(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 17-сон, 290-модда№; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.05.2019 й., 07/19/4343/3206-сон)

4. См.: Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему усилению гарантий защиты прав и свобод личности в судебно-следственной деятельности» за №УП-6041 от 10 августа 2020 г.//(Национальная база данных законодательства, 10.08.2020 г., № 06/20/6041/1151)

5. Сроки подготовки новых кодексов были указаны 1 июлем 2019 годом, однако до сих пор новых кодексов мы не получили. Эти слова Президента Республики Узбекистан были высказаны в Обращении Президента обеим палатам Олий Мажлиса Республики Узбекистан 28 декабря 2018 года// Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (2018 йил 28 январь)//"Халқ сўзи", 2018 йил 29 декабрь.

Узаков Ш.Ш. К вопросу о потерпевшем от преступления и его защите прокурором

В статье высказан ряд умозаключений о положении потерпевшего в уголовном процессе, а также сделана попытка поиска ответов, почему в уголовном процессе потерпевший менее значим по сравнению с подозреваемым и обвиняемым, в чем причина второразрядности данного участника уголовного процесса . Итогом исследования является заключение о применении в уголовном процессе отжившей командно-административной системы, в конце 1990 годов оказавшей определённое воздействие на новое уголовное и уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан. Автором предложено для преодоления существующего положения дел, наряду с принятием новых кодексов – УК и УПК, ввести в уголовный процесс новый институт – институт процессуального сопровождения прокурором участия потерпевшего в досудебных и судебных стадиях уголовного процесса.

Ключевые слова: потерпевший от преступления, прокурор, инквизиционный процесс, новые Уголовный и Уголовно-процессуальные кодексы Республики Узбекистан, институт процессуального сопровождения прокурором участия потерпевшего в досудебных стадиях уголовного процесса, судебная статистика.

Uzoqov Sh.Sh. Jinoyat qurboni va uning prokuror tomonidan himoyasi haqida ba'zi fikrlar

Maqola muallifi jinoyat protsessida jabrlanuvchining o'rni to'g'risida fikr yuritib, asosli fikr-mulohazalarni yuritib, o'z o'ziga nima uchun jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquqiy maqomi gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan unchalik ahamiyatli emasligi, nima uchun u ikkinchi darajali pog'onada turib, jinoyat-protsessual munosabatlarda ishtirok etadi, degan savollar ustida o'ylab, oxir-oqibat bu holatning sababini topadi va bu sabab inkvizitsion sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimining 1990-yillar oxirida o'zining salbiy ta'sirini endigina shakllanayotgan O'zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'rsatganini anglab, bu holatdan holi bo'lish uchun yangi Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarning qabul qilinishi bilan birga, muallif jinoyat protsessida yangi institutni joriy qilinishi to'g'risidagi taklifni ilgari suradi, ya'ni jabrlanuvchining suddan avvalgi va sud bosqichlaridagi ishtirokini prokuror tomonidan protsessual jihatdan olib borish.

Kalitli so'zlar: jinoyat qurboni (jabrlanuvchi), prokuror, inkvizitsion protsess, O'zbekiston Respublikasining yangi Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari, jabrlanuvchining suddan avvalgi va sud bosqichlaridagi ishtirokini prokuror tomonidan protsessual jihatdan olib borish, sud statistikasi.

Uzakov Sh.Sh. Some thoughts about the victim of the crime and his defense by the prosecutor

The author of the article reflects on the position of the victim in the criminal process and tries to find answers, why the victim is less significant in criminal proceedings in comparison with suspects and accused, what is the reason for second-ranking of this participant of criminal proceedings and finally finds the basis in the presence of inquisitorial principles of criminal proceedings of obsolete command-administrative system, which in the late 1990s still had its impact on the new emerging criminal and criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan. In order to overcome this condition along with adoption of new codes - Criminal Code and Criminal Procedure Code the author proposes to introduce into criminal proceedings a new institution - institute of procedural support by prosecutor of participation of the victim in pre-trial and trial stages of criminal proceedings.

Key words: crime victim, prosecutor, inquisitorial process, new Criminal Code and Code of Criminal Procedure of the Republic of Uzbekistan, institute of procedural support by the prosecutor of participation of the victim in the pre-trial stages of the criminal process, judicial statistics.

Ruziyev Rustam Djabbarovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

MAJBURIYATLARNI BAJARISH PRINSIPI (QOIDASI)NING ILMIY-NAZARIY MASALALARI

Majburiyat ijrosi va uni ta'minlash muammosi qadimdan dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bois, majburiyatni bajarish va uni ta'minlashning ko'plab usullari Rim huquqidayoq ma'lum bo'lganligini, musulmon huquqida ham tartibga solinganligini e'tirof etish mumkin[1].

Majburiyat huquqi fuqarolik huquqining markaziy institutlaridan biri sifatida o'zining qonunda qayd etilgan asosiy qoidalariga ega bo'lib, ular ilgarigi qonun hujjatlarida nazarda tutilganlaridan farq qiladi.

Maxsus adabiyotlarda shartnoma majburiyatlarini amalda bajarishni qoida (prinsip) sifatida qabul qilish masalasi muhim o'rin egallaydi [2]. U majburiyatni asl holida bajarish zaruriyatidan, ya'ni qarzdor aynan majburiyat mohiyatini aks ettiruvchi amalni bajarishi, uni zararni qoplash yoki neustoyka to'lash kabi pullik ekvivalent bilan almashtirmasligidan kelib chiqadi. Yetkazib berish majburiyatida – bu ta'minotchi tomonidan sotib oluvchiga mahsulotni (tovarni) topshirish; kapital qurilish pudrati majburiyatida – pudratchining buyurtmachiga obyektni topshirish; yuk tashish majburiyatida – transport tashkiloti tomonidan yukni yuk jo'natuvchi ko'rsatgan joyga yetkazib berish va qayd etilgan shaxsga topshirish; moddiy obyektlar yaratish bilan bog'liq bo'lmagan, turli ishlar va xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirish majburiyatlarida – ularni amalga oshirishdir [3].

Sobiq ittifoq davrida shartnoma majburiyatlarini amalda bajarish sotsialistik shartnomaviy huquqning eng muhim qoidalari qatoriga kiritilgan. Bu o'sha paytda barcha sivilistlarning yakdil fikri bo'lgan [4].

Majburiyatni amalda bajarish qoidasi ilgarigi O'zbekiston Grajdanlik kodeksining ham umumiy qismida, ham maxsus qismidagi bir qator moddalarida e'tirof etilgan edi. Ularning mohiyati shunda ediki, sotsialistik tashkilotlarning o'zaro munosabatlarida ijroni pullik badal bilan almashtirishga yo'l qo'yilmas edi. Shuningdek, asl holida bajarish majburiyati yetkazib berish, kontraktatsiya, temir yo'l, ichki suv va avtomobillarda tashishlar bo'yicha shartnomalarni tartibga soluvchi ayrim me'yoriy hujjatlarda ham qayd etilgan edi [5].

Zamonaviy fuqarolik qonunchiligi ham asl holida bajarishni majburiyat huquqi qoidalaridan biri deb tan oladi.

Bu qoida O'R FK 330-moddasida umumiy tarzda o'z ifodasini topgan bo'lib, nomlari qayd etilgan majburiyatlar yoxud maxsus me'yorlar bilan tartibga solingan yoxud taraflarning o'zi tomonidan huquqqa ma'lum bo'lmagan shartnoma modeli asosida yaratilgan majburiyatlar bo'lishidan qat'i nazar, shartnoma majburiyatlarining barcha turlariga tegishlidir [6].

Ushbu qoida bo'yicha shartnomada majburiyatlarni ta'riflash bilan birga, kreditorga zarar qoplab berilishiga qaramay, amalda bajarish vazifasining saqlab qolinishi yoki qolinmasligini taraflarning o'zi hal qiladi.

Ijro lozim darajada bajarilmagan taqdirda, agar shartnoma yoki qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, neustoyka to'lash va zararni qoplash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi (O'R FK 330-moddasi 1-qismi). Agar majburiyat umuman bajarilmagan bo'lsa, qarzdor kreditorga zararni qoplab, neustoykani to'laganidan keyin majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilinadi. Biroq, bunda qonunda yoki shartnomada qarzdorning ijroni amalga oshirish va kreditorga natijani topshirish majburiyati belgilangan bo'lishi mumkin (O'R FK 330-moddasi 2-qismi). Masalan, sotuvchi chakana oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha majburiyatini bajarmagan taqdirda zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi (O'R FK 436-moddasi).

Huquq nazariyasida majburiyatni bajarmaslik shu bilan tavsiflanadiki, qarzdor amalga oshirishi kerak bo'lgan harakatlarni bajarmaydi va kreditor ega bo'lishi lozim hisoblangan moddiy ne'matlarga ega bo'lmay qoladi (sotuvchi sotilgan buyumlarni bermaydi, pudratchi ishni bajarmaydi va hokazo). Ya'ni, majburiyatning asosiy maqsadiga erishilmaydi. Lozim darajada ijro etmaslik (yoxud to'liq bajarmaslik) vaziyatida esa, majburiyatning asosiy maqsadiga erishiladi. Ammo, bu kreditor uchun manfaatsizroq holda amalga oshiriladi (masalan, muddatidan kechiktirib, ko'proq xarajat bilan sifati talab dara-

jasida bo'lmagan buyumlarni topshirish va hokazo).

Lozim darajada bo'lmagan ijro va umuman bajarmaslik o'rtasidagi tafovut «betartib» qarzdorga kreditor tomonidan qo'yiladigan talablar hajmida o'z aksini topadi. Birinchi holatda, majburiyatni buzish natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha vazifalardan tashqari qarzdor zimmasida asosiy vazifa – majburiyatni asl holida bajarish vazifasi yotadi, ikkinchi holatda, asosiy vazifa bekor qilinadi.

Biroq, huquq amaliyotida bajarmaslik va lozim darajada bajarmaslik o'rtasidagi chegara mutloq izchillik bilan aniqlanishi mumkin emas. O'R FK 330-moddasiga binoan bajarmaslik va lozim darajada bajarmaslikni qanday farqlash mumkin? O'ylashimizcha, jabr ko'rgan taraf shartnomani bekor qilishga qaror qilgan va shartnoma majburiyati bajarilmaganligi tufayli yetkazilgan zararni qoplash va neustoyka to'lash haqida da'vo qilgan bo'lsa, buni – bajarmaslik, deb tasniflash lozim. Agar jabrlangan taraf shartnomani bekor qilmasa va shartnoma bo'yicha unda qolgan moddiy huquqlarga qo'shimcha ravishda majburiyatning qisman buzilishi sabab yuzaga kelgan ziyonni qoplash haqida da'vo qilsa, bunday ijroni lozim darajada bajarmaslik, deb tushunish to'g'ri bo'ladi.

O'R FKdagi haqiqiy ijroni ta'minlash uchun belgilangan chora-tadbirlar qatorida 237-moddada berilgan majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga va uning shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmasligi haqidagi qoidani ko'rsatish mumkin. Biroq, bu - umuman barcha majburiyatlarga taalluqli qat'iy qoida bo'lib, O'R FK 29- bobining moddalari bilan to'ldiriladi. Bundan anglashiladiki, shartnomani bir tomonlama bekor qilish yoki unga o'zgartirishlar qiritishga umuman yo'l qo'yilmaydi.

O'R FKda haqiqiy ijro qoidasi shartnoma majburiyatlarining alohida turlariga nisbatan aniqlashtirilib chiqilgan. Masalan, mahsulot yetkazib berish majburiyati bo'yicha (O'R FK 443-moddasi) mahsulot yetkazib beruvchi majburiyatni amalda bajarishi zarur, ya'ni bir davrda yetkazib berilmagan mahsulotni sotib oluvchiga keyingi davrda (oyda, yil choragida) topshirishi kerak.

O'R FKda belgilangan haqiqiy ijro qoidasi bilan bir qatorda lozim darajada bajarilishi yoki kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilish huquqini beruvchi maxsus me'yorlari ham mavjud (bahoni kamaytirish, shartnomani bekor qilish va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish kabilar). Masalan, sotib oluvchining sotuvchidan majburiyat buzilishi oqibatlarini, Tovarning yetkazib berilmagan miqdorini oqilona muddatda topshirish yo'li bilan bartaraf etishni talab qilish huquqi (O'R FK 443-moddasi), tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sifati tegishli darajada bo'lmagan tovarni oldi-sotdi shartnomasida qayd etilgan mahsulotga mos kelgan tovarga almashtirib berishni talab etish huquqi (O'R FK 434-moddasi). Xuddi shunday huquqqa boshqa shartnomalar ishtirokchilari ham haqli. Masalan, idishga joylanishi va (yoki) o'ralishi lozim bo'lgan tovar sotib oluvchiga idishsiz va (yoki) o'ramagan holda yoxud tegishli idishga joylamagan va (yoki) tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, agar oldi-sotdi shartnomasidan, majburiyat mohiyati yoki tovarning xususiyatidan boshqa hol kelib chiqmasa, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va (yoki) o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va (yoki) o'rashni almashtirishni talab qilishga haqli (O'R FK 415-moddasi), sotib oluvchi (oluvchi) – tegishli darajada sifatli bo'lmagan tovar keltirilganda (O'R FK 451-moddasi), buyurtmachi – maishiy pudrat shartnomasi bo'yicha ish tegishli darajada yoki umuman bajarilmagan taqdirda (O'R FK 665-moddasi), ijaraga oluvchi – ijaraga beruvchi tomonidan topshirilgan mulkda aniqlangan yoki foydalanishga to'sqinlik qiladigan kamchiliklarni bartaraf etish majburiyatini bajarmasa (O'R FK 552-moddasi), qarz oluvchi – qarz beruvchi javob beradigan kamchiliklar aniqlangan taqdirda (O'R FK 738-moddasi), loyiha va qidiruv ishlari pudrati majburiyatlari bo'yicha, agar loyiha-smeta hujjatlarida yoki qidiruv ishlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda pudratchi buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va shunga muvofiq zarur qo'shimcha qidiruv ishlarini bajarishi, shuningdek, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, keltirilgan zararni buyurtmachiga to'lashi shart (O'R FK 691-moddasi).

Tovarning butligi buzilganda yoxud but bo'lmagan tovar topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni oqilona muddatda butlashni talab qilish huquqiga ega. Faqatgina, sotuvchi oqilona muddatda sotib oluvchining tovarni butlash to'g'risidagi talabini bajarmasa, sotib oluvchi butlanmagan tovarni but tovarga almashtirishni talab qilishga haqli (O'R FK 413-moddasi). Mahsulot yetkazib berish shartnomasining shartlari, qonun hujjatlarining talablari yoki tovarlarning but bo'lishiga

qo'yiladigan odatdagi talablarni buzgan holda tovarlar yetkazib berilganida sotib oluvchi (oluvchi) mahsulot yetkazib beruvchiga yuqorida qayd etilgan talablarni qo'yishga haqli (O'R FK 452-moddasi).

Fuqarolik qonunchiligida majburiyatlarni amalda ijro etishni ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan. O'R FK 331-moddasiga ko'ra xususiy belgili ashyoni kreditorning mulki qilib, uning xo'jalik yuritishiga, operativ boshqaruviga yoki foydalanishiga topshirish majburiyati bajarilmagan taqdirda, kreditor bu ashyoni olib qo'yishni va majburiyatda nazarda tutilgan shartlar asosida o'ziga topshirishni talab qilishga haqli.

Ashyoni talab qilib olish – faqat kreditorga tegishli huquq. Demak, u majburiyat narsasi bo'lgan ashyoni o'ziga topshirishni talab qilish o'rniga zararning qoplanishini talab qilishga ham haqli.

Undan tashqari, O'R FKda yana bir narsa ta'kidlab o'tilgan bo'lib, bu huquq ashyo bir xil huquqqa (mulk huquqi, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqaruv huquqiga) ega bo'lgan uchinchi shaxsga topshirilgan bo'lsa bekor bo'ladi. Mazkur ashyoga da'vogar kreditorlar o'rtasida raqobat kelib chiqishi holati bo'yicha ham xuddi shunday maxsus eslatma mavjud. Raqobat quyidagicha bartaraf etiladi: agar ashyo hali topshirilmagan bo'lsa, vaziyat qaysi kreditor foydasiga oldinroq vujudga kelgan bo'lsa, o'sha kreditorning da'vosi qondiriladi, basharti buni aniqlash mumkin bo'lmasa, oldin da'vo qo'zg'atgan kreditor ustunlikka ega bo'ladi.

Majburiyatlarni amalda ijro etish qoidasini amalga oshirishga yo'naltirilgan mazkur choraga O'R FKning shartnoma majburiyatlariga oid alohida qismida aniqlik kiritiladi. Masalan, sotuvchi xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyoni topshirishdan bosh tortsa, sotib oluvchi shartnoma shartlari asosida mazkur ashyoni topshirishni yoxud yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli (O'R FK 396-moddasi). Ijaraga beruvchi muddatida topshirilmagan mulkni ijaraga oluvchidan talab qilib olish va ijroning kechikkanligi tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega (O'R FK 541-moddasi).

O'R FK 331-moddasi 1-qismida belgilangan yangi chora qarzdor ashyoni tayyorlash va kreditorga (xususiy mulkka, xo'jalik yuritishga, operativ boshqaruvga yoki foydalanishga) topshirish majburiyatini bajarmagan, ma'lum ishni bajarmagan va xizmat ko'rsatmagan vaziyatlar bilan bog'liq. Shunga o'xshash barcha vaziyatlarda kreditor majburiyat ijrosini uchinchi shaxsga oqilona xaq evaziga topshirishi yoxud qarzdordan yetkazilgan zararni qoplash va bo'lajak xarajatlarni to'lashni talab qilib, majburiyatni o'z kuchi bilan amalga oshirishga haqli. Qayd etilgan oqibat qonunda, boshqa huquqiy aktlarda, shartnomada yoxud majburiyat mohiyatidan boshqa tartib kelib chiqmagan boshqa barcha hollarda o'rinli hisoblanadi.

O'R FKda kreditorga, xususan, buyurtmachiga - pudratchining ishida kamchiliklar aniqlansa (O'R FK 642-moddasi 3-qismi), ijaraga oluvchiga – ijaraga beruvchi ijaraga berilayotgan mulkdan shartnomaga ko'ra foydalanishga to'sqinlik qilayotgan yoki qiyinchilik tug'dirayotgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganda (O'R FK 542-moddasi), ijaraga oluvchiga – ijaraga beruvchi ijaraga topshirgan mulkni kapital ta'mirlash bo'yicha majburiyatini buzganda (O'R FK 547- moddasi), qarz oluvchiga – tekin foydalanish shartnomasi bo'yicha, ashyoda qarz beruvchi javob berishi belgilangan kamchiliklar aniqlanganda (O'R FK 621-moddasi), sotib oluvchiga – ta'minotchi tovarni yetkazib berish shartnomasida qayd etilgan miqdordan kam miqdorda yoki muddatni buzib yetkazib berganda, ta'minotchi sotib oluvchining sifati yomon tovarlarni lozim darajadagi tovarga almashtirish talabini bajarmaganda, sotib oluvchi talabiga ko'ra tovarlar to'liq topshirilmaganda (O'R FK 453-moddasi), sotib oluvchiga – agar sotuvchi tomonidan tovarning kamchiliklari haqida kelishib olinmagan bo'lsa, lozim darajada sifatli bo'lmagan tovar sotilganda – majburiyat ijrosini uchinchi shaxsga topshirish yoxud o'z kuchi bilan majburiyatni bajarish huquqi berilgan.

Ko'rinib turibdiki, O'R FKda va, umuman, fuqarolik qonunchiligida majburiyatni asl holida majburiy tarzda ijro etish bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjudligidan qat'i nazar u majburiyat yuzasidan munosabatlar mohiyati bilan belgilangan. Qarzdorni, agar u xohlamasa, u yoki bu harakatni majburiy tarzda bajarishga majbur qilish mumkin emas. Talab etilgan harakatni amalga oshirishga faqat mulkiy jarima, ya'ni majburiyatni asl holida ijro etishni pullik badal bilan almashtirishga majbur qilishi mumkin.

Tegishli me'yorlar tahlili quyidagi xulosaga kelishga asos bo'ladi, ya'ni O'R FK shartnoma majburiyatlarini amalda ijro etish qoidasini e'tirof etadi va mustahkamlaydi.

O'R FK haqiqiy ijro masalalarini tartibga solib, shartnoma ishtirokchilari yuridik shaxs yoki fuqaro bo'lishiga bog'liq ravishda shartnomani

amalda ijro etish qoidasidan aniq bir vaziyatda foydalanish bo'yicha farq qilmaydi.

Biroq, bu qoidadan foydalanish sohasi avval amal qilgan qonunchilikka nisbatan ancha chegaralanganligini ko'rish mumkin. Endi bu qoida umumiy qoida sifatida faqat lozim darajada bajarilmagan majburiyatga nisbatan majburiyatni ijro etish vazifasi pullik badal (zararni undirish yoki neustoyka) to'lash bilan bog'liq bo'lmagan hollarda qo'llaniladi (O'R FK 330-moddasi).

Undan tashqari, amaldagi O'R FKda shartnomaviy majburiyatlarni amalda ijro etish talabi ancha susaytirilgan. Undan foydalanishda muqobillik qoidasi kiritilgan bo'lib (kreditorning xohishiga qarab, amaldagi ijro yoki pullik badal tanlanadi), mos huquqiy me'yorlarning dispozitivligi (taraflarning oldindan kelishuviga ko'ra, umuman amaldagi ijrodan voz kechish imkoniyati) mavjud [7].

Amaldagi ijro qoidasi qonunchilikda yetarli darajada ta'minlab berilmagan. U faqat majburiy ijro ettirish hollarida ta'minlanadi. Qarzdor esa, mulkka ega bo'lgan taqdirdagina majburiyatni majburiy ijro etadi. Demak, O'R FKdagi amaldagi ijro qoidasi faqat aniq buyumlarni topshirishga oid majburiyatlarda bevosita namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy qonunchilikda shartnomaviy majburiyatlarni amalda ijro etish qoidasining ahamiyati tobora kamayib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditor tomonidan qarzdordan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida yetkazilgan barcha zararni pul mablag'i bilan qoplashni talab qilish uning manfaatlarini to'liq qondiradi. Odatda, qarzdor belgilangan muddatda tovarlarni topshirish, ishni bajarish, xizmat ko'rsatish yoxud kamchiliklar bilan topshirilgan tovarlarni lozim darajada sifatli yoki to'liq tovarlar bilan almashtirish majburiyatini bajarmasa, pullik badal to'lovi kreditorga tovarlarni xarid qilish, ishni bajarish, xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Shartnomaviy majburiyatlarni bajarishning eng muhim qoidasi bu – lozim darajada ijro etish bo'lib, O'R FK 236-moddasida nazarda tutilgan. Ushbu moddaga ko'ra, «majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganda esa, ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak»ligi belgilab beriladi.

«Lozim darajada ijro etmaslik» amaldagi O'R FKda ilgarigi Grajdanlik kodeksidan farqli ravishda kengroq mazmunga ega, ya'ni ijroni tegishli kishi, shaxsga lozim buyum vositasida, lozim usul va joyda hamda muddatda amalga oshirishi zarurligini bildiradi. Aksariyat mualliflar lozim darajadagi ijroni aynan shunday tushunadilar.

Lozim darajadagi ijro – murakkab tushuncha. Amaldagi ijrodan farqliroq, O'R FK 21-bobi qoidalari bilan tartibga solinadi. U bir qator unsurlardan iborat: tegishli kishiga majburiyatni bajarish (O'R FK 240-moddasi), ijroni tegishli shaxs bajarishi (O'R FK 241-moddasi), lozim buyum vositasida ijro etish (O'R FK 245-250-moddalari), lozim joyda ijro etish (O'R FK 246-moddasi), lozim muddatda ijro etish (O'R FK 242-moddasi), lozim usulda bajarish (O'R FK 238-moddasi). Bu masalada batafsil ko'rsatmalar O'R FKda majburiyatlarning alohida turlarini - oldi-sotdi, yuklar va yo'lovchilar tashish, sug'urta, birja va bank operatsiyalari, mahsulot yetkazib berish, pudrat va boshqalarni tartibga soluvchi qoidalarida mavjud [8].

O'R FKning yuqorida qayd etilgan qoidalari yuzaga kelgan majburiyatni lozim darajada ijro etish uchun ijro subyektlari va predmetiga hamda ijro muddati, joyi va usuliga qo'yiladigan talablarni bildiradi. Mazkur talablarni huquqiy adabiyotda lozim darajadagi ijroni tavsiflovchi shartlar deb atashadi. Aksariyat hollarda, bunday shartlar qonunchilikning dispozitiv qoidalarida belgilangan bo'lib, bu ishtirokchilarga ijro etish usulining eng maqbuli va to'g'risini tanlash imkonini beradi.

Ta'kidlash zarurki, sud amaliyotida faqat xususiyatlari bo'yicha barcha mazkur talablarga javob beruvchi harakat lozim darajadagi harakat deb tan olinadi. Masalan, agar ta'minot boshqarmasi mebel fabrikasiga uchinchi tashkilot manziliga mebel yetkazib berish vazifasini yuklasa, ishlab chiqaruvchi esa uni (qayd etilgan qabul qiluvchiga yetkazib berish o'rniga) ta'minot boshqarmasiga tushirib bersa, ijro lozim darajada amalga oshirilmagan hisoblanadi. Chunki topshiriqda qayd etilgan subyektga nisbatan ijro etilmaydi.

Lozim darajadagi ijro amaldagi ijroni nazarda tutadi, ya'ni albatta asl holida amalga oshiriladi. Masalan, pudrat shartnomasi bo'yicha pudratchi buyurtmachiga ish natijasini topshirgan taqdirdagina majburiyat amalda bajariladi. Majburiyat amalda ijro etilgan bo'lishi, ammo lozim darajada bo'lmasligi mumkin (masalan, muddat kechiktirilganda).

Odatda, ijro jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan barcha shartlar (predmet, muddat, usul va hokazo) kreditor uchun tengdir va ularning

bittasini bajarmaslik ham lozim darajada ijro etmaslik deb hisoblanishi mumkin.

Lozim darajadagi ijro barcha hollarda qarzdorni majburiyatlardan ozod qiladi va majburiyatni tugatadi. Lozim darajada bo'lmagan ijro qarzdorga nisbatan majburiy choralar, jumladan, fuqarolik huquqiy javobgarlik choralarini qo'llashga asos bo'ladi.

Shunday qilib, majburiyatni amalda ijro qilish «harakat amalga oshirildimi?», degan savolga javob bersagina, lozim darajadagi ijro esa «harakat qanday amalga oshirildi?», degan savolga javob berishi kerak. Fikrimizcha, oddiy ko'rinsa-da, bunday yondashuvdan majburiyatlar ijrosi to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini, jumladan yangi tahrirda tayyorlanayotgan Fuqarolik kodeksini takomillashtirish jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

Majburiyatlarni lozim darajada va amalda ijro etish qoidalari nisbatini shartli ravishda "birbiriga tobe" yoki "subordinatsiyali", deb ta'riflash mumkin. Ikkala qoida ham mustaqil ahamiyatga ega va hech biri boshqasiga nisbatan ustun emas. Ular o'zaro shartlidir. Masalan, majburiyat ijrosi asl holida bajarilmagan bo'lsa, uni lozim darajada bajarilgan, deb bo'lmaydi. Boshqa tomondan, amaldagi ijro lozim darajada bo'lmasligi mumkin emas. Chunki majburiyat normal, buzilishlarsiz rivojlanib borar ekan, amaldagi ijro uning lozim darajada bajarilganligini ham nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рўзиев Р., Топилдиев В. Рим фуқаролик ҳуқуқи. –Т.:"Фалсафа ва ҳуқуқ институти". -36 бет; Мухтасар (Шариат қонунларига қисқача шарҳ). Убайдуллоҳ ибн Маъсуд. –Т.:"Чўлпон", 1994. –Б. 214-216.

2. Мухаммадиев А.А. Фуқаролик ҳуқуқи тамойилларининг назарий ва амалий муаммолари. –Т.:"ТДЮИ", 2010. -258 бет.

3. Раҳмонқулов Х.Р. Мажбурият ҳуқуқи. –Т.:"ТДЮИ", 2005. –Б. 65.

4. Гавзе Ф.И. Социалистический правовой договор. –М.:"Юрид.лит.", 1972. –С.153.

5. Зокиров И.Б. Ўзбекистон ССРнинг гражданлик ҳуқуқи. Дарслик. -Т.:"Ўқитувчи", 1988. -Б.182-183.

6. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси: (2021 йил 1 мартгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр – ЎР Адлия вазирлиги. – Т.:"Адолат", 2021. 576 бет.

7. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм). Адлия вазирлиги. – Т.:"Vektor-Press", 2010. -Б. 589-596.

8. Рузиев Р.Д., Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи: (ўқув қўлланма). Умумий қисм. – Т.:"Чўлпон", 2011. –Б. 361-369.

Ruziyev R.D. Majburiyatlarni bajarish prinsipi (qoidasi)ning ilmiy-nazariy masalalari

Ushbu maqolada fuqarolik huquqiy shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni ijro etish majburiyat huquqining muhim prinsipi sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qoidalari kesimida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: majburiyat huquqi; fuqarolik huquqiy shartnoma majburiyatlari; majburiyatni ijro etish; majburiyatni lozim darajada bajarish; majburiyatni asl holida bajarish.

Рузиев Р.Д. Научно-теоретические вопросы принципов (правил) исполнения обязательств

В статье проанализировано исполнение обязательств, вытекающих из гражданско-правового договора, на основе принципа права по обязательствам на базе норм Гражданского кодекса Республики Узбекистан.

Ключевые слова: обязательственное право; обязательства гражданско-правового договора; исполнение обязательства; надлежащее исполнение обязательства; исполнение обязательства в натуре.

Ruziev R.D. Scientific and theoretical issues of the principle (rules) of fulfillment of obligations

This article analyzes the fulfillment of obligations arising from a civil contract as the main principle of the law of obligations in the context of the norms of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan.

Key words: law of obligations; obligations of a civil contract; performance of an obligation; proper performance of an obligation; performance of an obligation in kind.

Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent;
Beksariyev Xurshid Qosimovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig'ining o'rinbosari, dotsent

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA AFV ETISH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Mustaqil O'zbekiston tarixida jinoiy jazodan ozod qilishning muhim instituti sifatida namoyon bo'lgan afv etish zamirida insonparvarlik, bag'rikenglik, kechirimlilik va albatta adolat prinsiplarining mujassamlashganligi mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari ta'minlanishi davlat siyosati va Prezidentning kechirimlilik irodasi darajasidagi uzluksiz jarayon ekanligini ko'rsatmoqda.

So'nggi olti yildan ortiqroq vaqt davomida bilib-bilmay jinoyat sodir etgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan va ijobiy tavsifga ega bo'lgan 5555 nafar[16] mahkumlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan afv etildi.

O'rta asrlar davri konstitutsiya deb nom olgan Sohibqiron Amir Temur «Temur Tuzuklari»da «Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'targanlar, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, agar ular iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelsalar, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim» va «... Kimki menga dushmanlik qilsayu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho'kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatdim»[13] deb yozib qoldirganlar. Hattoki, «Buyuk Amir Temur afv etish masalasini davlat siyosati darajasida ko'tarib, dushmanlarni afv etish orqali ulardan do'st – davlat uchun xizmatchi to'plash tadbirida alohida e'tibor berganlar»[14].

Darhaqiqat, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarni jazodan ozod qilinishi mumkinligi, ya'ni ularni kechirish, uzrini qabul qilish, gunohidan o'tish, insonparvarlik, kechirimlilik, bag'rikenglik insonning ulug' sifatlaridan biridir.

Ta'kidlash lozimki, 1966 yil 12 dekabrda qabul qilingan «Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro paktning 6-moddasida «O'lim jazosiga hukm qilingan har bir kishi afv etish haqida yoki hukmni yumshatish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega. Amnistiya, avf etish yoki o'lim hukmini almashtirish barcha holatlarda hadya etilishi mumkin»[4] ligi to'g'risidagi qoidaning belgilanganligi, ushbu institutning nafaqat alohida bir davlatning milliy huquqiy tizimida, balki xalqaro darajada huquqiy jihatdan mustahkamlanganligidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach o'zining Konstitutsiyasida o'zbek xalqining kechirimlilik, rahmdillik va bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlarining amaldagi yorqin ifodasi hamda xalqaro huquqning umumqabul qilingan ustunligini tan olgan holda afv etish institutini qo'llash huquqini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolati sifatida belgiladi[1].

2017 yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1993, 1994 va 2016 yillarda uch marotaba o'zining afv etish huquqidan foydalangan bo'lib, birgina 2016 yilda afv etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 10 nafar [15] shaxs afv etilgan.

Bugungi kunda afv etishni qo'llash davlat rahbari tomonidan qo'llaniladigan insonparvarlik akti hisoblanib, jahonning deyarli barcha davlatlari Konstitutsiyalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti «amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi» [1] deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 68-moddasida «Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin»ligi, 76-moddasida esa, «Hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi

yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin»ligi [2] belgilanganligini ko'rish mumkin.

Respublikamizda afv etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonini qabul qilish tartibida, amnistiya akti esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish to'g'risidagi taqdimnomasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarorini qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin» [1] ligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, mustaqil ravishda amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilishni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

E'tiborli tomoni shundaki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandidagi qoidalar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining amnistiya aktini qo'llash vakolatiga boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan, keyinchalik jazo muddatini O'zbekiston Respublikasida o'tayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini e'tirof etilsada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlaridan biri hisoblangan afv etishni xorijiy davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan jazo muddatini O'zbekiston Respublikasida o'tayotgan o'z qilmishining qonunga xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmasligini ko'rsatmoqda.

Bulardan tashqari, afv etishning faqatgina sud hukmi qonuniy kuchga kirgan mahkumlarga [3] nisbatan qo'llanilishi chegarasi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni ehtiyotsizlik oqibatida birinchi marta sodir etgan, qilmishining jinoyat ekanligini anglab yetgan, sodir etgan qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplagan shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishi, shuningdek, sudlanganlik «tamg'a»siga ega bo'lishi mumkin. Amnistiya aktida esa, nafaqat «jinoiy jazo»dan balki, «jinoiy javobgarlik»dan ozod qilish bo'yicha ijtimoiy xavfli qilmishlar toifalari ko'rsatiladi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etish vakolati doirasini xorijiy davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etish va ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni ehtiyotsizlik oqibatida birinchi marta sodir etgan shaxslarni «jinoiy javobgarlik»dan ozod etishda ham qo'llash orqali avf etish shakllari doirasini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan insonparvarlik, inson sha'ni, hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa shu kabi huquqlarining oliy qadriyat sifatida tan olinishi kabi umuminsoniy prinsiplarni yanada takomillashtirish bilan birga Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yangitdan yaratilayotganligidadir.

Ana shunday islohotlar zamirida boshqa sohada amalga oshirilayotgan amaliy yangiliklar qatorida afv etish institutining ham konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Amaldagi konstitutsiyaviy normaga asosan afv etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish zarurati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jinoyat sodir etgan, jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning afv etish yoki jazoni yengillashtirishni so'rash huquqiga ega ekanligi konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan belgilanmaganligi.

Biz ayrim davlatlar qonunchiligida, xususan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 50-moddasi 3-xatboshisida «Jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan har bir shaxs federal qonunlarda belgilangan tartibda yuqori sud tomonidan hukmni qayta ko'rib chiqish, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirishni so'rash huquqiga ega»[5]ligini, Armaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasi «Jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan har bir shaxs qonunda belgilangan asoslar va tartibda o'ziga nisbatan chiqarilgan hukmni yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishiga haqli» hamda 70-moddasida esa «Har bir mahkum afv etish to'g'risida, shu jumladan, tayinlangan jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqiga ega. Tafsilotlar qonun bilan belgilanadi» [6] mazmundagi qoidalarni, shuningdek, Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasi 2-bandida «Har bir mahkum afv etish va jazoni yengillashtirishni so'rashga haqli», 4-bandida esa «Har bir mahkum o'z ishini qonunda

belgilangan tartibda yuqori sud tomonidan ko'rib chiqilishiga haqli»[7] ekanligi belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etishining huquqiy mexanizmlarining mavjud emasligi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti «...O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi»[1] – deb belgilangan.

Xorijiy davlatlar konstitutsiyalarini «boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etish» amaliyoti bo'yicha tahlil qilinganda, afv etishni qo'llash doirasi umumiy tartibda belgilanib, shaxs xorijiy davlatlar sudlari tomonidan hukm etilgan yoki boshqa sudlar tomonidanmi chegaralanmaganligini ko'rish mumkin. Jumladan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 89-moddasi 3-xatboshisida [5], Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasi 69-moddasi 26-xatboshisida [8] «afv etishni amalga oshiradi», Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi 44-moddasi 15-bandida «fuqarolarni afv etadi» [9], Belorussiya Respublikasi Konstitutsiyasi 84-moddasida «mahkumlarni afv etishni amalga oshiradi»[10], Fransiya Konstitutsiyasi 17-moddasida «avf etish huquqidan foydalanadi»[11], Armaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 135-moddasida «Respublika Prezidenti qonunda belgilangan hollarda va tartibda mahkumlarni afv etish masalasini hal qiladi»[6] mazmunidagi qoidalar bilan mustahkamlanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ushbu holatlar esa, mamlakat rahbari tomonidan boshqa davlatlar sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etishning huquqiy mexanizmlari konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanganligini ifodalaydi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bilib-bilmay jinoyat sodir etgan va qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, ishi tergov organlari tomonidan ko'rilayotgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bo'yicha afv etish vakolati konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan belgilanmagan.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida afv etish to'g'risidagi iltimosnomalarni taqdim etish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi afv etish masalalari bo'yicha komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi 8 maydagi 5439-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomning 2 bandida «Afv etish mahkumni jazodan to'liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti hisoblanadi»[3].

Vaholanki, rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligida afv etish asosida nafaqat «jinoiy jazo»dan balki, «jinoiy javobgarlik», «ma'muriy javobgarlik va jazo»dan ozod qilish mustahkamlanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xususan, Belorussiya Respublikasi Prezidentining 3-dekabr 1994 yildagi 250-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «Belorussiya Respublikasida mahkumlarni afv etish, jinoyatlarni ochish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga hissa qo'shgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibi to'g'risida»gi Nizom[12]ning 25-bandiga asosan, «jinoiy javobgarlikdan ozod qilish»ni afv etishning shakllari sifatida qo'llash tartibi joriy etilgan va amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

Ilg'or xorijiy tajribalarni O'zbekiston Respublikasining afv etishni amalga oshirish tartibida qo'llanilishini joriy etish maqsadida «jinoiy javobgarlikdan ozod qilish»ni afv etishning shakllari sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlaridan biri sifatida «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimisiz» amnistiya aktini qabul qilish bilan bog'liq vakolatini amalga oshirish mexanizmini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan mustahkamlash.

Amaldagi tartibga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlaridan biri sifatida «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish»[1] belgilangan.

Xorijiy davlatlar parlamentar huquqida esa, jumladan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 103-moddasida «Davlat Dumasining yurisdiksiyasiga amnistiya e'lon qilish»[5] vakolati, Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasiga ko'ra «amnistiya masalalarini hal qiladi»[9], Belorussiya Respublikasi Konstitutsiyasi 97-moddasidaga ko'ra, Vakillik

palatasi «amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rib chiqadi»[10], Fransiya Parlamenti Fransiya Konstitutsiyasi 34-moddasiga ko‘ra, «amnistiya to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish»[11], Armaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida Milliy Majlis «Hukumatning taklifiga binoan deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan amnistiya to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishi mumkin»[6], Qirg‘iziston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga ko‘ra, Jogorku Kеnesh – Parlament «amnistiya aktlarini qabul qiladi»[7] belgilangan.

Fikrimizcha, ilg‘or xorijiy tajribalar va milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurati O‘zbekiston Respublikasida afv etish institutini huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishni taqozo etadi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga **«Jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan har bir shaxs qonunda belgilangan tartibda hukmni yuqori sud tomonidan qayta ko‘rib chiqish, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirishni so‘rash huquqiga ega»** ekanligi bilan bog‘liq normalarni kiritish.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlaridan biri sifatida **«amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish»**ni belgilash.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23 bandini **«afv etishni amalga oshiradi»** tartibida o‘zgartirish.

Mazkur mexanizmlarni Bosh qomusimizda belgilanishi eng avvalo afv etish institutining asl mazmun-mohiyatini ifodalash, jinoyat yo‘liga adashib, bilib-bilmay kirib qolgan hamda birinchi marotaba jinoyat sodir etgan shaxslarni ijtimoiy hayotga qaytarish, ularda qonunga hurmat va itoatkorlik ruhini tarbiyalash hamda qonunlarga rioya qilish madaniyatini shakllantirish maqsadida jinoyatlarni oldini olishga, milliy qonunchilikda mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etishga, qonunchilikni takomillashtirish shuningdek, ushbu sohadagi munosabatlarni konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. lex.uz./docs/20596.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. lex.uz./docs/
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi PF-5439-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. lex.uz. https://lex.uz/docs/3725214.
4. «Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt» https://lex.uz/docs/2640479.
5. Конституция Российской Федерации. http://www.constitution.ru/.
6. Конституция Республики Армения. https://www.president.am/ru/ constitution-2015/
7. Закон Кыргызской Республики от 5 мая 2021 года № 59 «О Конституции Кыргызской Республики» http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ ru-ru/112215cl=ru-ru.
8. Конституция Республики Таджикистан. https://mfa.tj/ru/main/ tadzhikistan/konstitutsiya
9. Конституция Республики Казахстан. https://www.akorda.kz /ru/official_documents/constitution
10. Конституция Республики Беларусь https://president.gov. by/ru/gosudarstvo/constitution
11. Конституция Французской Республики. https://legalns.com/ компетентные-юристы/правовая-библиотека/конституции стран мира/ конституция-франции.
12. Указ Президента Республики Белорусь № 250 от 3 декабря 1994 г. «Об утверждении Положения о порядке осуществления в Республике Беларусь помилования осужденных, освобождения от уголовной ответственности лиц, способствовавших раскрытию и устранению последствий преступлений» pravo.levonevsky.org.
13. Соғуний, А. Темур тузуклари; тарихий адабиёт / А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов. –

Тошкент: Yangiyul Poligraph Service, 2018. – Б. 71-73.

14. Қўшаев Н.М. Жиноят содир этган шахсни кечиришнинг тарихий асослари ва ижтимоий зарурати хусусида. «Ўзбекистонда афв этиш институти такомиллашувининг ҳуқуқий ва ижтимоий-гуманистик масалалари» мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари (тўплами). – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси МГ ҲТИ, 2020. – Б. 36.

15. https://kun.uz/news/2021/10/31/ozbekistonda-afv-amaliyoti-taqdirlarni-anglatuvchi-raqamlar

16. https://kun.uz/news/2022/07/25/prezident-farmoni-bilan-afv-etilganlar-soni-5555-nafarga-yetdi.

Nurmatov M.M., Beksariyev X.Q. Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida afv etish institutini takomillashtirishning ayrim masalalari

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida afv etishning shakllari va qo‘llash doirasini kengaytirish va ushbu institut bilan bog‘liq bo‘lgan konstitutsiyaviy normalarni takomillashtirish masalalari milliy hamda xorijiy tajriba misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: afv, amnistiya, jazo, javobgarlik, jazodan ozod qilish, javobgarlikdan ozod qilish, konstitutsiya, hukm, sudlangan shaxs, qaror, farmon, Prezident, mutlaq vakolat.

Нурматов М.М., Бексариев Х.Қ. К вопросу совершенствования института помилования в условиях конституционных реформ

В статье рассматрены вопросы расширения сферы применения помилования и его форм в процессе конституционных реформ, проводимых в Республике Узбекистан, а также способы совершенствования конституционных норм, связанных с этим институтом, на основе изучения отечественного и зарубежного опыта.

Ключевые слова: помилование, амнистия, наказание, ответственность, наказание, освобождение от наказания, освобождение от ответственности, Конституция, приговор, осужденный, решение, указ, Президент, абсолютная власть.

Nurmatov M.M., Beksariev X.Q. Some issues of improving the institution of pardon in the context of constitutional reforms

This article discusses the issues of expanding the range of forms and application of pardon in the process of constitutional reforms carried out in the Republic of Uzbekistan, and improving the constitutional norms associated with this institution, using the example of domestic and foreign experience. This article discusses the issues of expanding the range of forms and application of pardons in the process of constitutional reforms carried out in the Republic of Uzbekistan, and improving constitutional norms related to this institution, using the example of domestic and foreign experience.

Key words: pardon, amnesty, punishment, responsibility, exemption from punishment, exemption from responsibility, constitution, sentence, convict, decision, decree, president, absolute power.

Kuchkarov Xayrulla Zikirillayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

JINOYAT PROTSESSIDA YANGI OCHILGAN HOLATLAR TUFAYLI ISH YURITISHNI QO'ZG'ATISH TARTIBI

Har bir manfaatdor shaxs qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi shubha tug'dirayotgan har qanday sud qarorini qayta ko'rib chiqish orqali o'zgartirilishini hamda bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega. Ushbu holatda jinoyat protsessini ishtirokchilarining buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini tiklashda qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash instituti muhim ahamiyatga ega.

Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash oid normalar JPKning 57-bobida alohida va mustaqil bobida bayon etilgan. Mazkur bobning 522-moddasida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash uchun asoslar belgilangan bo'lib, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi va ajrimi yangi ochilgan holatlar tufayli bekor qilinishi hamda ish yuritish qaytadan boshlanishi mumkin.

Yangi ochilgan holatlar sudning hukmi yoki ajrimi qonuniy kuchga kirgan paytda mavjud bo'lgan, biroq sudga ma'lum bo'lmagan holatlardir.

Yangi ochilgan holatlar quyidagilardan iborat:

1) jabrlanuvchining yoki guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv yoxud ekspertning bila turib yolg'on xulosa berganligi, xuddi shuningdek ashyoviy dalillar, tergov va sud harakatlari bayonnomalarining hamda boshqa hujjatlarning soxta ekanligi yoki bila turib noto'g'ri tarjima qilinganligi qonunga xilof, asossiz yoki adolatsiz hukm, qonunga xilof yoki asossiz ajrim chiqarilishiga sabab bo'lganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

2) surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qonunga xilof, asossiz yoki adolatsiz hukm, qonunga xilof yoki asossiz ajrim chiqarilishiga olib kelgan jinoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'yganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

3) muayyan jinoyat ishini ko'rish chog'ida sudya tomonidan sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlar sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;

4) o'z holicha yoki ilgari aniqlangan holatlar bilan birgalikda mahkumning aybsizligidan yoxud u hukm etilganiga nisbatan og'irligi darajasi bo'yicha boshqa jinoyat sodir etganligidan yoxud oqlangan shaxsning yoki o'ziga nisbatan ish tugatilgan shaxsning aybdorligidan dalolat beradigan boshqa holatlar.

Mazkur institut sudlar tomonidan ishni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning aniqlanmaganligi tufayli yo'l qo'yilgan bir tomondan qonuniy, adolatli bo'lgan, lekin, ikkinchi tomondan yetarli darajada asoslanmagan sud qarorlarini to'g'rilashning keng imkoniyatlarini, yaratadi. Asosiysi, jinoyat-protsessual sohada shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlari sud orqali himoya qilinishi kafolatlanganligiga bo'lgan ishonch tuyg'usini yanada oshiradi.

Yuridik adabiyotlarni tahlil qilish mobaynida jinoyat-protsessual huquqining mazkur instituti haqida huquqshunos olimlar tomonidan bir qator fikrlar bildirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, L.S.Morozova va I.M.Zaytsev ta'biricha, yangi ochilgan holatlarning ahamiyatliligi shundaki, bu holatlarning ochilishi ish bo'yicha dastlabki sud qarorining haqqoniyligini rad etadi yoki uning noqonuniyligi, asossizligi yoki noto'g'riligini anglatadi.

U.A.Tuxtasheva yangi ochilgan va yangi holatlar munosabati bilan ish yuritishni qayta tiklash – jinoyat protsessining mustaqil bosqichi bo'lib, unda o'zining huquqlari, qonuniy manfaatlari sudning, shuningdek, prokurorning adolatsiz qarori bilan buzilgan jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan tashabbus qilingan ish yuritish asosida sud xatolarini tuzatish orqali sud nazorati vazifalari amalga oshiriladi – degan fikrni qo'llab-quvvatlash mumkin.

S.Saxaddinovning yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash, mamlakatimizning amaldagi JPK bo'yicha, jinoyat protsessining mustaqil bosqichi emas – degan fikri bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi.

Bizningcha fikrimizcha, jinoyat ishlari bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ko'rish bosqichi maxsus subyektlar tarkibi, obyekti, mazmuni, qayta ko'rish asoslariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jinoyat protsessining alohida mustaqil bosqichi sifatida ko'rish mumkin. Bu institutning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda sud xatoliklarga yo'l

qo‘yilmasligida, yangi ochilgan holatlarning muhim alomatlaridan biri uning ish uchun ahamiyatliligidir. Sud qarorlarining yangi ochilgan holatlar bo‘yicha bekor qilinishi sud qarori noto‘g‘ri ekanligini anglatmaydi. Bunday xulosaga faqatgina dastlabki sud qarorini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilgan sud qarori bilan solishtirilganda kelish mumkin. Yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ko‘rib chiqishning yana bir muhim jihati – bu ushbu holatlarning sud qarori e’lon qilingunga qadar mavjud bo‘lganligida ko‘rish mumkin. Ya’ni, yangi ochilgan holatlarning qaytadan ochilishi dastlabki chiqarilgan sud qarorini bekor qilishga asos bo‘ladi. Demak, mazkur bosqichda jinoyat-protsessual qonunchilikda ko‘rsatilgan holatlar qaytadan ochiladi, chunki ular amalda ishni ko‘rish jarayonida mavjud bo‘lgan.

Bundan bilish mumkinki, JPK ning 522-moddasida nazarda tutilgan sudning qonuniy kuchga hukmi va ajrimini yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ko‘rish asoslari sud qarori kuchga kirgunga qadar mavjud bo‘lishi kerak.

Mazkur institut sudlar tomonidan ishni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning aniqlanmaganligi tufayli yo‘l qo‘yilgan bir tomondan qonuniy, adolatli bo‘lgan, lekin, ikkinchi tomondan yetarli darajada asoslanmagan sud qarorlarini to‘g‘rilashning keng imkoniyatlarini yaratadi. Keyingi yangi ochilgan holatlar uchun o‘ziga xos bo‘lgan alomatlardan biri – bu ularning mavjudligi sud va arizachiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra ma’lum bo‘lmaganligidir. Yangi ochilgan holatlarning arizachi va sudga noma’lumligi faqatgina sudning bilishi mumkinligi holatidan anglashilmaydi, chunki yangi ochilgan holatlarning noma’lumligiga boshqa shaxslarning jinoiy oqibatlari ham sabab bo‘lishi mumkin. Yana bir muhim va yangi ochilgan holatlarni boshqa holatlardan farqlovchi alomatlardan biri – bu sud hukmi va ajrimi qonuniy kuchga kirgandan keyin ushbu holatlarning ayon bo‘lganligi. Agarda ushbu holatlar sud qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar aniqlansa, ushbu jarayonda aniqlangan holatlar tahlil qilinayotgan institutda ko‘rish uchun asos hisoblanmaydi.

Nazarimizda, hozirgi kunda yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishdagi muammo JPKda yangi ochilgan holatlar predmetiga oid normalar mavjud bo‘lsada, ushbu institutni tartibga soluvchi tushuncha mavjud emasligi ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, yangi ochilgan holatlar bu – sud qarori qabul qilingan paytda mavjud bo‘lgan, lekin sudga ma’lum bo‘lmagan yoki ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, ish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi holatlarning qaytadan ochilishi natijasida dastlab qonuniy kuchga kirgan sud qarorini qabul qilishga asos bo‘lgan dalillarni inkor etuvchi yoki ularni shubha ostiga soluvchi yuridik dalillardir.

Shu o‘rinda, JPKning rus tilidagi tahriri 57-bobiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mazkur bob “Возобновленние произвотсва в виду вновь открывшихся обстоятелств” deb nomlanib, uning normalarida ham “вновь открывшиеся обстоятелства” tushunchalari qo‘llanilgan. Rus-o‘zbek tilidagi lug‘atlarini o‘rganish davomida, “вновь” so‘zi “qaytadan”, “yangitdan”, “qayta” degan ma’nolarni anglatishini ko‘rishimiz mumkin.

Ayrim manbalardan ham mazkur holatga oid bir qator tahlillar berib o‘tilgan.

Bizning fikrimizcha, Jinoyat-protsessual kodeksi 57-bobi va uning normalaridagi “yangi ochilgan holatlar” o‘rniga “qaytadan ochilgan holatlar” jumlasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Chunki, “yangi ochilgan holatlar” deganda, sudning ish ko‘rish jarayonida mavjud bo‘lmagan va faqat sud qarori qonuniy kuchga kirgandan so‘ng vujudga keladigan protsessual jarayonni tushunishimiz lozim. Binobarin, ishlarni yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritshni qaytadan boshlash uchun asos bo‘ladigan holatlar sud ishni ko‘rishda mavjud bo‘lgan, ammo o‘sha paytda sudga ma’lum bo‘lmagan bo‘lishi talab etiladi. Qayta ochilgan holatlar (вновь открывшиеся обстоятелства) qoidaga ko‘ra, ish bo‘yicha isbotlash predmetining tarkibiy qismini tashkil etib, sud qarorlarini qayta ko‘rish uchun asos bo‘lgan holatlar yangidan va o‘zgargan holatlar emas, balki qaytadan ochilgan bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Jinoyat-protsessual kodeksiga mazkur institutga oid normalariga **“qaytadan ochilgan holatlar”** tushunchasini kiritib, ularni quyidagicha yurtish o‘rinli bo‘lar edi. Qaytadan ochilgan holatlar (вновь открывшиеся обстоятелства) – ishni ko‘rish vaqtida mavjud bo‘lgan, lekin obyektiv sabablarga ko‘ra sudga ma’lum bo‘lmagan va ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, ish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi holatlarning sud qarori chiqarilguniga qadar vujudga kelishi natijasida dastlabki chiqarilgan qonuniy kuchga kirgan sud qarori qabul qilishga asos bo‘lgan faktlarni inkor etuvchi yoki ularni shubha ostiga oluvchi huquqiy dalillardir.

Sudning qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish instituti jinoyat-protsessual huquqi tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur institutning o‘ziga xos jihati, sud qarorlarini qayta ko‘rish asoslarida namoyon bo‘ladi. Yangi ochilgan holatlar tushunchasi va uning mazmuni amaldagi qonun hujjatlari normalarini tushuntirish ilmiy adabiyotlarda turli xil

ta'rif berilgan.

P.A.Lupinskaya ta'biricha, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishlarni qayta tiklash - bu jinoyat protsessining alohida bosqichi bo'lib, unda tegishli sud hukmi va qonuniy kuchga kirgan boshqa sud qarorlarining qonuniyligi va asosliligini tekshiradi.

Bu haqda B.X.Po'latov, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qayta boshlash juda kam uchraydigan hodisa - deb yozadi.

K.V.Kamchatovning fikricha, yangi va yangi ochilgan holatlar tufayli jinoyat ishini qayta boshlash tabiati hukm yoki boshqa sud qarorining an'anaviy qayta ko'rib chiqilishiga to'liq mos kelmaydi.

Ayrim manbalarda mazkur institutni takomillashtirish va ijtimoiy zarurati to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Boshqa yuridik adabiyotlarda esa, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan, qonunga xilof, asossiz yoki adolatsiz qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan holatlar, ya'ni guvohning bila turib bergan yolg'on xulosasi, atayin noto'g'ri qilingan tarjima, qalbaki hujjatlar yoki ashyoviy dalillar - degan fikrlar uchraydi.

N.A.Gromov ta'kidlashicha, tuzatish tartibi ... noqonuniy hukmlar yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishlarni qayta boshlash uchun aniq tartibga solinadigan protsessual protseduraga tayanishi kerak.

V.A.Davidov tahlil qilishicha, yangi ochilgan holatlarga huquqiy emas, balki qonuniy kuchga kirgan sud qarorini qayta ko'rib chiqish zarurligini keltirib chiqaradigan haqiqiy asoslar kiradi.

Bizning fikrimizcha, yangi ochilgan holatlar deganda, sud qarori kuchga kirgan paytda mavjud bo'lgan, biroq sudga ma'lum bo'lmagan, ish bo'yicha chiqarilgan sud qarorlarini bekor qilish uchun muhim aha-miyatga ega bo'lgan, ishni qayta ko'rish bo'yicha dalil sifatida foydalaniladigan faktik ma'lumotlar yig'indisi tushunilishi lozim.

Yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ish ko'rishning apellyatsiya va kassatsiya tartibida ishlarni ko'rishdan o'ziga xos farqli jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, sudga murojaat qilish tartibi – apellyatsiya va kassatsiya tartibida shikoyat berilganda umumiy asoslarda davlat boji to'lanadi, yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risida iltimosnoma berilganda davlat boji to'lanmaydi.

Ikkinchidan, qayta ko'rish huquqiga ega bo'lgan subyektlar – apellyatsiya va kassatsiya tartibida shikoyat berilganda yuqori instansiya sudlari tomonidan ko'rib hal etiladi, yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risida iltimosnoma kassatsiya instansiyasiga beriladi va shu sud tomonidan ko'rib hal etiladi.

Uchinchidan, murojaat qilish muddati - apellyatsiya shikoyati (protest) hukm va ajrim chiqarilgan kundan – yigirma kun, kassatsiya shikoyati (protest) – og'irroq jazoni qo'llashga doir qonun normalarni nazarda tutilgan hollarda bir yil muddat ichida beriladi. Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash muddatlari chegaralanmaydi.

To'rtinchidan, murojaat qilish usuli - kassatsiya tartibida shikoyat, prokuror protest tarzida, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish to'g'risida iltimosnoma bilan tegishli subyektlar tomonidan sudga murojaat qilinadi.

Beshinchidan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish obyekti bo'lib, sudning barcha qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari hisoblanadi.

Yangi ochilgan holatlar mavjud bo'lmasdan, kassatsiya instansiyasida ko'rib chiqish asoslari mavjud bo'lgan holatda, ishni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish mumkin emas, bunday hollarda sud ko'rsatib o'tilgan holatlar mavjud emasligiga asoslanib, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlashni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Sud qarorini qayta ko'rib chiqish uchun asos bo'layotgan holatlar jiddiy bo'lishi, ya'ni sud qarorini qabul qilishda sud xulosasiga ta'sir ko'rsatadigan darajada bo'lishi lozim. Bu holat sud tomonidan avvalda tekshirish predmeti bo'lgan faktga nisbatan yangi dalillar emas, balki aynan yuridik faktlarning o'zi bo'lishi lozim.

Jinoyat protsessida qonuniy kuchga kirgan sud qarorini yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ko'rish institutini ilmiy tahlil qilib o'rganish, jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish mexanizmini samarali foydalanish, qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini barqarorligi, ishonchliligi va qonu-niyligini ta'minlash, huquqni qo'llash amaliyotida qonunchilikni bir xilda qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qilgan bo'lar edi.

Muxtasar qilib aytganda, jinoyat protsessida qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ko'rish instituti sud qarorlarini qayta ko'rish tizimida juda muhim va alohida rol o'ynaydi.

Kuchkarov X.Z. Jinoyat protsessida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish tartibi

Maqolada jinoyat protsessida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish tartibi amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlari va tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarining tahlili asosida o'rganilgan. Jinoyat protsessida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish tartibini takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil bosqich, odil sudlov, yangi ochilgan holatlar, kassatsiya instansiyasi, protest, qayta ko'rib chiqish.

Кучкаров Х.З. Порядок возбуждения дела по вновь открывшимся обстоятельствам в уголовном судопроизводстве

В статье на основе анализа мнений различных исследователей и действующего уголовно-процессуального законодательства изучен порядок возобновления дела по вновь открывшимся обстоятельствам в уголовном производстве. Сделаны соответствующие выводы и даны предложения по совершенствованию процедуры возбуждения уголовного дела по вновь открывшимся обстоятельствам.

Ключевые слова: самостоятельная стадия, правосудие, вновь открывшиеся обстоятельства, кассационная инстанция, протест, пересмотр.

Kuchkarov X.Z. The procedure for initiating proceedings due to newly discovered circumstances in criminal proceedings

The article studied the procedure for resuming proceedings under newly discovered circumstances in criminal proceedings based on an analysis of the current criminal procedure legislation, as well as the opinions of various researchers. Conclusions and proposals have been developed to improve the procedure for initiating a criminal case in connection with newly discovered circumstances in the criminal process.

Key words: independent stage, justice, newly discovered circumstances, cassation instance, protest, revision.

Hoshimxonov Ahror Mo'minovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Huquqshunos olimlar "davlat boshqaruvi" tushunchasini "ijro etuvchi hokimiyat"ga nisbatan kengroq tushuncha sifatida baholab, buni asoslashga urinadilar. Masalan, K.S.Belskiy davlat boshqaruvi davlat umumiy faoliyatining bir ko'rinishi sifatida ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatida ham, qonunchilik va sud hokimiyatlariga xizmat ko'rsatuvchi boshqaruv apparati faoliyatida ham namoyon bo'lishini ta'kidlagan. Shu sababli, u "davlat boshqaruvi" tushunchasi "ijro etuvchi hokimiyat" tushunchasiga nisbatan kengroq[1] deb hisoblaydi. Yana bir rus tadqiqotchisi R.Aslanyan, o'z ishida "ijro etuvchi hokimiyat" va "davlat boshqaruvi" kategoriyalarini chalkashtirib yubormaslik kerak, chunki birinchi kategoriya siyosiy-huquqiy, ikkinchisi esa tashkiliydir. Shu bilan birga, "davlat boshqaruvi" davlat faoliyatining bir turi sifatida barcha hokimiyat tarmoqlari, shu jumladan vakillik tarmog'i faoliyatida ham mavjudligini tan olish kerak, deb hisoblaydi [2].

L.Kalinina esa, o'z tadqiqot ishida "boshqaruv" ijro hokimiyatining mavjud bo'lishi uchun zaruriy sharoit tayyorlovchi ijro hokimiyatining muhim namoyon bo'lish shaklidir. Boshqaruvni ijro hokimiyati faoliyati mexanizmining "bosh dvigateli" sifatida belgilash mumkin bo'lib, qaysiki uning yordamida ijro hokimiyati iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazadi[3], deb boshqaruvni ijro hokimiyatini amalga oshirishning bir vositasi sifatida izohlashga harakat qiladi.

Huquqshunos olima M.Axmedshayeva ushbu huquqiy va ijtimoiy tushunchaga keng miqyosda baho bergani holda, davlat boshqaruvi tushunchasi ijro hokimiyati organlari faoliyati doirasidan kengroq munosabatlarni o'z ichiga olishini, ilmiy adabiyotdagi "davlat boshqaruvi" atamasi yuzasidan bo'layotgan munozaralarning obyektiv va subyektiv sabablari borligi, avvalo, davlat hokimiyatining, xususan, davlat boshqaruvining uslublari demokratlashuvi, boshqaruvda ma'muriy uslublardan iqtisodiy uslublarga keng tarzda o'tilishi kabi holatlar natijasida, "boshqaruv", "davlat boshqaruvi" atamalari yangi mazmun va mohiyat kasb etayotganligi va bu tushunchalar haqiqatan ham bugungi kunda qayta mushohada etilishga muhtoj ekanligini, shuningdek ilmiy makonda "ijro hokimiyati" atamasi bilan "davlat boshqaruvi" atamasi ham harakat qilishi mumkinligi, ijro hokimiyati subyektlari bu – aynan ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari tizimi ekanligini ta'kidlaydi[4].

Bir guruh mutaxassislar "davlat boshqaruvi"ni davlatning jamiyatda tutgan o'rni va rolidan kelib chiqqan holda boshqaruvni amalga oshiruvchi institut, uning maqsad va vazifalari, yo'nalishlari majmui sifatida tavsiflash mumkin. Bu uning keng ma'nodagi yo'nalishini qamrab oladi. Tor ma'noda esa "davlat boshqaruvi"ni davlat hokimiyati institutlari, hokimiyatning bo'linish prinsipidan kelib chiqqan holda ham qarash mumkin[5], deb qisqacha ta'riflaydilar.

A.Raxmonov o'zining yuqoridagi ijro hokimiyatiga bergan ta'rifida ijro hokimiyatiga davlat boshqaruvi organlarining yagona tizimi deya ta'rif bergan edi. Biz ushbu fikrga qo'shila olmaymiz. Sababi, davlat boshqaruv organlarining yagona tizimini ijro etuvchi hokimiyat ifoda etishiga qo'shilsak, unda parlament, sud hokimiyati va boshqa nazorat qiluvchi organlarni ham ijro hokimiyati tizimiga kiritgan bo'lamiz. Vaholanki, boshqaruv tushunchasi davlat hokimiyatining barcha tarmoqlariga tegishli tushuncha bo'lib, nazorat, kontrol va yana davlatning bir qator muhim funksiyalarni amalga oshiruvchi organlar faoliyati uchun ham xos bo'lgan hodisadir.

Yuridik fanda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tarkibiga kirmaydigan biroq, ijro etish funksiyalarini amalga oshiradigan davlat boshqaruv organlari sifatida bir qator tuzilmalar mavjud bo'lib ularning huquqiy maqomi va vazifalariga oid bir qator mulohazalar mavjuddir.

Darhaqiqat, davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga aloqador prezident qarori va hukumat faoliyatini belgilab beruvchi maxsus qonunda ham ijro funksiyalarini amalga oshiruvchi, Vazirlar Mahkamasining oldida hisobdor bo'lgan davlat boshqaruvi organlari bo'lib hisoblanuvchi agentlik, inspeksiya, markaz va boshqalarning ta'rifi, vazifa va funksiyalari hamda majburiyatlariga dahldor birorta qoida mavjud emas. Ularning huquq va majburiyatlariga oid

normalar ushbu organlarning faoliyatini belgilab beruvchi hukumat qarori va ular to‘g‘risidagi nizomlardagina belgilangan.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari sanab o‘tilgan 78-moddasi 1-qismi 5-bandida, “O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash” aynan parlament palatalarining birgalikdagi vakolati ekanligi mustahkamlangan. Ya’ni bu masalalar yuzasidan qonun qabul qilinishi zarurligi belgilangan. Shuningdek, konstitutsiyaning aynan ushbu moddasi 1-qismi 13-bandida, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash” Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolati ekanligi ham mustahkamlangan. Bir qarashda ushbu moddaning ikkita mustaqil bandlari mazmuniga ko‘ra bir-biriga zidday ko‘rinadi. Biroq, qonun matni umumiy tarzda ijro hokimiyati organlarining tizimi, tuzilmasi va ularning vakolatlarini belgilash kabi muhim huquqni parlamentga dahldor ekanligini belgilamoqda. Prezidentning ijro hokimiyatining mustaqil bir tuzilmasi sifatida u yoki bu davlat boshqaruvi organlarini tuzish vakolati parlamentning ushbu huquqini inkor etmay, balki uni to‘ldirmoqda. Ya’ni, prezident biror-bir davlat boshqaruvi organini tuzish to‘g‘risida farmon qabul qiladi va uni albatta parlament palatalariga taqdim etadi. Ushbu farmon parlament palatalari tomonidan tasdiqlangach mazkur yangi tashkil etilayotgan boshqaruv organi faoliyat olib borishi mumkin bo‘ladi. Qolaversa, davlat rahbari bu farmonni konstitutsiyaning 93-moddasi 1-qismi 8-bandida belgilanganidek, Vazirlar Mahkamasining taqdimiga ko‘ra qabul qiladi. Ya’ni, bunda ijro hokimiyatining markaziy kollegial organi qaysi davlat boshqaruvi organini tashkil etish yuzasidan taklifni faoliyati natijasidan kelib chiqqan holda o‘zi taqdim etadi. Bu holat konstitutsiyaning 98-moddasida belgilanganidek, Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respub-likasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oldida hisobdorligi va javobgarligiga ham to‘la mosdir.

Shu sababli, hukumat faoliyatini tartibga soluvchi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonun bilan belgilanmagan, biroq ijro hokimiyati organlari tizimi va tuzilmasi va ushbu organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi, ularning bir-biridan farqli xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi, markaziy va hududiy organlari tizimini mustahkamlovchi, ularning huquq hamda majburiyatlarini aks ettiruvchi alohida *"Ijro hokimiyati organlari tizimi asoslari to‘g‘risida"*gi qonunni qabul qilish zarur deb hisoblaymiz.

Endi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonunning Vazirlar Mahkamasining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish yo‘nalishida vakolatlari belgilangan 19-moddasida, “Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi hamda yo‘naltiradi. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari o‘zlari olib borayotgan davlat siyosatining sifatli va samarali amalga oshirilishi uchun Vazirlar Mahkamasi oldida javobgardir”, degan qoida yuzasidan fikr yuritsak. Ushbu qoida mazmuniga ko‘ra, ijro hokimiyatining sohaviy organi ishini muvofiqlashtirish va yo‘naltirish hukumatga tegishli bo‘lib, ushbu organlarning o‘z faoliyati yuzasidan kollegial oliy organ hukumatning oldida javobgar ekanligi huquqiy jihatdan to‘g‘ri va asosli. Biroq, amaliyotga nazar tashlasak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi PQ-2883-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi Nizom”ning 1-bandiga ko‘ra, “Vazirlik bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, qonunda ko‘zda tutilgan ayrim masalalar bo‘yicha esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi”,[6] deb belgilangani, yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi Nizom”ning 2-bandida, “Vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo‘yicha esa bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi”, [7]deb mustah-kamlangan qoidalarni ko‘ramiz. Ijro organi ishini yo‘naltirish uning markaziy kollegial organi vakolatiga oid hodisadir. Shuningdek, ushbu ijro hokimiyati organining bo‘ysunuvi mantiqan olib qaralganda javobgarlik bilan ham bog‘liq. Zero, davlat organining biror hokimiyat tarmog‘iga bo‘ysunuvi hisobdorlikni, hisobdorlik esa javobgarlikni ham vujudga keltiradi. Umuman olganda ijro hokimiyati tarmoq organining bevosita prezidentga bo‘ysunishi hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga qay darajada muvofiq keladi, degan savolga javob topish zarur.

Aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 1-qismi 8-

bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masining taqdimiga binoan tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Demak, davlat rahbari sifatida prezidentning ijro hokimiyatiga dahldor bir qancha vakolatlari ham mavjud bo'lib, ushbu vakolatlar aksariyat hollarda parlament bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Davlat rahbari sifatida prezident ijtimoiy hayot sohasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni samarali tarzda tashkil etish, huquqiy siyosatni ham tezkor va adolatli ravishda amalga oshirilishini kafolatlash maqsadida to'g'ridan-to'g'ri ijro hokimiyati organlarining ba'zilariga bevosita o'zi muhim vazifalarni yuklagan holda javobgarlik belgilashi va ular faoliyatini yo'naltirib turishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, ijro hokimiyati organining Vazirlar Mahkamasi oldidagi hisobdorligini istisno etmaydi. Ammo hukumat faoliyatini belgilab beruvchi maxsus qonunda ushbu holatga huquqiy jihatdan oqilona yechim mustahkamlanmagan.

Xuddi shunday holat Rossiya Federatsiyasida hukumat to'g'risidagi maxsus qonunning 10-moddasiga binoan birmuncha boshqacha asoslarda tartibga solingan. Unga ko'ra[8], mudofaa, davlat xavfsizligi, ichki ishlar vazirligi, adliya, tashqi ishlar, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, jamoat xavfsizligi masalalarini yurituvchi federal ijro hokimiyati organlarining rahbarlari RF Federal Majlisining Federatsiya Kengashi bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng Rossiya Federatsiyasining Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Boshqa federal vazirlar ularning nomzodlari Davlat Dumasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng prezident tomonidan tayinlanadi. Rossiyada mazkur bir qator vazirlar parlamentning quyi palatasi emas, balki aynan yuqori palatasi bilan davlat rahbarining maslahatlashuvlari asosida lavo-zimga tayinlanar ekan. Yoki, Qozog'iston Respub-likasi konstitutsiyasining 44-moddasiga ko'ra, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hukumatning boshqa a'zolaridan farqli ravishda tashqi ishlar, mudofaa va ichki ishlar vazirini mustaqil tarzda o'zi tayinlashi mustahkamlangan[9].

Biz muhokama qilayotgan hukumat faoliyatiga oid maxsus qonunning 19-moddasida, Vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari to'g'risidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi", degan qoida ham mavjud. Biroq, qonun hujjatlariga e'tibor bersak, ushbu vazirliklardan, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Transport vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi, Qurilish vazirligi, Energetika vazirliklari to'g'risidagi nizomlar, shuningdek davlat qo'mitalaridan Statistika qo'mitasi, Soliq qo'mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Mudofaa vazirligi to'g'risidagi nizomlar esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan. Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi nizom 1997 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasi Raisi sifatidagi qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu holatda prezidentning ba'zi ijro hokimiyati organlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlashi ushbu tarmoq organlarining faoliyati aynan davlat rahbarining diqqat e'tiborida ekanligi bilan ham izohlanadi.

Demak, ijtimoiy hayotda boshqaruv va tartibga solish munosabatlarining murakkab va serqirraligi davlat rahbari sifatida prezidentni mamlakat hayotida muhim o'rin tutuvchi vazirliklarning bajaradigan vazifa va funksiyalarini o'z qarori asosida tasdiqlanuvchi nizomlar orqali belgilab berishi, shuningdek ushbu sohaviy organlar faoliyatida davlat rahbariga bo'ysunishi kabi holatlar asosli ekanligini ko'rsatmoqda. Buni yuqorida chet davlatlar misolida ham ko'rib chiqdik.

Yuqoridagilarga asosan, normativ-huquqiy belgilash va tartibga solishdagi ba'zi noaniqliklarni huquqiy jihatdan to'g'ri belgilash yo'li bilan bartaraf etish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi

qonunning 19-moddasiga, "*O'zbekiston Respublikasining adliya, mudofaa, tashqi ishlar, ichki ishlar vazirliklari o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va Vazirlar Mahkamasi oldida hisobdor hisoblanadi, shuningdek, ular to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi*", degan yangi qoidani 5 qism sifatida kiritish zarur.

Shuningdek, ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining rahbari sifatida Bosh vazirning o'rni va roli nafaqat ijro hokimiyati tizimida, balki, boshqa davlat organlari bilan amalga oshiriladigan munosabatlarda ham ahamiyatlidir. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunning 21-moddasida Bosh vazirning asosiy vakolatlari keltirilgan. Lekin ushbu moddada hukumat rahbarining ijro hokimiyati vakili sifatida boshqa davlat hokimiyati tarmoqlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishishi huquqiy asoslari mustahkamlanmagan. Qozog'iston Respublikasi Hukumat to'g'risidagi qonunning 19-moddasida [10] Bosh vazir respublika prezidenti, parlament, Konstitutsiyaviy kengash, Oliy sud, Bosh prokuratura va boshqa davlat organlari bilan munosabatlarda Hukumatni ifoda etadi yoki hukumat nomidan vakillikni boshqa shaxsga topshirishi mumkinligi belgilangan.

Darhaqiqat, Bosh vazir nafaqat hukumat rahbari sifatida ijro hokimiyati ichki tizimida faoliyat olib boradi, balki u hukumat nomidan davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va nazorat qiluvchi organlar bilan ham doimiy aloqada bo'lib hukumat nomidan ish ko'radi. Qolaversa, Bosh vazirning maqomi konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishga muvofiq ijro hokimiyatining rahbari sifatidagi mas'uliyatli faoliyatida mustaqil subyekt sifatida harakat olib borishini ham taqozo etadi. Shu sababli, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunning 21-moddasiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri davlat hokimiyati tizimining boshqa organlari, nazorat qiluvchi organlar va boshqa idoralar bilan munosabatlarda Hukumat vakili sifatida uning nomidan ishtirok etishi, shuningdek u ushbu vakillikni boshqa hukumat a'zosiga topshirishi mumkinligiga oid yangi qoidalarni kiritish zarur.

Bugungi kunda ijro hokimiyati quyi organlari joylarda ular tomonidan umumdavlat siyosatini to'g'ri va samarali tarzda tashkil etish va yuritish orqali xalqning roziligiga erishish eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda ijro hokimiyati mahalliy organlari faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish orqali yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" deb nomlangan 21-bobi, 102-moddasida, "Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi" degan qoida mavjuddir. Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy qoida ayni asosiy qonunning 11-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi", degan muhim ham doktrinal ham huquqiy qoida talablariga qay darajada muvofiq degan savol tug'ilishi tabiiy. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida, "Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respub-likasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir", degan norma yuzasidan mulohaza qilinsa, ayni bir paytda hokim o'zi boshchilik qilayotgan vakillik organi oldida hisobdorligi nechog'li samarali degan fikr ham bo'lishi tabiiy.

"To'g'ri, mustaqillikning dastlabki yillarida taraqqiyotimiz asosi sifatida qaralgan beshta muhim tamoyillarning biri sifatida qaralgan "davlatning bosh islohotchi"lik g'oyasi o'tgan yillar davomida mahalliy vakillik va ijroiya organlarining yakdillik bilan samarali faoliyat yuritishini ta'minladi. Bunda hududlarda mahalliy darajada vakillik organlarining qarorlarini hokim tomonidan tezda ijrosini amalga oshirishni ta'minlash kerakli natijalarni berdi. Biroq, hokimiyat vakolatlarining taqsim-lanishi faqatgina respublika darajasidagi davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlargagina dahldor bo'lmay, balki, quyi, mahalliy darajadagi davlat organlari faoliyati ham aynan ushbu mezonlar asosiga qurilishi zarurdir. Bugungi kunda jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongi va siyosiy darajasi ham endilikda har qanday davlat huquqiy munosabatlar yuzasidan ularning mustaqil pozitsiyalarga ega ekanliklarini ifodalashi barobarida mahalliy darajada ham mustaqil vakillik organlari shakllanib, o'zining rivojlanish bosqichiga chiqib bormoqda. Qolaversa, jamiyat

hayotida aynan fuqarolar ishonchini qozongan va ular manfaatini ifoda etadigan vakillik organlarining o'rni va roli ham oxirgi yillarda bir necha marotaba o'sdi. Shu sababli, hududlarda mahalliy vakillik organlari va ijro hokimiyati vakili sifatida hokimlik institutini tashkiliy-huquqiy nuqtai-nazardan bir-biridan mutlaqo mustaqil tarzda tashkil etish fursati yetdi, deb hisoblaymiz.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102-moddasi 1-qismini, "*Ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi*" tarzida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni 1-moddasi 2-qismini "*Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning mansabdor shaxsi bo'lib tegishli hududdagi ijroiya hokimiyatini boshqaradi*", tarzida belgilash zarur.

Shundan so'ng, mazkur hokimning tegishli mahalliy darajadagi vakillik organi bo'lgan Kengashlar oldidagi hisobdorligi tom ma'noda ta'minlanadi. Shuningdek, hokim mahalliy ijroiya hokimiyatining rahbari bo'lganligi sababli, uning xuddi Bosh vazir timsolida Vazirlar Mahkamasining parlament oldida konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi huquqiy asoslari mavjud bo'lgani kabi uning xalq deputatlari mahalliy kengashlar oldidagi javobgarligi asoslarini ham qonunchilikda aks ettirish zarur. Uning qonunchilikka ko'ra vakolatlari hajmining ko'pligi, mahalliy hududni rivojlantirish va aholining turmush darajasini yaxshilash borasida davlat siyosatini to'g'ri tashkil etishi bo'yicha qay darajada samarali faoliyat olib borayotganligi ushbu hududning vakillik organi diqqat markazida bo'lishi hamda zarurat tug'ilganda o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni vijdonan bajarmayotgan, davlat budjeti ijrosi yuzasidan jiddiy e'tirozlar mavjud bo'lganda, hudud rivojida salbiy natijalarni qayd etgan, shuningdek fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlay olmayotgan hokimlarni iste'fosini talab qilishga doir konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarni qonunchilikda belgilash zarur.

Mamlakatimizda bugungi kunda quyi bo'g'in, jumladan mahalliy hokimiyat, mahalliy kengash va mahalla raislari vakolatlarini qayta ko'rib chiqish orqali mahalla raislari huquqlarini bevosita kengaytirish nazarda tutilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-sonli qarori 3-bandiga ko'ra;

- mahallani joylardagi vakillik organlari bilan doimiy aloqalarining huquqiy asoslarini yaratish, shu jumladan mahalla raisi tomonidan mahalliy Kengash majlisida ko'rilishi majburiy bo'lgan masalalarni kiritishning samarali mexanizmlari yo'lga qo'yilishi;

- fuqarolar tomonidan mahalla raisiga nisbatan ishonchsizlik bildirish instituti joriy etilishi belgilandi[11].

Demak, bugun nafaqat mahalliy rahbarlar yoki boshqa mansabdor shaxslar, balki, eng quyi bo'g'indagi mahalla raislari faoliyatini ham baholagan holda ularga nisbatan ishonch masalasi bevosita fuqarolar tomonidan qo'yilishi huquqiy jihatdan mustahkamlanmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 103-moddasiga va "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida"gi qonuniga viloyat hokimi o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni vijdonan bajarmagani yuzasidan tegishli asoslar mavjud bo'lganda, shuningdek, uning budjet ijrosi yuzasidan taqdim etgan hisoboti yuzasidan deputatlarda haqli e'tirozlar bo'lganda, xalq deputatlari viloyat Kengashi umumiy sonining kamida uchdan bir qismining tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritilgan taklif bo'yicha xalq deputatlari viloyat Kengashining majlisi muhokamasiga viloyat hokimiga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilishiga doir huquqiy asoslarni kiritish zarur deb hisoblaymiz.

Shunda nafaqat markaziy darajadagi balki, mahalliy bo'g'indagi mansabdor shaxs hisoblanuvchi hokimlarning vakillik organi oldidagi hisobdorligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бельский К.С. О функциях исполнительной власти // Государство и право. – Москва, 1997. – №3. – С. 15 –18.

2. Асланян Р.Р. Конституционная система исполнительной власти в Россиской Федерации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук по специальности 12.00.02 – Конституционное право; муниципальное право. – Саратов, 2005. – С. 12.

3. Калинина Л.Исполнительная власть в её организационно-правовых формах (федеральный уровень): Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата

юридических наук по специальности 12.00.02 – Государственное право и управление; советское строительство; административное право; финансовое право. – Москва, 1994. – С. 10.

4. Ахмедшаева М.А. Давлат ҳокимияти тизимида ижро ҳокимияти: 12.00.01 – Давлат ва ҳуқуқ назарияси ва тарихи; сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи йўналиши бўйича юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2010. – Б. 22.

5. Кратология – ҳокимиятшунослик илми / Қ.Қуранбоев, Ф.Равшанов, Ж.Юсупов. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги; Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Т.: "KAMALAK", 2012. – Б. 234.

6. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.04.2021 й., 06/21/6218/0398-сон, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.06.2021 й., 06/21/6252/0617-сон.

8. https://docs.cntd.ru/document/901890322

9. https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution

10. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1003973&pos=200;-44#pos=200;-44

11. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

Hoshimxonov A.M. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari

Ushbu maqolada ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organi hisoblanuvchi vazirlik va davlat qo'mitalarining tushunchasi, huquqiy maqomi to'g'risida fikr yuritilib, ushbu organlar faoliyati asoslari tahliliga ko'ra bir qator yangi qonun hujjatlari qabul qilish zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ijro etuvchi hokimiyatning quyi bo'g'ini sifatida mahalliy hokimlarning ayni paytda hududiy vakillik organlari raisi sifatida faoliyat olib borishlariga doir amaliyotni tugatish va kelgusida hokimlar faoliyatini baholash maqsadida mahalliy kengashlar tomonidan ularga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirishga doir huquqiy asoslarni yaratish zaruriyati yuzasidan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: hukumat, ijro etuvchi hokimiyat, boshqaruv, vazirlik, davlat qo'mitasi, hokim, mahalliy kengash, ishonchsizlik votumi, tarmoq organ, soha.

Ҳошимхонов А.М. Вопросы совершенствования деятельности органов государственного управления

В статье рассмотрено понятие и правовой статус министерств и государственных комитетов, являющихся центральными органами исполнительной власти, а также высказана необходимость принятия ряда новых законов на основе анализа деятельности вышеназванных органов. Даны предложения по изменению практики исполнения функций председателей территориальных представительных органов, как нижестоящего уровня исполнительной власти, местными хакимами, с целью создания правовых оснований для выражения недоверия к осуществлению их деятельности.

Ключевые слова: правительство, исполнительная власть, администрация, министерство, госкомитет, губернатор, местный совет, вотум недоверия, сетевой орган, сектор.

Khoshimkhonov A.M. Issues of improving the activities of public administration

This article discusses the concept and legal status of ministries and state committees, which are the central body of executive power, and the need to adopt a number of new laws based on the analysis of the basis of the activities of these bodies. The article also makes suggestions and recommendations on the need to end the practice of local governors currently acting as chairmen of territorial representative bodies as a lower level of executive power and to create a legal basis for local councils to vote no confidence in them in order to assess future governors.

Key words: government, executive branch, administration, ministry, state committee, governor, local council, no confidence vote, network body, sector.

Isoqov Luqmonjon,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi
Markaz boshlig‘i, adliya kichik maslahatchisi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MARKAZIY OSIYODA MIGRATSIYA HUQUQI TARIXI

Ilk o‘rta asrlar ulkan migratsiya jarayonlariga boy tarzda o‘tgan. Aholi ko‘chishi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar Markaziy Osiyo xalqlarini ham chetda qoldirmagan. Sharqshunos olima B.Mamarahimovaning yozishicha, 534 yilda minglab sug‘diy migrantlar Xitoydagi yirik qadimiy shahar Dunxuanga ko‘chib kelgan. Bunga Markaziy Osiyolik migrantlarga Vey sulolasining ularga yaratgan alohida huquqiy va savdo imtiyozlari sabab bo‘lgan.

Xitoyda sug‘diy migrantlar uchun qulay ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy-moliyaviy muhit yaratilishi nafaqat mazkur imtiyozlar bilan, balki masalaning siyosiy jihatlariga ham bog‘liq bo‘lgan, deb hisoblaymiz. Binobarin, sug‘diylar Kumul shahri yaqinidagi Xami viloyatini nazoratga olib, bu yerda xoqonlik tasarrufidagi boshqaruvini joriy qilganlar. Samarqandlik Kan Sumi Ordosdagi Beyan okrugi gubernatori (duxufusi) lavozimiga tayinlanib, mazkur hududlarga Sug‘ddan migrantlarning kelishi davom etgan. Jumladan, 630 yilda “ulug‘ sardor” buxorolik An Tuxan 5 ming sug‘diyni shimoliy Xitoyga olib kelib joylashtirgan [1].

50 mingga yaqin migrantlar orasida sug‘diylar savdo-sotiqdan tashqari, ma’muriy va harbiy sohalarga ham jalb etilgan [2]. Dunxuan yaqinidagi g‘orlarda Markaziy Osiyo va Kichik Osiyoda yashagan xalqlar tilida yozilgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma topilganligi [3] ham mazkur ma’lumotlarning haqqoniyligidan darak beradi.

Qolaversa, sharqshunos olim A.Xo‘jayevning sug‘diy yozuvda bitilgan tangalarining xalqaro savdoning rivojiga yordam berganligi, Choch va so‘g‘diy savdogarlar xorijdagi manzilgohlarda bir jamoa bo‘lib yashashganligi [4], sug‘diy migrantlar Sug‘ddagi qavmdoshlari bilan muntazam aloqada bo‘lganliklari “Ko‘hna xatlar”da bitilganligi [5] yana bir karra buni tasdiqlaydi.

Migrantlarning vijdon erkinligi huquqiy jihatdan kafolatlanganligi haqida manbalar mavjud. Masalan, Shimoliy Vey sulolasi poytaxti Loyandagi sug‘diy migrantlar o‘zlariga zardushtiylik ibodatxonasini barpo etganlar [6]. Qolaversa, xitoyliklarning ma’muriyati ham boshqa din vakillariga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lgan.

VI asr o‘rtalarida Ashina avlodlari asos solgan Turk xoqonligi mintaqada yangi siyosiy kuch sifatida maydonga chiqqan. Mavjud shart-sharoitlar Markaziy va O‘rta Osiyoda yashagan turli etnik qatlamlar, xususan, turkiylar va sug‘diylar orasida migratsion, integratsion jarayonlarni kuchaytirgan [7]. Savdo aloqalari xoqonlik xazinasiga daromad keltirish barobarida, unga siyosiy va harbiy jihatdan o‘rtaosiyolik migrantlarni himoya qilish mas’uliyatini yuklagan [8].

Qadimgi turkiy xalqlarda migratsiya huquqining muhim institutlaridan biri qochoqlar masalasi alohida ahamiyat kasb etgan. Oqsoqollar tomonidan ta’qib qilinayotgan qochoq maqomidagi shaxslarni hech kim o‘toviga qo‘yishi mumkin bo‘lmagan. Ular qum-sahrolarga quvib yuborilgan (ostrakizm), bu esa ko‘pincha o‘lim jazosi bilan teng edi [9]. Biroq Z.Muqimovning ushbu quvg‘inni ostrakizm bilan tenglashtirganligi noto‘g‘ri, deb hisoblaymiz. Chunki Qadimgi Afinada qo‘llanilgan ostrakizm institutida shaxs shaharni 10 kun ichida tark etishi lozim bo‘lgan va surgun qilingan vaqt davomida u siyosiy va iqtisodiy huquqlarini saqlab qolgan. Bu borada Arastuning “ostrakizm biror jinoyat uchun jazo sifatida emas, balki hokimiyatni qo‘lga olishning oldini olish maqsadida qo‘llaniladigan insonparvar chora” yoki Plutarxning “mansabdorlarning kibr-havosini pasaytirish chorasi” degan fikrlariga qo‘shilamiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida Islom dini keng yoyilganligi munosabati bilan migratsiya huquqi institutlarining shakllanishi musulmon huquqi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, bu XX asrga qadar davom etgan. Xususan, migratsiya huquqiy munosabatlari musulmon huquqining normalari asosida tartibga solingan bo‘lib, bunda uning sunniylik yo‘nalishi va hanafiy mazhabi asosiy o‘rin egallagan.

Tarixdan ma’lumki, musulmon mamlakatlarida aholi tabaqa mansubligiga qarab toifalarga ajratilmagan. Chunki shaxs huquqiy holati uning diniy e’tiqodiga qarab belgilangan. Shariat bo‘yicha faqat musulmonlargina to‘la fuqarolik huquqiy maqomiga ega bo‘lgan [10].

Somoniylar sulolasining Movarounnahrda

markazlashgan davlatning barpo etishi natijasida Sharqning mashhur allomalari o‘z kashfiyotlari, ta’limotlari va o‘lmas ilmiy asarlari bilan jahon ilm-fanini boyitishlari, eng yuqori nuqtaga ko‘tarishlari ilk Sharq Uyg‘onish davrini boshlab berdi. Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlarning davlat va huquq, musofirlik va fuqarolik haqidagi ta’limotlari dunyo tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan. Jumladan, Imom al-Buxoriy “Al-adab al-mufrad” asarida uch toifa shaxs – ota-ona va mazlum kishilar bilan bir qatorda musofirning duosi ham hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbul bo‘lishi haqida so‘zlar keltirilgan.

Ilk Uyg‘onish davri madaniyatining yirik namoyandalaridan biri Abu Ali ibn Sino o‘z davrining nafaqat buyuk tabib, adib, faylasuf, tabiatshunos, matematik, axloqshunos olim balki zabardast huquqshunos sifatida ham nom qozongan. Fuqarolarni hukmdorlar, harbiylar va hunarmand kabi uch toifaga bo‘lgan Ibn Sinoning “Risola fi tadbiri al-musofirin” (“Safardagilarning tadbiri haqida risola”) asari migrantlar uchun amaliy qo‘llanma bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Arab tilida yozilgan mazkur asarning qo‘lyozma nusxasi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Risolada nafaqat migrantlar, balki dengizda safar qiluvchilarning maxsus tadbiri va boshqa masalalar ham bayon qilingan [11].

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis V.V.Grigorev eng muhim va asosiy hisoblangan, oliy hokimiyat tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjat sifatida yorliqlarning farmon, buyruq, diplom, pasport, proklamatsiya [12], hadya yoki muhofaza varaqasi, noma kabi turlarga ajratgan. Ushbu hujjatlarning barchasi bir xildek yorliq sanalgan bo‘lib, “amr” yoki “farmon” shaklida ham qo‘llanilgan [13]. Ushbu manbaga tayangan holda, shaxsni tasdiqlovchi hujjat – pasport yoki harakatlanish erkinligini kafolatlovchi ijozatnoma – viza Markaziy Osiyo mamlakatlarida ilk o‘rta asrlardan boshlab keng foydalanilgan.

Musulmon huquqida migratsiya institutlariga doir ayrim masalalar Burhoniddin Marg‘inoniyning 1178 yilda yozib tugatgan “Hidoya” asarida ham uchraydi. “Hidoya fi furu’ al-fiqh” – “Fiqh sohalari bo‘yicha yo‘llanma” hanafiylikda keng tarqalgan shariat qo‘llanmasi yoki kodeksi deb e’tirof etiladigan “Hidoya” asari bir necha asr davomida ko‘p musulmon mamlakatlarida huquqshunoslik bo‘yicha asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Fiqh ilmi bo‘yicha eng aniq, izchil, mukammal asar hisoblanadigan “Hidoya” sudlov bo‘yicha qo‘llanma sifatida O‘zbekistonda XX asrning 20-yillarigacha qozilar sudi bekor qilinib, sho‘rolar sud tizimi joriy qilinguncha amalda bo‘lgan [14].

“Hidoya” asarida migratsiya huquqining ajnabiylarning huquqiy maqomi, shaxsning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha bir qator sharhlar keltirilgan. Xususan, quyidagi misollarni sanab o‘tish mumkin. Masalan, chet el fuqarosi musulmon mamlakat hududida bir yildan ortiq qolishiga ruxsat berilmaydi. Chunki u daromadining o‘ndan bir qismi miqdorida to‘laydigan soliq bir yil uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qayta hududga qaytib kelishi bilan yana shuncha miqdorda kelasi bir yil uchun soliq to‘lashi lozim bo‘ladi. Ushbu soliq turi ajnabiy shaxslarning himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi [15]. Agar boshqa din vakili Islom dinini qabul qilib, musulmon mamlakat hududiga ko‘chib kelsa, bunday holda u avvalgi nikohini bekor qilishi talab etiladi [16]. Ona farzandi bilan birga boshqa begona yurtga ko‘chib ketishi mumkin emas. Ajrashgan ayol o‘z bolasi bilan boshqa joyga ko‘chib ketishi ham mumkin emas, lekin nikohi rasmiylashtirilgan o‘z yurtiga qaytib kelishi qonuniy hisoblanadi [17]. Ona bolasi bilan qishloqdan shaharga ko‘chishi mumkin, lekin shahardan qishloqqa ko‘chish farzandining kamoliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bois, maqsadga muvofiq emas [18], deyilgan.

Bundan tashqari, “Hidoya” asarida bir qator tushunchalarning izohi keltirilgan. Jumladan, musulmon davlatning g‘ayridin fuqarosi “zimmiy”, xalqaro musulmon huquqi “siyar”, safar davomida to‘lanadigan nafaqa “nafaqa as-safar” va boshqa shu kabi atamalar chuqur tahlil qilingan.

XII-XIII asrlarda Sharqdan G‘arbgacha bo‘lgan hududni zabt etgan mo‘g‘ullar istilosini ham o‘rganish jarayonida migratsiya huquqining ayrim institutlarini odat huquqi sifatida shakllanganligi aniqlandi. Tarixchi olim A.R.Muhammadjonovning keltirishicha, “mo‘g‘ul” so‘zining o‘zi aslida “chet ellik”, “musofir”, “daydi”, “muhojir” kabi ma’nolarni bildiradi [19]. Bir so‘z bilan aytganda, mo‘g‘ul xalqining ko‘chmanchiligi tom ma’noda ularning migrantligi haqidagi fikrni to‘liq isbotlaydi, deb o‘ylaymiz. O‘troq bo‘lmagan mo‘g‘ul xalqining o‘ziga xos jihati harakatlanish yoki ko‘chib yurish ular uchun nafaqat “erkinlik” sifatida, balki “qadriyat” kabi muqaddas hisoblangan. Bunga doimiy ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishini, hatto yangi yerlarni bosib olishini ham misol keltirish

mumkin.

1216 yilda Chingizxon huzuriga Bahouddin G'oziy boshchiligida Xorazmshoh elchilarini yuboradi. Muzokaralar natijasida ikki mamlakat hududlarida savdogarlarning erkin harakatlanishiga kelishib olingan [20]. Biroq mazkur kelishuv O'tror noibi tomonidan qo'pol tarzda buzilishi mo'g'ullarning yurishiga sabab bo'lgan. Dahshatli urush va Chingizxon tomonidan bosib olinishi natijasida ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholi o'rtasida Yasoq qonunlari keng joriy qilingan. Davlat va huquqqa oid tarixiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, Yasoq ko'rsatmalari orasida migratsiya huquqiga oid norma ham mavjud bo'lgan. masalan, professor H.T.Odilqoriyevning yozishicha, qochoq qulni xo'jayiniga qaytarmaslik yoki unga boshpana berish jinoiy qilmish sifatida tasniflanib, unga nisbatan o'lim jazosi qo'llanilgan [21].

Mo'g'ul imperiyasi hududida ko'chib yurish uchun dastlabki safar hujjatlari va ruxsatnomalar yuqori martabali shaxslar tomonidan berilganligi haqida ma'lumotlarni mashhur savdogar va sayohatchi Marko Polo ham tasdiqlagan. Jumladan, mo'g'ul xoni Xubilay tomonidan sovg'a qilingan tilla paytsza [22], ya'ni pasportni u hayotining so'nggi kunigacha saqlaganligi haqida guvohlik bergan.

Paytszalar haqida olimlar turli farazlarni keltirishgan. Izlanishlarimiz natijasida aniqlanishicha, paytsza Sharq mamlakatlarida nafaqat ishonch yorlig'i sifatida qo'llanilgan, balki harakatlanish erkinligini kafolatlagan migratsiya huquqining muhim institutlaridan biri bo'lgan. To'g'ri, paytszalar shaxsni tasdiqlovchi emas, balki bir joydan ikkinchi joyga ko'chishda yoki harakatlanishda ruxsat beruvchi safar hujjati hisoblangan. Shu nuqtai nazardan, paytszalar migratsiya huquqining o'rta asrlarga xos muhim instituti bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu haqda mashhur fors davlat arbobi, tabib va qomusiy olim, chingiziylarning Xulokuiylar saltanati vaziri Rashiduddin Fazlulloh ibn Imomuddavla Abulxayr Hamadoniy (1247-1318) o'zining "Jome at-tavorix" asarida qayd etgan.

Aslida paytsza haqidagi ilk ma'lumotlar VII-X asrdagi xitoylik Tan sulolasining solnomalarida uchraydi. Mazkur manbaga ko'ra, dastlabki paytszalar kumushdan yasalgan, uzunligi 12 sm va eni 4 sm atrofida bo'lib, unda quyidagi yozuvlar bitilgan: "Davlat amri bilan xizmat otlarida harakatlanish uchun kumush taxtacha". Demak, paytszalar dastavval suvoriylar va mansabdor shaxslar uchun mo'ljallangan safar hujjatlari hisoblangan.

Sharq mamlakatlarida pasportning ibtidoiy ko'rinishidagi paytszalarning Abdullaxon, Xubilay, To'xtaxon va O'zbekxon kabi mashhur namunalari dunyo muzeylarida saqlanmoqda.

Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1283-1341) hukmronligi davrida Islom dini mo'g'ullar ichida birinchi bo'lib rasman e'tirof etilib, Jo'chi ulusidagi huquqiy tizim sezilarli darajada takomillashgan. O'zbekxon boshqalardan farqlanish uchun uzunligi 30 sm va eni 10 sm bo'lgan paytszalar joriy qilgan va unda tilla rangli uyg'ur yozuvidagi mo'g'ulcha so'zlar bitilgan: "Abadiy osmon amri. O'zbekxon farmoni. Bo'ysunmagan kishi aybdordir va o'limga mahkum".

O'zbekxonning to'qqizinchi o'g'li Abdullaxon (1340-1370) ham paytszalar zarb qilishni davom etgan. Uzunligi 26,5 sm bo'lgan va kumushdan yasalgan Abdullaxon paytszalarida quyidagi so'zlar yozilgan: "Abadiy osmon kuchi bilan. Buyuk qudrat homiyligida. Abdullaxon amriga qarshi borganlar moddiy zarar va o'limga mahkum".

O'rta-asr Sharq mamlakatlaridagi harakatlanish hujjatlari xalqaro ahamiyatga ega bo'lganligi to'g'risida qiziqarli dalillar topilgan. Buyuk ipak yo'lida harakatlanuvchi savdogarlar va turli migrantlarga safar hujjati sifatida xizmat qilgan paytszalar ham zarb etilgan. Masalan, fors, xitoy va eski mo'g'ul yozuvlarida bitilgan uch tildagi matnli paytszalar hozirgi Pekin shahri yaqinida topilgan bo'lib, unda "E'lon. Yovuzlardan ehtiyot bo'linglar" degan so'zlar bitilgan.

Oltin O'rda paytszalarini o'rganganimizda, ular bevosita yozma hujjat – yorliqlarni tasdiqlashga xizmat qilganligi aniqlandi. Agar hujjat biror sabab bilan o'z kuchini yo'qotsa, uning egasi yangi yorliq olgunga qadar paytszalardan foydalanib turgan. O'zbekxon hukmronligi davrida uluslarda Islom dinini joriy qilinishi bilan, paytszalardagi "Abadiy osmon kuchi bilan" so'zlari iymon timsoli – kalimai shahodat "Allohdan o'zga iloh yo'qdir, Muhammad Allohning rasulidir" bilan almashtirilgan.

Shu bilan birga, mo'g'ullar davrida sonsanoqsiz qo'shinning va unga ergashib yuruvchi qabilalar, oila a'zolari hamda chorva podalarining muntazam harakatda bo'lishi, isyon ko'targan shaharlardagi aholini surgun qilish, hunarmandlarning majburan ko'chirib ketilishi hamda qullarning ish kuchiga bo'lgan ehtiyojning zo'rayishi shahar va qishloqlardagi iqtisodiy hayotning vaqtincha izdan chiqishiga sabab bo'lgan [23].

Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda Amir Temur fenomeni dunyo sahnasida paydo

bo‘lgan. Fransuz temurshunos olimi Jan Oben ta’kidlashicha, chingiziylarda ko‘chmanchilik an’anasidan meros bo‘lib qolgan tartibsiz va noqonuniy migratsiya jarayonlari oldida Amir Temur dovdirab qolmagan. Amir Temur o‘zining bor tashkilotchilik mahoratini vujudga kelgan muammolarni hal qilishga qaratib, natijada tartib-intizomni butun saltanati bo‘ylab o‘rnatgan [24].

XIV asrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatning barpo etilishi huquqiy institutlarning odat huquqidan tabiiy huquq darajasiga yetishi uchun zamin yaratdi. Jumladan, “Temur tuzuklari” asarida Amir Temur o‘z saltanatini 12 toifaga bo‘lganligi, ularga tayangan holda ish yurgizganligi bayon etilgan. Bu toifalarning o‘n ikkinchisi boshqa o‘lkalarni yaxshi biladigan sayyoh va musofirlar (ya’ni migrantlar) ekanligi, ular uchun yo‘l ustiga rabotlar (karvonsaroylar) bino qilishni, daryolar ustiga ko‘priklar qurishni buyurganligi qayd etilgan [25].

Qolaversa, Amir Temur yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlaganligi, ular musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan manzilga yetkazib qo‘yishga ko‘maklashgan, shuningdek ularning biror narsasi yo‘qolsa, o‘ldirilsa yoki boshqa korhol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo‘lishni buyurganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan [26]. Bundan tashqari, Sohibqiron – dunyoning yarmini oldim, saltanatimning u chetidan-bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tillo ko‘tarib o‘tadigan bo‘lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o‘rnatdim [27], deb yozganlari, Temuriylar davlatida har qanday migrantning huquqlari, ularning xavfsizligi va harakatlanish erkinligi yuqori darajada kafolatlanganligidan darak beradi.

Fransuz temurshunos olimi Lyusen Kerenning yozishicha, “Amir Temur o‘tkinchi sayyohlar, ko‘chirilgan aholi oqimini nazorat qilish uchun u yerga politsiya va idora nazoratini o‘rnatgan edi. Chunki bu viloyatga aholini o‘troqlashtirish va kelib chiqishidan qat’i nazar, ustalarni, turli soha mutaxassislarini joylash Temurning eng e’tiborli yumushlaridan edi” [28]. Ushbu parchadan ma’lum bo‘ladiki, Temuriylar davlatida migratsiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan muayyan tizim joriy qilingan.

Amir Temur davlat boshqaruv tizimini qay darajada faoliyat olib borayotganini munosib kishilar orqali muntazam kuzatib turgan. Buning uchun har o‘lkaga maxsus vazirlar tayinlangan. Jumladan, daraksiz yo‘qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirish vazifalari alohida vazirga yuklatilgan [29]. U egasiz qolgan, o‘lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotgan (savdogarlar va sayyohlar)ning mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o‘tlov-yaylovlarini boshqarib, bularning barisidan yig‘ilgan daromadni omonat tarzida saqlovchi vazirdir [30].

Mazkur manbalarga tayanib, Amir Temur davlatida faoliyat ko‘rsatgan ushbu maxsus vazirlik hozirgi kundagi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasiga o‘xshash xizmat bo‘lgan va uning aksariyat funksiyalarini ham bajargan, deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

Amir Temurning adolatli siyosati tufayli o‘rnatilgan bu qat’iy tartib-intizom uning vafotidan keyin temuriy shahzodalar tomonidan davom ettirilgani tarixdan ma’lum. Bu borada Husayn Boyqaro o‘z risolasida shunday degan: “O‘sha zamonda qaroqchilar xavfidan muhojir savdogarlar, yo‘lto‘sarlar vahimasidan ajnabiylar va musofirlar biror borar yeriga, vatanidan chiqib ziyoratgohga yetishishda yo‘lda ko‘p mashaqqat va behisob uqubatlar ko‘rar edilar. Bu zamonda mening hukmronligimda siyosat shamoli o‘sha bebahra kishilar vujudi xas-xashaklarini mamlakatlar dashtidan uchirib ketib, do‘zax o‘txonasiga yetkazibdi. Musofirlar uchun har bir to‘xtagan manzilida osmono‘par karvonsaroy qurilibgina qolmay, balki xavfsizlikni ta’minlash uchun ulkan qal’a barpo etilganki, havo sovuqligida yo‘lovchilarga u foyda keltiradi va issiqda jahongashtalik qiluvchilarga soya beradi. Soya va panohdan boshqa yana har bir istovchi unda xohlagan narsasini topadi, tilagan narsasiga osonlikcha erishadi. O‘sha qal’a, rabotlarning har qaysisida yomon kishilar guruhini daf etib, yo‘lto‘sarlikni yo‘q qilish uchun ko‘plab askarlar va maxsus tayyorlangan jangchilar guruhi, posbonlar joylashgan [31].

Temuriylar sulolasidan keyin, markazlashgan saltanatning parchalanishi xonliklarni paydo bo‘lishiga va ularning o‘rtasida chegaralari o‘rnatilishiga olib keldi. Bu o‘z navbatida bir davlatdan ikkinchi davlatga borish-kelish munosabatlarida migratsiya institutlarini yanada murakkablashtirdi.

Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida o‘tkazilgan sud islohotlariga ko‘ra, Samarqandni qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida u yerga O‘ratepa, Xovos, Toshkent, Andijon,

Kattaqo'rg'on, Termiz kabi joylardan ko'plab aholini ko'chirib kelingan [32]. Shu o'rinda, mazkur aholi toifasi zamonaviy migratsiya huquqida "majburiy ko'chirilgan shaxslar" sifatida e'tirof etilishi mumkin. Binobarin, mamlakat ichida majburiy ko'chirilgan shaxslar atamasi inson faoliyati sababli yuzaga kelgan biror hodisa oqibatida o'z uylarini yoxud odatiy istiqomat qiladigan joylarini tark etishi yoki tashlab ketishga majbur etilgan shaxs yoki shaxslar guruhiga nisbatan tatbiq etiladi.

XVIII asrdan boshlab o'zbek xonliklarining Chor Rossiyasiga mag'lubiyati og'ir salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Masalan, Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasida tuzilgan sulh shartnomasiga muvofiq, xonlik rus savdogarlari uchun harakatlanish erkinligini va xavfsizligini ta'minlashi, shuningdek hukumatning maxsus ruxsatnomasisiz kelgan Rossiya fuqarolari hamda rus jinoyatchilarni mamlakat hududiga qo'ymasligi va ularni ushlab berish majburiyatini o'z zimmasiga olgan [33]. Bundan tashqari, Markaziy Rossiyaning ko'plab hududlaridan dehqonlar ko'chirib keltirilib, Turkistonning serhosil yerlariga joylashtirila boshlandi [34]. Birgina XIX asrning so'nggi 35 yili davomida O'zbekistonga Rossiyadan jami 7075 ming yoki yiliga o'rtacha 2 mingdan ortiq kishi ko'chib kelgan. Ko'chib kelganlarning aksariyati shaharlarda, jumladan Toshkentda joylashgan.

Shuningdek, xonlik va amirliklarda fuqarolik huquqiy maqomi bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Masalan, 1873 yildan boshlab chorizmning ichki va tashqi siyosatini ifodalovchi oliy organlari Xivada xonlar vakolatini chegaralab qo'yganligi natijasida ko'plab xorazmliklar Rossiya fuqaroligini olgan [35]. O'zbekistonlik huquqshunos olima M.Hamidovaning ta'kidlashicha, Buxoro xonligida fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ya'ni xorijiy savdogarlardan boj solig'i olingan bo'lib, bojning miqdori xonlikning xalqaro-siyosiy munosabatlar darajasiga bog'liq bo'lgan [36].

Migratsiya munosabatlarini tartibga solish amirlik va xonliklarning davlat boshqaruvida strategik masala sanalgan. Masalan, Xalq vakillari butun Buxoro qurultoyida eng muhim 10 yo'nalishlardan biri – fuqarolik huquqini olish va uni yo'qotish, mamlakat hududiga kirib keluvchi chet el fuqarolarining huquqiy maqomini belgilaydigan qonunlarni qabul qilish hisoblangan [37].

Jadidchilik ham migratsiyaga doir huquqiy munosabatlar bo'yicha muayyan islohotlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Masalan, "Ittihodiy taraqqiy", "Ittihodiy milliy" va "Milliy istiqlol" partiyalarining dasturlarida o'lkada qo'pol ravishda buzilayotgan harakatlanish erkinligi, shaxs daxlsizligi kabi inson huquqlarini himoyalash bo'yicha aniq vazifa va chora-tadbirlar belgilangan [38].

1886 yil 12 iyunda Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan va 1917 yilning o'rtalarigacha amal qilgan "Muvaqqat o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom" Markaziy Osiyoda migratsiya huquqining bir qator institutlarini rasman shakllanishiga xizmat qilgan. Jumladan, mazkur hujjatda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan bevosita aloqalar o'rnatish bilan bir qatorda siyosiy nuqtai nazardan zararli deb hisoblangan tub aholi vakillarini ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan hududlarga 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatga surgun qilish, qo'shni davlatlarning fuqarolarini (agar ularning amalga oshirayotgan faoliyatini zararli deb hisoblasa) o'lkadan deportatsiya qilish masalalari ko'zda tutilgan [39].

Pasport-viza masalasi o'ziga xos tarzda shakllangan. Masalan, Turkiston general-gubernatorining Buxoro bo'yicha vakolatli siyosiy agenti muayyan darajada hozirgi Tashqi ishlar vazirligining ayrim funksiyalarini bajarib, ko'chirib kelingan rus manzilgohlari to'g'risidagi 1888 yil 23 iyundagi Buxoro-Rus kelishuvini imzolagan. Shu bilan birga Siyosiy agentlik Rossiyaga ketayotgan buxoroliklar pasportiga viza qo'yish vakolatiga ham ega bo'lgan. Jumladan, 1900 yilga qadar 2428 nafar buxoroliklar pasportiga viza qo'yib berilgan [40].

1917 yil 16 aprelida "Sho'roi Islomi"ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlarining I-qurultoyida muhokama qilingan pasport tartibini bekor qilish shaxs daxlsizligi va erkinliklari qatoridagi muhim masalalardan biri bo'lgan [41].

1918 yil 15 oktabrdagi Turkiston ASSR Konstitutsiyasining 4-bo'limiga binoan, xalqaro munosabatlar masalalari asosan Tashqi ishlar bo'yicha Komissariatga daxldor bo'lgan bo'lsa, Turkiston Ichki ishlar xalq komissariati o'z vakolati doirasida tashqi siyosiy masalalar bilan ham qisman shug'ullangan. Masalan, undagi xalqaro bo'linma rus fuqaroligini qabul qilgan chet elliklarni ro'yxatga olgan, Rossiya fuqaroligidan mahrum qilish va chet elga chiqish pasportini rasmiylashtirish kabi huquqlarga ega bo'lgan [42].

Qochoqlarning huquqlari borasida ham Turkiston va Sinszyan (G'arbiy Xitoy) o'rtasida 1920 yil aprel oyida kelishuvga erishilgan. Mazkur kelishuv Iliy protokoli deb yuritilib, turli

sabablar oqibatida o'z yerlarini tashlab ketishga majbur bo'lgan qochoqlarni qaytarish masalasi hal etilgan [43].

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining 1921 yil 23 sentabrdagi Konstitutsiyasida harakatlanish erkinligi haqida normalar mavjud bo'lmagan

Biroq mazkur Konstitutsiyada migratsiya huquqining boshpana instituti haqida alohida modda berilgan bo'lib, unga ko'ra siyosiy va diniy qarashlari sababli ta'qibga uchragan chet el fuqarolari uchun davlat hududida boshpana huquqi taqdim etilgan (13-modda) [44].

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining 1921 yil 23 maydagi Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko'ra, ilk marotaba emigrantlar huquqi mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq, siyosiy va diniy qarashlari sababli mamlakatini tark etgan emigrantlar uchun Xorazm Respublikasi o'z hududida tinch va erkin istiqomat qilish huquqini taqdim qilgan [45].

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining 1922 yil 23 iyuldagi Konstitutsiyasining 12-moddasiga ko'ra, barcha fuqarolar mamlakat ichida, shuningdek boshqa ittifoqdosh sovet respublikalari hududida yashash joyini erkin tanlash va erkin harakatlanish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, chet el fuqarolari uchun boshpana huquqi ham kafolatlangan (21-modda) [46].

Qiyosiy tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, boshqa ittifoqdosh respublikalar, shu jumladan Buxoro Xalq Sovet Respublikasidan farqli o'laroq, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining asosiy qonunlari migratsiya huquqining konstitutsiyaviy kafolatlanganligi bilan ajralib turgan.

Xullas, Chor Rossiyasining bosqinidan boshlab XX asrning 20-yillariga qadar Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston hududida migratsiya huquqiy munosabatlar o'ziga xos tarzda tartibga solingan bo'lib, bu yerda dual aralash tizim, ya'ni musulmon huquqi va Rossiya imperiyasi qonunchiligining amal qilganligi bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Камалов А. Китайские источники по истории кочевых уйгуров // Исследования по уйгуроведению. – Алматы, 2002. – С. 109-126; Maršak B.I. Türkler ve Soğdlular. – S.174.

2. Mamarahimova B.I. Buyuk Ipak yo'li – sivilizatsiyalararo muloqot yo'li. – T.: TDSHI, 2010. – B.28.

3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.383.

4. Хўжаев А. Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши // Мозийдан садо. – 2002. – № 2 (14). – Б. 42.

5. Vaissiere E. Histoire des marchands sogdiens. Paris: College de France, 2002. – P.43-67.

6. Хўжаев А. Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши // Мозийдан садо. – 2002. – № 2 (14). – Б. 42.

7. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Монография. – Т.: ART-FLEX, 2010. – Б.39.

8. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Монография. – Т.: ART-FLEX, 2010. – Б.12.

9. Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т.: "Адолат", 2003. – Б.49.

10. Давлат ва ҳуқуқ тарихи: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / Ҳ.Т. Одилқориев, Н.П. Азизов, Ҳ.Р. Мадиримов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – Б.102.

11. Абу али ибн Сина. Авиценна. Канон врачебной науки. В шести томах. Изд-е второе. Том. 1. – Ташкент: Изд. ФАН Узбекской АН, 1961. – С. 366-373.

12. Прокламация – тантанали равишда эълон қилинадиган, ҳаммага маълум қилинадиган тарғибот мақсадида тарқатиладиган сиёсий мазмундаги варақа.

13. Григорьев В.В. О достоверности ярлыков, данных ханами Золотой Орды русскому духовенству // Россия и Азия. – СПб., 1876. – С.180.

14. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б.326.

15. Бурхануддин Маргинани. Хидоя. Комментарии мусульманского права: в 2 ч. Ч. 1. Т. I—11 / пер. с англ.; под ред. Н.И. Гродекова; отв. ред., авт. предисл., вступ. ст. и науч. комм. проф. А.Х. Саидов. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – С.89.

16. Ўша манба. – Б.186.

17. Ўша манба. – Б.335.

18. Ўша манба. – Б.336.

19. Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. – Б.312.

20. Ўша манба. – Б.168.

21. Давлат ва ҳуқуқ тарихи: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / Ҳ.Т.Одилқориев, Н.П.Азизов, Ҳ.Р.Мадиримов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – Б.153.

22. Пайцза (хитой. 牌子 – "тахтача") – ишонч ёрлиғи, алоҳида ваколатлар берилганлиги ҳақида ёзув битилган, металлдан ёки ёғочдан ясалган тахтача. Тешигидан ип ўтказилиб, бўйинга ёки камарга қадаб

олинган.
23. Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция / Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр. – Тошкент: "Адолат", 2016. – Б.313.
24. Aubin J. Comment Tamerlan prenait les villes// Sudia Islamica XIX, Paris 1963, – P.83-122.
25. Хамидова М. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Т.: ТДЮИ нашриёти. 2004. – Б.80.
26. Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Карамоатов таржимаси. Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б.94-95.
27. Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция / Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр. – Тошкент: "Адолат", 2016. – Б.50.
28. Керен Л. Темурийлар давлатининг асосчиси ва ҳукмдори Темурбек элчи Клавихо нигоҳида // Андижонда Соҳибқиронни хотирлаб: илмий-назарий анжуман материаллари. – Андижон, 1996. – Б.21-27.
29. Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Карамоатов таржимаси. Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б.100.
30. Ўша манба. – Б.100.
31. Шоҳ ва шоир Ҳусайн Бойқаро тўплами. Нашрга тайёрловчи А. Эркинов. – Т.: "Шарқ" НМАК, 1995. – Б.19.
32. Хамидова М. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Т.: ТДЮИ нашриёти. 2004. – Б.108.
33. История государства и права / Н.П.Азизов, Ф.Мухитдинова и др. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2019. – С. 201.
34. Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т.: "Адолат", 2003. – Б.244.
35. Давлат ва ҳуқуқ тарихи: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / Ҳ.Т. Одилқориев, Н.П. Азизов, Ҳ.Р. Мадиримов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – Б.257.
36. Хамидова М. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Т.: ТДЮИ нашриёти. 2004. – Б.104.
37. История государства и права / Н.П.Азизов, Ф.Мухитдинова и др. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2019. – С. 226.
38. Ўша манба. – Б. 219.
39. Хамидова М. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Т.: ТДЮИ нашриёти. 2004. – Б.123.
40. Сарсембаев М.А. Международное право в истории Казахстана и Средней Азии. Учебное пособие (1991), Казахская электронная библиотека, 2014. – С.38.
41. Хамидова М. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Т.: ТДЮИ нашриёти. 2004. – Б.132.
42. Сарсембаев М.А. Международное право в истории Казахстана и Средней Азии. Учебное пособие (1991), Казахская электронная библиотека, 2014. – С.54.
43. Ўша манба. – Б.56.
44. Советские конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 1. Первые советские республики, 1918-1922 гг. / Сост. Д.В. Кузнецов. – Благовещенск: БГПУ, 2015. – С.115.
45. Ўша манба. – Б.101.
46. Ўша манба. – Б.105.

Isoqov L. Markaziy Osiyoda migratsiya huquqi tarixi

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda migratsiya huquqi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Jumladan, ilk o'rta asrlardan XX asr boshigacha mamlakatimizning hozirgi hududida mavjud bo'lgan migratsiya huquqining ayrim institutlari tarixiy yozma manbalar tahlili asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, migrant, migratsiya, chet elliklar, paytsza, tarix, erkin harakatlanish, huquq, qonun.

Исаков Л. История миграционного права в Центральной Азии

В статье рассмотрены особенности формирования в Центральной Азии миграционного права. На основе анализа письменных источников истории изучены некоторые институты миграционного права, существовавшие на территории нашей страны, начиная с раннего средневековья до начала XX века.

Ключевые слова: закон, иностранцы, история, Центральная Азия, миграция, мигрант, пайцза, право, свободное передвижение.

Isokov L. History of migration law in the Central Asia

This article describes the features of the formation of migration law in Central Asia. In particular, some of the institutions of migration la w that exist on the present territory of our country from the early Middle Ages to the early twentieth century was studied on the basis of an analysis of historical written sources.

Key words: paiza, free movement, foreigner, history, law, Central Asia, migration, migrant, passport, rights, law.

Зокиров Ботиржон Пулатхужаевич,
самостоятельный исследователь Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ПРОЦЕССА ВОЗВРАЩЕНИЯ ДОХОДОВ (АКТИВОВ), ПОЛУЧЕННЫХ ПРЕСТУПНЫМ ПУТЁМ

Темой, заявленной для исследования является возвращение доходов, полученных незаконным путём. Тема эта интересна и достаточно хорошо изучена, но всегда можно найти свежее решение, если углубиться в суть вопроса. И если рассматривать краткое определение, которое можно дать термину «возвращение активов», - это поиск и возврат украденных у государства средств. Существует несколько научных подходов, выдвинутых специалистами данной сферы.

Эксперты международного центра по возвращению активов (МЦАР), созданного в рамках Базельского Института управления в 2006 году, считают что, возвращение активов отнюдь не простой процесс, который включает в себя сбор разведданных (информации) и отслеживание финансовых операций (включая зарубежные активы), требующий доказательства. Этот процесс предусматривает проведение судебных действий, разработку правовых стратегий и издание приказов о конфискации.

Процесс возвращения активов требует от специалистов технических навыков и специальных юридических знаний. Международное сотрудничество, политическая воля и настойчивость имеют ключевое значение, поскольку активы часто отмываются в сложных цепочках через несколько юрисдикций. Эти навыки и опыт по-прежнему редки в большинстве стран, особенно в тех, которые больше всего страдают от коррупции.

Осуждая коррумпированных должностных лиц и, возвращая похищенные активы, заинтересованные страны могут также генерировать средства для развития и укрепления своей системы уголовного правосудия. Конечным результатом является укрепление верховенства закона и доверия к правительству [1].

Следует отметить, что эксперты центра Глобального развития имеют свой подход к процессу исследования возвращения активов. В данном методе исследования основной целью является возмещение ущерба, причиненного коррумпированными должностными лицами. Сокращение коррупции в стране имеет решающее значение для ее развития ввиду того, что возвращение активов и наказание коррупционеров является ключевым элементом сдерживания.

Для успеха долгосрочного развития важно повышение подотчетности и прозрачности, имено это является ключевым элементом в вопросе возвращения активов.

Основной костатацией этого исследования является то, что при расследовании коррупционных преступлений и возвращении активов применяются новые методы, задействуются новые субъекты частного сектора, гражданского общества и средств массовой информации, что в итоге может содействовать правосудию[2].

Актуальным вопрос возвращения активов стал также в африканских государствах. Генеральный секретарь ООН Антониу Гутерриш недавно отметил, что поток незаконных средств, отмывание денег и уклонение от уплаты налогов обходятся Африке в пятьдесят миллиардов долларов каждый год. Согласно вашингтонской инициативе по возвращению похищенных активов (Star), ежегодно развивающиеся страны теряют из-за коррупции до 40 миллиардов долларов, и только 5 миллиардов долларов было возвращено за 15 лет до 2011 года, остальные активы возвращены не были. Требуются совершенно новые способы и методы выявления и возвращения преступных активов.

Сотрудник Института Кардифф (Уэльс) Эхи Эсомеме исследует данную проблему, применяя превентивный подход. После многолетнего изучения в своих научных работах вопросов возвращения активов, автор указывает а то, что нормативно-правовые акты должны ограничить поток незаконных средств, перекрыть каналы отмывания денег и возможность уклонения от уплаты налогов. Он анализирует существующую систему отслеживания и возвращения активов в Нигерии, также рассматривает опыт развитых стран по данному вопросу, который Нигерия может взять себе на вооружение и использовать для эффективного отслеживания незаконных активов[3].

Такой подход может гарантировать, что преступность не добьётся успеха при многоуровневой системе отмывания денег.

Эксперты Руанды (Африка) оценивая эффективность системного подхода, регулирующего возвращение активов, связанных с преступлениями в стране, сравнивают этот подход с установленными международными стандартами, предусмотренными в основных конвенциях, участником которых является Руанда.

В рассмотрении вопросов возвращения незаконных активов используются нормы, включающие международные конвенции, внутреннее законодательство и прецедентное право. Автор утверждает, что закон о возвращении активов, связанных с преступностью, не должен иметь стратегических недочётов, и предполагает для достижения целей по предупреждению действий преступности упорядочить и сбалансировать процесс возвращения активов [4].

Основным методом, применяемым в государствах африканского континента, в процессе выявления и последующего возвращения преступных активов, выведенных за рубеж является применение сообщений о подозрительной деятельности (транзакции), поданных операторами финансовых учреждений (банков, бирж, торговых платформ и т.п.), в целях своевременного отслеживания активов на предмет вероятного наличия преступного характера.

Также, они утверждают что, конфискация гражданско-правового производства является важным инструментом в предотвращении коррупционных правонарушений, позволяющим лишить правонарушителей доходов от их преступных деяний, препятствующим совершению новых преступлений и уменьшению имеющегося профита, предназначенного для финансирования дальнейших коррупционных или преступных предприятий[5].

Группа органов надзора международных финансовых центров (Group of International Finance Centre Supervisors) также активно поощряет меры по повышению эффективности режимов, способствующих своевременному и систематическому возвращению активов, выделяя их в качестве приоритета. В экспертнной сфере понятие возвращения активов воспринимается как международный финансово-правовой *институт.*

Однако, принимая во внимание объемы похищенных и скрытых средств и их влияние на международную финансовую систему, а также моральный и политический аспекты явления, мировая общественность предприняла ряд мер по противодействию этому процессу, прежде всего выступив против источников возникновения этих активов — коррупции, коммерческого подкупа, наркоторговли и организованной международной преступности[6].

Такие специалисты как Теодор Гринберг, Линда Сэмюэль, Вингейт Грант, Ларисса Грей при рассмотрении вопроса о возвращении незаконных активов используют юридический подход, то есть считают, что возвращение активов - это процесс по возвращению государственных средств, украденных посредством коррупционной деятельности представителей действующей или ушедшей власти, членов их семей, политических союзников, аффинированных лиц, а также каких-либо иностранных участиков[7].

В.В.Кудряшов и другие исследователи понимают этот процесс как комплекс определённых действий: идентификация; расследование, отслеживание и замораживание; конфискация или изъятие; возвращение. Идентификация преступной деятельности или сомнительных доходов от коррупции инициирует расследование. Расследование собирает доказательства коррупционной деятельности и одновременно отслеживает местоположение доходов коррупционного происхождения. Своевременное замораживание активов по мере их обнаружения имеет важное значение для предотвращения рассеивания и утраты активов. Для возврата активов должно быть обеспечено уголовным или гражданско-правовым (частным) производством окончательное решение суда. Активы возвращаются решением суда, чтобы закрепить право собственности за потерпевшим государством (государствами), а в некоторых случаях — третьими лицами[8].

Эксперт национального научного фонда Люксембурга Мишель Симонато, изучая данный вопрос, применял комплексный подход и утверждает, что системы уголовного правосудия не могут считаться эффективными, если они не отслеживают и не взыскивают доходы от преступлений с целью их передачи, либо потерпевшим, либо государству. Возвращение активов является основным инструментом этих усилий, который состоит из сложного процесса, охватывающего несколь-

ко этапов: финансовые расследования, замораживание и конфискация активов, управление ими, репатриация активов и их перераспределение. Каждый из этих взаимосвязанных этапов заключает в себе сложные юридические действия.

Некоторые международные документы и документы ЕС затрагивают конкретные аспекты этого процесса, однако они не нацелены на возвращение активов с применением абсолюто всех вышеперечисленых этапов возвращеия. Автор считает что, необходимость формирования целостной и полной правовой базы требует проведения всеобъемлющего анализа процесса трансграничного возвращения активов, начиная с первого этапа - расследования. Также он предлагает разработку чёткой концепции ЕС по возвращению активов с учётом всех аспектов[9].

Также, существует прагматичный подход экспертов Междисциплинарного Исследовательского Центра (International State Crime Initiative). Как указывает доктор Кристиан Ласслетт, невозможно достичь цели при отсутствии достаточных навыков и опыта. Исследователям, гражданским обществам и политикам необходимо объединиться и применить строгие меры для успешного достижения цели по возвращению активов[10].

Участники Лозанского процесса стараются изучать тему возвращения активов, применяя принципиальный подход. Целью проведенния семинаров в Лозанне является обсуждение актуальных проблем, связанных с возвратом активов, и разработку путей преодоления сложостей этого процесса. Этот подход позволяет всем участвующим министерствам иностранных дел и судебным органам устанавливать прямые контакты, а также обмениваться знаниями и передавать их друг другу. Другими словами, Лозаннский процесс поощряет дух партнерства между запрашивающими и запрашиваемыми государствами и укрепляет стратегические и активные действия по возвращению активов[11].

Исследователи РФ Волеводз А.Г., Соловьев А.Б. изучали тему при помощи правого подхода. В своих исследованиях рассмотрев все существующие вопросы комплексно, дали пояснения по порядку ведения подобных уголовных дел, выделили особенности правового регулирования, определили меру участия правоохранительных органов различных государств в международном розыске, аресте и конфискации денежных средств и имущества, полученных преступным путём, а также порядок передачи за рубеж вещественных доказательств.

Они рассмотрели вопросы правового регулирования деятельности правоохранительных органов некоторых государств англо-американского правового блока (системы «общего права»), в том числе Великобритании, США, Канады, Австралии и отдельных государств оффшорных юрисдикций.

Различные стороны деятельности правоохранительных органов в сфере возврата активов государств романо-германского правового блока (системы континентального права) показали на примерах сравнительного анализа такие страны, как ФРГ, Австрия, Швейцария, Нидерланды, Израиль и Япония.

Особенности правового регулирования участия правоохранительных органов государств-участников СНГ в международном розыске, аресте и конфискации денежных средств и имущества, полученных преступным путем, а также процесс передачи за рубеж вещественных доказательств в своих исследованиях наглядо продемострировали такие государства, как РФ, Азербайджан, Армения, Беларусь, Казахстан, Киргизия, Молдова, Таджикистан, Туркменистан, Узбекистан и Украина.

Экспертами по данному вопросу также была показана методика деятельности следственных органов, органов прокуратуры и судов по возврату активов по запросам зарубежных стран. Была дана криминалистическая характеристика процессуальных действий международного розыска денежных средств и имущества, полученных преступным путем.

Например, чётко были в статьях отражены следующие моменты, такие как использование сведений и ориентировок государственных органов зарубежных стран для розыска и ареста активов, методика получения правовой помощи при розыске и аресте за рубежом, заявление и исполнение за рубежом ходатайств о правовой помощи, оценка и использование доказательств, полученных в порядке оказания взаимной правовой помощи.

Мишель Симонато и Максим Лассаль (Д-р Мишель Симионато докторант-исследователь в области уголовного права Люксембургского Университета. Максим Лассаль аспирант Люксембургского Универ-

ситета) изучали процесс возвращения активов с применением фрагментарного подхода, направленного на решение вопросов по четко определенным угрозам в заданных условиях. В качестве примеров реализации такого подхода можно указать отдельные средства[12].

Данные исследователи утверждают, что последние три десятилетия политика уголовного правосудия была сосредоточена на борьбе со средствами, полученными преступным путем. Как правило, удаление преступных доходов из сферы, где ими владеют, является наиболее эффективным способом ликвидации преступных организаций, что является выгодным для экономики той или иной страны по предотвращению вывода незаконных доходов за пределы страны.

Из опыта Европейского Союза по возвращению преступных активов, в случае хищения части бюджета ЕС поиск считается актуальным.

Задачи, связанные с возмещеием ущерба от подобного рода преступлений, распределяются равномерно между национальными властями.

Инструменты ЕС охватывают некоторые части юридического процесса, действуя по трём основным направлениям: в сфере обмена информацией между вовлеченными представителями власти; по отлаживанию взаимодействий в процессе признания судебных решений, касающихся замораживания и конфискации, и сихронизируя работу национальных систем, особенно в вопросах порядка конфискации.

Рассматривая подходы экспертов Чарльза Монтейта и Эндрю Дорнбиерера, где применялся вышеназванный подход. Основным прицпом эффективости этого подхода является установление конкретого объема потраченных средств, превышающих официально-зарегистрированный доход, за определенный период времени.

Приведём пример расследования по делу одного должностного лица - в обмен на предоставление контрактов на закупки этот чиновник брал взятки от корпораций. При определении незаконности активов этого государственого представителя, следователям удалось косвенно установить, что во время своего пребывания в должности, им было получено больше денежых средств, чем начислено по заработной плате: были сопоставлены все расходы (расходы на проживание и крупные покупки) за определённый период и учтены все известные активы (сберегательные балансы), при вычитании из общих трат суммы полученых официальных денежных средств, балан не схолился.[13].

По мнению экспертов британской аудиторско-консалтинговой компании Эрнст энд Янг (Ernst&Young), которая имеет технический и процедурный опыт, необходимый для эффективного возвращения активов бизнеса, и заключается в разработке процесса по сбору информации, анализу и обзору, обработке претензий, восстановлению средств и платежей.

Рассмотрев вышеуказанные научные подходы к изучению процесса возвращения преступных активов из-за рубежа можно сделать вывод, что этот процесс, включает в себя несколько межгосударственных юридический процессов уголовно-процессуального характера, с поэтапным систематическим подходом.

Использованная литература

1. https://www.baselgovernance.org/asset-recovery/our-approach

2. https://www.cgdev.org/publication/what's-yours-mine-new-actors-and-new-approaches-asset-recovery-global-corruption-cases

3. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3243108/ EHI Esoimeme/Институционализация борьбы с коррупцией: новые подходы к отслеживанию и возврату активов/ Journal of Financial Crime / 12.09.2018г

4. https://www.researchgate.net/publication/321052451_Reflections_on_Rwanda's_approaches_to_crime_related_asset_recovery/ Размышления о подходах Руанды к возвращению активов, связанных с преступностью/Journal of Financial Crime /26.11.2017г

5. https://www.riskscreen.com/kyc360/article/fighting-corruption-its-worth-considering-a-preventive-approach-to-asset-recovery/

6. Гринберг Т. и др. Возврат похищенных активов: руководство по конфискации активов вне уголовного производства. М., 2010. С. 15.

7. Корзун О.Р., Примаков Д. Я., Щигрева М. М. Проблема возврата незаконно нажитых ак-

тивов: опыт России, Украины и зарубежных стран / М., 2016.

8. Международно-правовые аспекты поиска и репатриации похищенных активов/В.В.Кудряшов /Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения № 6 — 2017

9. https://www.fnr.lu/projects/cross-border-asset-recovery-in-the-eu-a-comprehensive-approach-from-financial-investigations-to-the-social-use-of-confiscated-assets/Трансграничное возвращение активов в ЕС. Комплексный подход от финансовых расследований к социальному использованию конфискованных активов.

10. http://statecrime.org/state-crime-research/victims-of-corruption-applied-principles-for-asset-recovery/

11. https://guidelines.assetrecovery.org/lausanne

12. A fragmented approach to asset recovery and financial investigations: a threat to effective international judicial cooperation

13. Tracking and Tracing Stolen Assets in Foreign Jurisdictions/Charles Monteith | Andrew Dornbierer/p15/2013год

Zokirov B.P. Jinoiy faoliyatdan olingan aktivlarni qaytarishdagi ilmiy yonda-shuvlar

Maqolada noqonuniy yo'l bilan talon-toroj etilib, xorijiy mamlakatlarga olib chiqib ketilgan davlat aktivlarini qaytarishni tadqiq etishning ilmiy yondashuvlari hamda ularni qaytarishning xalqaro-huquqiy jihatlari o'rganilgan va ushbu sohadagi xalqaro konseptual asoslarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, hamkorlikdagi subyektlarning moliyaviy manfaatlaridagi to'qnashuv mazkur sohadagi hamkorlikning o'ta murakkab ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy yondashuvlar, xalqaro huquq, davlat aktivlarni qaytarish, korrupsiyaviy huquqbuzarlik, korrupsiyaga qarshi kurashish.

Зокиров Б.П. Научные подходы к изучению процесса возвращения доходов (активов), полученных преступным путем

В статье рассматриваются научные подходы к изучению процесса возвращение активов, международно-правовые аспекты поиска и возвращения незаконно вывезенных активов. В ней особое внимание уделяется прежде всего, на сложность взаимодействия субъектов международного права в этой области, поскольку затрагиваются финансовые интересы многих тех государств, где размещены эти активы, а также значимость концептуальных международно-правовых основданного вопроса.

Ключевые слова: научные подходы, международное право, возвращения активов, коррупционное правонарушение, противодействие коррупции.

Zokirov B.P. Scientific approaches to studying the process of returning incomes (assets) obtained by criminal way

The article discusses scientific approaches to studying the process of asset recovery, international legal aspects of the search and return of illegally exported assets. It focuses primarily on the complexity of the interaction of subjects of international law in this area, since it affects the financial interests of many of the states where these assets are located, as well as the importance of conceptual international legal issues.

Key words: scientific approaches, international law, asset recovery, corruption offense, anti-corruption.

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti

JINOYAT ISHI YURITISHNI RAD ETISH YOKI TUGATISHDA MAVJUD PROTSESSUAL MUAMMOLAR

Dunyoda jinoiy jazolarni liberallashtirish, aybsiz shaxslarni javobgarlikka tortmaslik va javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, inson sha'ni va qadr-qimmatini asrashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarda harbiy xizmatchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, harbiy xizmat bilan bog'liq jinoyat ishlarida javobgarlikka tortmasdan turib tarbiyalash, jinoyat yo'liga adashib kirib qolgan shaxslarni tarbiyalashning insonparvar prinsiplari doirasidagi huquqiy normalarni joriy etish va bu borada tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 1 noyabrdagi Andijon viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida aytib o'tganidek, "Yurtimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlatda adolatsizlik bo'lishiga hech qachon yo'l qo'ymaymiz. Qonun va adolat himoyasi hokimiyatning barcha bo'g'inlari, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish idoralarining birinchi darajali vazifasi bo'lib, ayni paytda butun jamiyatimizning kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish shart, deb hisoblaymiz [1].

Darhaqiqat davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, qonun va adolat himoyasi davlat va jamiyatning normal faoliyat olib borishida muhim o'rin egallaydi, hamda mazkur vazifa bevosita davlat nazoratida bo'lishi juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida yettita ustuvor yo'nalishdan biri bo'lgan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida **"Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash"** ko'rsatib o'tilgan [2]. Mazkur masalalar Yangi O'zbekistonning huquqiy davlat maqomini mustahkamlash, mamlakatimizdagi har bir shaxsning xususan, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda ularning vafoti bilan bog'liq hollarda ham jinoyat protsessual muammolar mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, amaldagi JPKning 84-moddasi 1-qismi 3-bandiga muvofiq, basharti, ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa, uning aybliligi to'g'risidagi masala hal etilmay jinoyat ishi tugatilishi belgilangan. Amaliyotda mazkur holatlar ko'plab uchrashi sababli, bu boradagi muammolar ham o'ziga xoslikni kasb etmoqda. Xususan, IIV Tergov Departamenti va uning quyi bo'linmalari tomonidan 2017-2021 yillar davomida jami **1 829 ta** jinoyat ishlari ayblanuvchilarning vafot etganligi sababli tugatilgan [3]. Bu ko'rsatkich sudlarda **269 ta** jinoyat ishlari va ularda jami **343 nafar** vafot etgan sudlanuvchilarga nisbatan tugatilgan jinoyat ishlarini tashkil etadi [4]. Biroq amaliyotda gumon qilinuvchi yoki tergovga qadar tekshiruv davomida vafot etgan shaxslar bilan bog'liq holatlar yana katta raqamlarni tashkil etmoqda, bu esa o'z navbatida mazkur masalalarda qonunchilikni takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

S.Maxmudov [5] va B.Murodovlar [6]ning ta'kidlashicha, JPKning 84-moddasi 1-qismi 3-bandida ayblanuvchi va sudlanuvchidan tashqari gumon qilinuvchining ham qayd etilmaganligi amaliyotda turli tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Har ikki tadqiqotchilar Kodeks 84-moddasi birinchi qismining 3-bandida "ayblanuvchi" va "sudlanuvchi" bilan bir qatorda, "gumon qilinuvchi"ni ham qayd etishni lozim, deb hisoblaydilar.

Yuqoridagi mualliflarning fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, haqiqatdan ham amaliyotdagi holatlar bevosita vaziyatdan kelib chiqib, qaror qabul qilishni talab etganligi bois, ko'p hollarda jinoyat-protsessual qonunchilikka mutanosib bo'lavermasligi, jinoyat-protsessual kodeksining qonuniylik prinsipiga ziddir. Biroq yuqoridagi olimlar fikrlarida jinoyat ishi qo'zg'atilgach, ishni yuritish davomida gumonlanuvchining vafot etganligi holati nazarda tutilmoqda xolos. Ammo, tergovga qadar tekshiruv davomida ham jinoyat subyekti sifatida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxsning o'z joniga qasd qilganligi yoxud boshqa sabablarga ko'ra (yo'l-transport hodisasi vaqtida va h.k.)

vafot etgan vaziyatlarda, tergovga qadar tekshiruv yuzasidan qaror qabul qilish lozim bo'lganida, hech qanday maqomga ega bo'lmagan shaxsga nisbatan jinoyat ishini ayblilik masalasini hal etmay turib tugatish uchun qaror qabul qilinishi albatta jinoyat-protsessual qonunchiligiga ziddir.

Bu borada B.Murodov ham 84-modda birinchi qismining 3-bandida nafaqat "gumon qilinuvchi"ni balki "ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs"ni ham aks ettirish lozimligini ta'kidlagan [6].

Albatta tergovga qadar tekshiruv – protsessual nuqtai nazardan jinoyat ishi qo'zg'atilishi bilan yakunlanuvchi bosqich bo'lganligi sababli, bunda shaxsning biror-bir maqomda e'tirof etishning imkoni bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da, jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini ham davom ettirishlik ham tergov yuzasidan maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Basharti tergovga qadar tekshiruv vaqtida kelgusida ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning mazkur maqomini JPKning 84-moddasi 1-qismi 3-bandida mustahkamlash lozim bo'ladi. Bunda mazkur shaxsning aybi to'plangan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bilan o'z isbotini topishi ham muhim sanaladi, chunki marhumning qarindoshlari tomonidan ish rad etilishi yoki tugatilishi ustidan shikoyat qilish huquqi saqlanganligi bilan bir qatorda, surishtiruvchi va tergovchilar uchun ishni osongina hal etish borasida omil sifatida xizmat qilmasligi kerak.

Shu bilan birga mazkur normalar o'rtasida kollizion tafovut boriligini ham kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Chunonchi, JPKning 84-moddasi birinchi qismi 3-bandida faqatgina ayblanuvchi va sudlanuvchi vafot etgan taqdirdagina ishni ayblilik masalasini hal etmay turib tugatish mumkinligi belgilab qo'yilgan. JPKning 333-moddasida, 84-moddasi birinchi qismining 1,3–8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarishi lozimligi belgilangan. Mantiqiy nuqtai nazardan yuqorida keltirib o'tganimizdek tergovga qadar tekshiruv vaqtida mazkur vafot etgan shaxsning biror maqomi belgilanmaydi, buning imkoni ham mavjud emas. Ya'ni JPK talablarida shaxsni faqatgina jinoyat ishi doirasidagina gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida ishga jalb etish mumkin, tergovga qadar tekshiruv vaqtida esa uning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligini va kelgusida jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etilishini mantiqan anglasak-da, ushbu shaxsga hech bir maqomda bo'lmaganligi sababidan protsessual choralar ko'rilmaydi. JPKning 84-moddasi 1-qismi 3-bandida faqatgina ayblanuvchi va sudlanuvchi maqomidagi shaxsning vafot etganligi holati ishni tugatishga asos sifatida belgilab qo'yilgan, tergovga qadar tekshiruv natijasi bo'yicha esa bunday shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etishning imkoni mavjud bo'lmaydi, qolaversa JPKning 333-moddasida jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish borasidagi holatlar tergovga qadar tekshiruv natijasi uchun nazarda tutilgandir.

F.Yu.Vasilev, o'zining tadqiqotlarida Rossiya qonunchiligi nuqtai nazaridan reabili-tatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish borasida, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini vafot etganligi holati boshqa norma bilan xuddi shunday shaxslarning tergovga qadar tekshiruv davomida vafotini aks ettirishi lozimligini, bunda ularning yaqin qarindoshlari qaror va hujjatlar bilan tanishtirilishi va qaror ustidan shikoyat qilish huquqi tushuntirilishi lozimligini, biroq ularning qarordan roziligini olish sharti bo'lishi maqsadga nomuvofiqligini bildirib o'tgan [7].

F.Yu.Vasilevning fikrlariga qo'shilish mumkin, chunonchi yaqin qarindoshlarning bu boradagi huquqlari tushuntirilishi yetarlidir, ularning roziligini olish shart qilib belgilanishi surishtiruv va tergov jarayonida qiyinchiliklarni va protsessual muddatlarning cho'zilishiga olib keladi.

S.Peretokin esa bunday shaxslarning vafot etganida, ularga nisbatan reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra ishni tugatishda ularning yaqin qarindoshlari roziliklarini olishni majburiy tartibi belgilab qo'yilishi lozimligini bildirgan [8].

S.Peretokinning fikrlariga qo'shilishning imkoni yo'q, sababi bu jarayonda vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlari uning "pok nomi"ni saqlab qolish motivida bo'lishi tabiiydir va bu sun'iy ravishda ishning cho'zilib ketishiga olib keladi. Vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlariga shunday qaror ustidan shikoyat qilish huquqi tushuntirilishi va keyingi harakatlar mexanizmi qonunchilik bilan belgilanishi albatta kifoya qiladi degan fikrdamiz.

Bu borada surishtiruv va tergov idoralarida xizmat olib boruvchi respondentlar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalariga ko'ra ham ko'pchilik respondentlar

tomonidan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo'lgan shaxs vafot etganda, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin mazkur vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlaridan rozilik olish bo'yicha biror hujjat rasmiylashtirmasliklarini bildirib o'tdilar [9].

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 36-moddasida "Agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo'lgan kundan e'tiboran kamida ikki yil o'tgandan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish bunday fuqaroning huquq va burchlari borasida uning o'limi olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni vujudga keltiradi."[10] deya belgilab qo'yilgan.

Mazkur fuqaroviy sud tomonidan shaxsni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi qarorning jinoyat-protsessual qonunchilikda aks etmaganligi bu boradagi huquqiy bo'shliq mavjudligi bilan izohlanadi. Huquq nazariyasiga ko'ra va amaliyot nuqtai nazaridan "qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo'lsa, ruxsat berilishi"[11] tamoyiliga ko'ra ish yuritilganligi bois fuqarolik va fuqarolik protsessual qonunchilikdagi shaxsni vafot etgan deb e'lon qilish bilan bog'liq munosabatlar jinoyat protsessual qonunchiligiga tatbiq etilmoqda. Biroq shaxsning fuqaroviy sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilishi uning vafotini faktik ekanligini anglatmaydi va bu ba'zi shaxslarning osongina jinoiy ta'qibdan qutulib ketishiga imkon beradi.

Ilg'or xorijiy davlatlarning protsessual qonunchiliklarida bu borada belgilangan qoidalariga nazar tashlasak, Rossiya Federatsiyasi JPKning 24-moddasi 1-qismi 4-bandida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi vafot etgan taqdirda unga nisbatan yuritilgan tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi hamda jinoiy ta'qib tugatilishi belgilangan bo'lib, istisno tariqasida vafot etgan shaxsning reabilitatsiya qilinishi lozim bo'lgan hollarda bunday ishlarni tugatilishiga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlab qo'yilgan. Bunday murojaatlarni, vafot etganning yaqin qarindoshlari, qarindoshlari yoki unga yaqin bo'lgan boshqa shaxslar berishi mumkinligi belgilangan [12].

Rossiya Federatsiyasi JPKning yuqorida nazarda tutilgan normasida faqatgina tergovga qadar tekshiruv, jinoiy ta'qib va jinoyat ishi tugatilishi borasida vakolat berishini inobatga olgan holda sudlanuvchi maqomini kiritmagan deb o'ylaymiz, biroq mazkur JPK sud ishini tugatilishini alohida asoslarini nazarda tutmaganligi bois bu bo'shliq tushunarsizdir.

Ozarbayjon davlatining JPK 39-moddasi 39.1.5-bandida jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan shaxs mazkur qilmishni sodir etganidan so'ng vafot etsa barcha jinoiy ta'qib, tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi tugatilishi belgilangan. Bunda vafot etgan shaxsning reabilitatsiya qilinishi lozim bo'lgan hollarda qo'llanilmasligi istisno tariqasida belgilab qo'yilgan [13].

Ozarbayjon davlatining JPKda boshqa davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligiga qaraganda o'zgacharoq uslubda mazkur masala hal etilganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bunda shaxsni biror maqomi ko'rsatilmaganligi, yanada aniqroq aytganda jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs vafot etsa bunday ishlarni rad etishi yoki tugatilishi belgilangan. Albatta normaning bunday sodda va tushunarli belgilanishi sud va tergov amaliyoti uchun ham qulayliklar beradi.

Ozarbayjon kabi Armaniston Respublikasi JPKning 35-moddasi 1-qismi 10-bandida ham xuddi shu kabi vafot etgan shaxsni gumonlanuvchi yoki sudlanuvchi maqomi belgilanmagan. Biroq Armaniston Respublikasi JPKda Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda shaxsni vafot etgan deb topilgan hollarida bu qoidaga rioya etilmasligi ya'ni ish yuritilishi rad etilmasligi yoki tugatilmasligi, bunday hollarda faqat Bosh prokuror qaror qilishga vakolatli ekanligini belgilab qo'yilgan.[14]

Gruziya davlati JPKning 105-moddasida 2-qismi "v" bandida[15], Yaponiya JPKning 339-moddasi 4-bandida[16], Birlashgan Arab Amirliklari JPK 20-moddasi 1-qismida[17], Saudiya Arabistoni JPK 22-moddasi 1-qismi 4-bandida[18], faqatgina ayblanuvchi vafot etgan taqdirda jinoiy ta'qib va jinoyat ishi tugatilishi mumkinligi belgilangan.

Janubiy Koreyada[19] va Estoniya[20] davlatlarida bu borada o'zgacharoq tajriba shakllangan bo'lib, unga ko'ra Koreya JPKning 328-moddasi 1-qismi 2-bandida javobgarning vafot etishi va Estoniya JPKning 199-moddasida

1-qismi 4-bandida gumonlanuvchi va ayblanuvchining vafot etish hamda har ikki davlatda yuridik shaxsning tugatilishi jinoiy ta'qibni bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatimizda bu boradagi masalalarni Janubiy Koreya, Ozarbayjon yoki Armaniston Respublikalarining JPKlarida belgilanganligi kabi javobgarning yoki qilmishni sodir etgan shaxsning vafoti munosabati bilan yuritilgan tergovga qadar tekshiruv yoki jinoyat ishini tugatish borasida qoidalar milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda aks etishi quyidagi natijalarni berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Birinchidan, bugungi kunda JPKning 84-moddasi 1-qismi 3-bandida faqatgina ayblanuvchi va sudlanuvchining vafot etganligi sababligina jinoyat ishini tugatish mumkin va bu o'z o'rnida jinoyat ishlariga qaraganda bir necha barobarga ko'p bo'lgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarni qonuniy asos bilan ta'minlaydi. Ya'ni JPKning 84-moddasiga mazkur tergovga qadar tekshiruvda jinoiy javobgar bo'lishi lozim bo'lgan shaxsning vafot etganligi asosini qo'shilishi sababli, shu bandga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish imkonini beradi. Shu bilan birga bugungi kunda JPKning 333-moddasi va 84-moddasi o'rtasida vujudga kelayotgan mantiqiy-kollizion holatni ham bartaraf etadi.

Ikkinchidan, surishtiruv-tergov amaliyotiga muvofiq, odatda jinoyat ishi qo'zg'atilgach, javobgar bo'lishi lozim bo'lgan shaxslar mansabdor shaxslar tomonidan gumon qilinuvchi tariqasida ishga jalb etiladi va barcha dalillar bilan to'liq o'z tasdig'ini topmaguniga qadar shaxsga ayb e'lon qilinmaydi. Bu davrda gumon qilinuvchining vafot etishi surishtiruvchi va tergovchilarga protsessual qiyinchiliklar tug'diradi, bunday vaziyatdan chiqish uchun esa sun'iy ravishda protsessual qarorlar ya'ni sirtdan ayb e'lon qilish yoxud gumon qilinuvchiga nisbatan ishni tugatish haqidagi qaror asosida xatolarga yo'l qo'yilishi holatlari oldi olinadi.

Uchinchidan, odatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning vafoti uning yaqin qarindoshlari uchun qayg'uli kechayotgan bir vaqtda, unga nisbatan ayb e'lon qilish uchun dalillar to'plash maqsadida ushbu holatga qayta va qayta urg'u berilishi yoki yaqin qarindoshlardan tushuntirishlar olish uchun HMQOlarga chaqirtirilishi ularning davlat olib borayotgan huquqiy siyosatga bo'lgan ishonchini susayishi holatlarini oldini oladi.

To'rtinchidan, JPKning mazkur ayblanuvchi va sudlanuvchi maqomidagi shaxslarning vafot etganligi fuqaroviy sudlar tomonidan e'lon qilinishi masalasi ham yoritilmaganligi sababli JPKda fuqaroviy sudlar tomonidan shaxsni vafot etgan deb topilgan qarorlarning tan olinishi yoki olinmasligining belgilanishi mazkur masaladagi huquqiy bo'shliqni oldini oladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilingan holda, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

83-modda. Jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari.

Jinoyatga oid ishlar quyidagi hollarda rad etilishi yoki tugatilishi lozim, agar:

7) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;

8) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa, **shuningdek, e'lon qilingan afv etish qarori shaxsga daxldor bo'lsa;**

9) jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa; **Shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda fuqarolik sudi tomonidan shaxsni vafot etgan deb topilgan bo'lsa, jinoyat ishini tugatish prokurorning roziligi asosida amalga oshiriladi.**

463-modda. Ayblov hukmi chiqarish asoslari

Ikkinchi qismi 5-bandi, ya'ni Sud quyidagi hollarda jazodan ozod qilib, ayblov hukmini chiqaradi, basharti:

5) hukm chiqarish vaqtigacha sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa **yoki Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda fuqarolik sudi tomonidan shaxsni vafot etgan deb topilgan hollarda**;

Yuqoridagi qonun hujjatlariga kiritilishi lozim deb topilgan o'zgartishlar avvalo bu boradagi ishlarni huquqiy tartibga solishga yordam bersa, ikkinchi tomondan fuqarolarning ayb uchun javobgarlik bilan bir qatorda insonparvarlik prinsipining qonunlar va fuqarolar ongiga yanada chuqur kirib borishiga sabab bo'ladi deb hisoblaymiz. Qolaversa, tadqiqot davomida olib borilgan so'rov natijalariga ko'ra 62% surishtiruvchi, tergovchi, amaliyotchi va huquqshunoslardan iborat respondentlar, JPKda tergovga qadar tekshiruv vaqtida ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni va jinoyat ishini tergov qilish vaqtida gumon qilinuvchini vafot etganligi holati qonunchilikda aks etishi muhim ekanligini e'tirof etishdi [21].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Замон билан ҳамнафас диёр. 2016-йил 1-ноябрдаги Андижон вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқи. – Т., "Ўзбекистон" 2017., 22 б.

2. "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, Тошкент ш., 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Тергов Департаментининг 21.03.2022 йилдаги 18/2509-сонли маълумотномаси кириш рақами № 1645. 28.03.2022 йил;

4. Ўзбекистон Республикаси Олий Судининг 11.05.2022 йилдаги 07/13-4853-150-сонли маълумотномаси кириш рақами № 2922. 15.05.2022 йил;

5. Махмудов С.А. Айблилик тўғрисидаги масалани ҳал қилмай туриб жиноят ишини тугатишнинг айрим жиҳатлари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2020), Б. 110-115

6. Муродов. Б.Б. Жиноят ишини тугатиш: назария ва амалиёт. Монография. Тошкент – 2015. Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги Академияси. 86-бет

7. Васильев Фёдор Юрьевич. Институт отказа в возбуждении уголовного дела автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук Санкт-Петербург 2016. Ст. 15-16,20.

8. Перетокин С.Н. "Охрана прав и свобод человека и гражданина при прекращении уголовного дела" автореферат на соискание ученой степени кандидата юридических наук Москва – 2006 ст. 13,24

9. Тадқиқот иши доирасида олиб борилган суриштирувчи, терговчи, амалиётчи ва ҳуқуқшунослардан иборат респондентлар жамоаси ўртасидаги сўров натижалари

10. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. 21.12.1995 йил Тошкент https://lex.uz/docs/111189 мурожаат санаси 11.05.2022 йил

11. Фуқаролик ҳуқуқи тамойилларининг назарий ва амалий муаммолари. Мухаммадиев Аюб Абдурахманович. Тошкент 2010. 193 бет.

12. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации (от 18 декабря 2001 года); Уголовно-процессуальный кодекс КНР (от 17 марта 1996 года) ст.24

13. Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики. Утвержден Законом Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года № 907-IQ. Статья 39

14. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Армения от 1 сентября 1998 года №3Р-248 ст. 35.

15. Уголовно-процессуальный кодекс Грузии Общая часть Раздел I Уголовно-процессуальное законодательство и принципы Тбилиси 9 октября 2009 года № 1772-IIс рм ст.105

16. Япония жиноят-процессуал кодекси (Кэйдзи-сошё-хо). Қонун № 131. 10.07.1948 й. 339-моддаси

17. Уголовно-процессуальное право ОАЭ. Основные положения статья 20

18. Уголовно-процессуальное право - Саудовская Аравия Уголовно-процессуальный закон Королевский указ № (М / 39) 28 раджаба 1422 г. - 16 октября 2001 г. статья 22

19. Уголовно-процессуальный акт Южной Корее (Хёнса-сосон-беоп) Закон № 341 от 23 сентября 1954 ст 328

20. Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии. Принят 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166 Вступил в законную силу 01.07.2004. Статья 199. Обстоятельства, исключающие уголовное производство

21. Тадқиқот иши доирасида олиб борилган суриштирувчи, терговчи, амалиётчи ва ҳуқуқшунослардан иборат респондентлар жамоаси ўртасидаги сўров натижалари.

Ataniyazov J.K. Jinoyat ishi yuritishni rad etish yoki tugatishda mavjud protsessual muammolar

Ushbu maqolada shaxsning vafoti munosabati bilan ish yuritishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq protsessual muammolari va mazkur masalalarning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq

etilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llanilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan, buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi, Jinoyat-protsessual kodeksiga va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: vafot, jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs, jinoyat ishini tugatish, rad etish, gumon qilinuvchining vafoti.

Атаниязов Ж.К. Существующие процессуальные проблемы, связанные с отказом или прекращением производства

В данной статье рассматриваются процессуальные проблемы, связанные с отказом или прекращением производства по делу в связи со смертью лица, а также аспекты правового регулирования этих вопросов. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В исследовательской работе был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды и следственная и судебная практика, в результате чего были разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные акты.

Ключевые слова: смерть, лицо совершившее преступное деяние, прекращение уголовного дела, отказ, смерть подозреваемого.

Ataniyazov J.K. Existing procedural problems related to the refusal or termination of proceedings

This article discusses the procedural problems associated with the refusal or termination of proceedings in connection with the death of a person, as well as aspects of the legal regulation of these issues. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, comparative legal analysis. In the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative acts.

Key words: death, the person who committed a criminal act, termination of a criminal case, refusal, death of a suspect.

Madjitov Farxod Faxriddinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Kadrlar bo‘limi boshlig‘i;
Mamarasulov Davronbek Xasanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHAXSIY TARKIBNING OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISH JARAYONIDA MUSTAQIL QAROR QABUL QILISH BO‘YICHA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI (YAQIN XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI ASOSIDA)

Hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari mamlakatlarning demokratik yoki avtoritar tuzum o‘rtasida tanlov qilishiga turtki berayotganligi sir emas. Demokratik tuzumni tanlagan davlatlarda, ma’lumki, birinchi o‘rinda, inson huquqlarini ta’minlash, insonni oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Dunyo davlatlarida yuz berayotgan qurolli mojarolar, ommaviy tartibsizliklar davlatning inson huquqlarini ta’minlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlash sohasida ham yangicha yondashuvlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasiga yaqin mintaqalarda joylashgan mamlakatlarda yuz bergan va yuz berayotgan qurolli mojarolar hamda ommaviy tartibsizliklar, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida, jumladan Qirg‘iziston hamda Qozog‘istonda kuzatilgan ommaviy tartibsizliklar, Qirg‘iziston va Tojikiston chegarasida kuzatilayotgan qurolli mojarolar xususiyatlaridan kelib chiqib, kuch tuzilmalarining faoliyatini kundan-kunga takomillashtirib borish, xavfsizlikka bo‘lgan zamonaviy tahdidlarning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, eskirgan faoliyat usullarini ularga moslashtirish, shaxsiy tarkibning zaruriy ko‘nikmalarini shakllantirish va oshirib borish zaruratini tug‘dirmoqda.

Shu jumladan, joriy yilning iyul oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasida yuz bergan ommaviy tartibsizliklar ham, sir emaski, mamlakatimiz kuch tuzilmalari faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarga baho berish, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish ustida ishlashga undashi lozim. Bu borada asosiy masalalardan biri, shubhasiz, ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va bartaraf etish, ommaviy tartibsizliklar paytida jamoat xavfsizligini va jamoat tartibini saqlashga mas’ul tuzilmalar, jumladan, Milliy gvardiya shaxsiy tarkibining tayyorgarligini yanada kuchaytirish, ayniqsa, harbiy xizmatchi va xodimlarda ekstremal, nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Ommaviy tartibsizliklar tushunchasining ta’rifi O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida quyidagi tarzda bayon qilingan:

“Ommaviy atrtibsizliklar uyushmagan bir guruh shaxslarning qonunda belgilangan va davlat hokimiyati tomonidan qo‘riqlanadigan ijtimoiy tartibni buzishlaridir. Ommaviy tartibsizliklar shaxs ustidan zo‘ravonlik, portlatishlar, o‘t qo‘yishlar, hokimiyatga qurol bilan qarshilik ko‘rsatishlar bilan bog‘lanib ketishi mumkin. Mazkur harakatlar alohida xavflidir, chunki u tasodifan yig‘ilgan va boshqarib bo‘lmas olomon tomonidan sodir etiladi” [1].

Rossiyalik tadqiqotchi B.T.Akimov ommaviy tartibsizliklar tushunchasiga A.I.Jogin tomonidan berilgan quyidagi ta’rifni keltiradi [2]: “Ommaviy tartibsizliklar – yirik ijtimoiy xavf keltirib chiqaruvchi jinoiy xatti-harakat bo‘lib, tartibsiz ravishda sodir bo‘ladigan va oldindan taxmin qilib bo‘lmaydigan xarakterga ega hamda jinoiy huquq bilan himoya qilinadigan ko‘plab muhim obyektlarga tahdid soladi [3].

B.T.Akimov, shuningdek, V.N.Grigoryevning ommaviy tartibsizliklar tushunchasiga berilgan quyidagi ta’rifini ham keltirib o‘tadi: “Ommaviy tartibsizliklar – bu jamoat tartibi va xavfsizligi asoslariga tajovuz qiluvchi insonlarning katta guruhi – olomon tomonidan qasddan sodir etiladigan, qirg‘inlar, vayronagarchiliklar, o‘t qo‘yishlar va shunga o‘xshash boshqa harakatlar yoki qurolli qarshilik ko‘rsatish bilan kechadigan harakatlar” [4].

Ommaviy tartibsizliklar tushunchasiga keltirilgan ta’riflardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkin-ki, ommaviy tartibsizliklar o‘z nomi bilan tartibsiz kechadigan jarayon va xatti-harakatlar bo‘lib, shaxsiy tarkib, ayniqsa komandir va boshliqlardan tezkor qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga jalb

etilgan harbiy xizmatchi va xodimlar kuch, maxsus vositalar va qurol qo'llash, o'zini himoya qilish hamda belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha yakka tartibda mustaqil qaror qabul qilishga majbur bo'lishi mumkin.

Komandir va boshliqlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish tayyorgarligini shakllantirish yuzasidan tadqiqot olib borgan I.V.Sokolov o'z ilmiy maqolasida harbiy rahbarlar doimo har xil qarorlar qabul qilishiga to'g'ri kelishi, ularning faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qilishga tayyorlik xususiyat shakllangan bo'lishi lozimligini, bu xususiyat qo'yilgan vazifalardan kelib chiqishi haqida fikr yuritadi [5].

I.V.Sokolov o'z maqolasida S.G.Odinsov tomonidan harbiy rahbarlar tomonidan oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlarni keltirib o'tadi:

– boshqaruv jarayonini, individual va guruh tarkibidagi xatti-harakat, tizimli tahlil, rejalashtirish va nazorat, shuningdek, qarorlar qabul qilishning miqdoriy metodlarini bilish;

– ehtimoliy oqibatlarni oldindan ko'ra bilish mahorati;

– vaziyatni to'g'ri talqin qilish va eng muhim omillarni, shuningdek bir yoki bir nechta o'zgaruvchan omillarning o'zgarish ta'sirini aniqlash mahorati;

– boshqaruv maqsadlariga erishish samaradorligini ta'minlovchi aniq boshqaruv usullarini qo'llash.

Shuningdek, I.V.Sokolov o'z maqolasida S.G.Odinsov tomonidan ko'rsatilgan harbiy rahbarlar tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga tayyorlik holati mezonlari va ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tgan: motivatsion qiymatga ega, kognitiv, hissiy-irodaviy, faoliyatli, refleksiv.

Yana bir rossiyalik tadqiqotchi N.A.Seryodkin o'z ilmiy maqolasida oliy harbiy ta'lim muassasasi (OHTM) kursantlarini taktik vazifalarni yechishga tayyorlash yuzasidan fikr yuritadi. Muallif maqolada, bir qator xususiyatlar qatorida, Rosgvardiyaning bo'lajak ofitserlarini o'z faoliyatida qo'yilgan vazifalarni chuqur anglash, tahlil qilish va konstruktiv rivojlanishga tayanishi lozimligini ta'kidlaydi [6].

N.A.Seryodkin ham bo'lajak ofitserlarni taktik vazifalarni yechishga tayyorlashda asosiy omil sifatida komandirning boshqaruv qarorlarini qabul qilish vazifasi asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydi.

N.A.Seryodkin, shuningdek, Rosgvardiya OHTMlarida ta'limni tashkil etish bo'yicha hujjatlar tahlili natijalarini keltirib, bo'lajak ofitserlar uchun "tayyorgarlik" kasbiy komepetentlikdan kelib chiqishi lozimligi, bu kasbiy tayyorgarlik kasbiy vazifalarni bajarish muvaffaqiyatni belgilashi haqida xulosa qiladi.

Qozog'istonlik mutaxassislar S.K.Nesipbayev va I.I.Bakirov tomonidan e'lon qilingan OHTMlarida pedagogik jarayonda kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv haqidagi maqolada dunyoda globalizatsiya natijasida ta'lim tizimlari Bolonya protsessi ta'sirida kompetensiyaviy yondashuvga yuz tutayotgani va buning ijobiy jihatlari keltirlib, harbiy ta'lim jarayoniga ham bu yondashuvni qo'llash imkoniyatlari va yo'llari, shuningdek, samaradorligi ko'rsatib berilgan [7].

Harbiy xizmatchi va xodimlarning qaror qabul qilish ko'nikmalari bevosita ularning kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'lgani bois, O'zbekiston Respublikasi harbiy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida, shuningdek, harbiy qismlarda jangovar tayyorgarlik jarayonida, harbiy xizmatchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq qilish foydadan xoli bo'lmaydi.

S.V.Kolosov o'z ilmiy maqolasida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish ofitser-rahbarning asosiy funksiyalaridan biri ekanligini, uning faoliyatining mazmuni bo'ysunuvchi kuchlar va vosiyalarni boshqarish ekanligini ta'kidlab, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga tayyorlik va kasbiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga tayyorlik kompetentlik va motivatsiyaga egalikning tizimli sintezi ekanligiga tayanganligini bildiradi [8].

Rossiyalik mutaxassis A.V.Cherkasov esa, o'z maqolasida jangovar harakatlarda komandir tomonidan qaror qabul qilishda qo'shinlarning axloqiy-ruhiy holatini baholash va ularning axloqiy-ruhiy ta'minotini tashkil etish yo'llari haqidagi ilmiy asoslantirilgan fikrlarini keltirib, axloqiy-ruhiy holat o'zgaruvchan ekanligini, bu jarayonni ilmiy metodologiya asosida baholash lozimligini, qo'shinlarning ruhiy holatini baholash uchun harbiy tajriba-sinovlar o'tkazish kerakligini, bu tajriba-sinovlarni jangovar xizmatni o'tash davomida, jangovar yurishlar va jangovar navbatchilik o'tash paytida, jangovar tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarda, qo'mondonlik-shtab, taktik va boshqa o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi [9].

A.P.Sharuxin va A.P.Legayev tomonidan

yozilgan ilmiy maqolada o'z vaqtida ichki qo'shinlar (hozirgi Rosgvardiya) OHTMlari kursantlarining tarbiyasi uchun zaruriy pedagogik shart-sharoitlar haqida so'z yuritilib, unda bo'lajak ofitserlar ongida ofitserlik sharafi tuyg'usini shakllantirish kerakligi haqida asoslantirilgan fikrlar bildiriladi [10].

I.Yu.Lepeshinskiy va A.E.Turin tomonidan nashr ettirilgan maqolada axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari yordamida harbiy-kasbiy vazifalarni bajarish xususiyatlariga bag'ishlangan maqolada harbiy ta'limda harbiy-kasbiy vazifani loyihalash va konstruksiyalash orqali ta'lim jarayonini ko'proq amaliyotga yo'naltirish imkoniyatlari ochib berilgan [11].

L.N.Berejnova va M.M.Gupalovning OHTMlari ta'lim muhitida kursantlarning mustaqil ta'limida mavjud muammolar va ularni yechish yo'llariga bag'ishlangan maqolasida **avtonom ta'lim** ta'limning individuallashishida yangi yo'nalish sifatida shakllanayotganligi, avtonom ta'lim har qanday yoshdagi ta'lim oluvchilar uchun real imkoniyat ekanligi, ta'lim sifatiga salbiy ta'sirlarsiz yangi bilimlarni olishga ketadigan vaqtning iqtisod qilinishiga xizmat qilishi haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Mualliflar, shuningdek, ma'lumotlar oqimi borgan-sari katta ko'lam kasb etayotgan bir paytda, ular bilan to'g'ri ishlash har qanday kasb egalari uchun juda muhimligi bilan bir qatorda, o'tkazilgan tajriba sinovlar natijasiga ko'ra harbiy ta'limda loyihalash usuli ko'proq samarador degan xulosaga kelinganini ta'kidlaydilar [12].

Belorussiyalik mutaxassis Ye.V.Rulko harbiy harakatlarni modellashtirish tizimida qaror qabul qilish jarayonini imitatsiya qilish bo'yicha yondashuvga bag'ishlangan maqolasida harbiy harakatlarni alternativ modellashtirishning afzalliklari matematik modellashtirish yordamida ochib beriladi [13].

V.V.Meshix va V.V.Gorlov tomonidan chop ettirilgan ichiki ishlar organlarining ommaviy tartibsizliklar yuz bergandagi xatti-harakatlarini imitatsion modellashtirishga bag'ishlangan maqolada ommaviy tartibsizliklar tasnifi **maqsad-mazmuniga ko'ra, ishtirokchilar miqdoriga ko'ra, tashkil etilish saviyasiga ko'ra, tashkil etilish darajasiga ko'ra** ommaviy tartibsizliklar guruhlariga bo'lingan holda yoritilgan [14].

Mualliflar yuqoridagi omillarga tayangan holda, milliy (irqiy) asosdagi mojarolar natijasida yuzaga keladigan ehtimoliy ommaviy tartibsizliklar paytidagi IIOlari harakatining imitatsion modelini shakllantiradilar. Ushbu imitatsion model orqali ishlab chiqilgan formulalar, keltirilgan hisob-kitoblarga ko'ra quyidagi xulosalarga keladilar:

1. 100 dan 10000 gacha kishi oralig'idagi har qanday miqdor yuzaga keladigan ommaviy tartibsizliklar uchun ehtimoliy vaqt xarakterisitikasini aniqlashga xizmat qilishi mumkin.

2. Har bir darajada harakatlar mazmunini, ma'lum darajaning davomiyligi, sog'liq yo'qotilishi va o'lim holatlari ehtimolini bilish qaror qabul qiluvchi shaxsga kuch va vositalarni maqbul tarzda taqsimlash va ularning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

3. Ishtirokchilar miqdorining oshib borishi har qanday holatda ommaviy tartibsizliklar davomiyligining ortishiga olib keladi.

4. Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishi haqida prognozlar mavjud bo'lib, ularning profilaktikasi hamda kuch va vositalarni tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi har qanday holatda ommaviy tartibsizliklarning har xil turdagi davomiyligi 6-23% ga, o'rtacha 15% ga qisqarishiga olib keladi.

5. Avvaldan ishlab chiqilgan namunaviy maxsus harakatlar rejalari mavjudligi ommaviy tartibsizliklar har xil ommaviy tartibsizliklar davomiyligini 6-48 ga, o'rtacha 27% ga kamayishiga olib keladi.

6. Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishi haqida prognozlar va avvaldan ishlab chiqilgan namunaviy maxsus harakatlar rejalari mavjudligi har xil ommaviy tartibsizliklar davomiyligini 15-56% ga, o'rtacha 35% ga qisqartirishga xizmat qiladi.

7. Ommaviy tartibsizliklar davomida xodimlarning halok bo'lish ehtimoli tartibsizliklar ishtirokchilari va boshqa daxldor bo'lmagan fuqarolar halok bo'lish ehtimoliga nisbatan 2-26% ga (o'rtacha 14% ga) yuqori bo'ladi.

O.L.Podlinyayev va A.A.Karimov tomonidan yozilgan, odamlarning ommaviy tartibsizliklar paytida olomon ichida o'zini tutishining psixologik xususiyatlari va ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan hisobga olinishiga bag'ishlangan maqolada olomon va uning turlari haqida bilimlar, ommaviy tartibsizliklar paytida tahdidlarning ta'sirini samarali yo'qotish mahorati va ko'nikmalari, professional harakatlarni to'g'ri tanlash hayoqati kabi xususiyatlarning zarurligi haqida so'z boradi [15].

R.F.Nabiyev internet ijtimoiy tarmoqlarining ommaviy tartibsizliklar

provokatsiyasiga qay tarzda vosita bo‘lishi mumkinligi hamda bunday provokatsiyalarga qarshi qanday kurashish lozimligi haqida asosli fikrlar keltirib o‘tadi [16].

M.S.Romanov o‘z maqolasida ommaviy tartibsizliklar paytida qaror qabul qilishda ko‘rsatkichlar ustuvorliklari yuzasidan tajriba-sinov hisob-kitoblarini keltirib, ustuvorlikni 9 turga bo‘ladi [17]. Muallifning tadqiqot natijalariga tayangan holda, qaror qabul qilish jarayonida xatti-harakatlarning ustuvorlik darajasiga tayanish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelish mumkin.

Rossiyalik tadqiqotchi L.R.Xabibullin fikriga ko‘ra, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf qilish jarayoni kuch tuzilmalari vaziyatni to‘liq nazorat qila olishi, maxsus operatsiyalarni o‘tkazish uchun yetarlicha kuch va vositalarga ega bo‘lishi, o‘z kuchini huquqbuzarlik tarqalishi cheklashga, bir paytning o‘zida ommaviy tartibsizlik tashkilotchilari, koordinatorlari, faol ishtirokchilarini aniqlashga yo‘naltirishi lozim [18].

L.R.Xabibullin fikriga qo‘shilgan holda, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf qilishga jalb qilinuvchi barcha bo‘g‘indagi komandirlar tarkibining ommaviy tartibsiziliklar paytida vaziyatni nazorat qila olish, kuch va vositalarni to‘g‘ri taqsimlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish, ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, misol uchun talonchilik, tinch aholiga va obyektlarga hujum kabilar ko‘lamining kattalashib ketishi, tarqalishini cheklash, ommaviy tartibsizliklar tashkilotchilari, koordinatorlari, faol ishtirokchilarini aniqlash kabi xatti-harakatlarni amalga oshirishda mustaqil qaror qabul qila olish bo‘yicha ham bilim, ham malaka, ham ko‘nikmaga ega bo‘lish lozim.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqda-ki, harbiy xizmatchilar tomonidan ommaviy tartibsizliklar paytida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini oshirish uchun bir qator ma’lumot va malakalarga ega bo‘lish talab etiladi.

Jumladan, ommaviy tartibsizliklar paytida strategik va taktik darajada qaror qabul qilishda ofitserlar tomonidan mustaqil ravishda quyidagi masalalar inobatga olinishi lozim: ommaviy tartibsizliklar ko‘lamini inobatga olish; ustuvorliklarni belgilash; imkoniyatlarni chamalash; olomon kayfiyatini, provokatsion vaziyatlarni inobatga olish; shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini baholash va axloqiy-ruhiy ta’minotini yuqori darajada ta’minlash hamda jangovar ruhini yuqori darajada saqlash; yuqori turuvchi qo‘mondonlik buyruqlari, ko‘rsatmalari va rejalariga amal qilish; strategik va taktik darajadagi vaziyatni tizimli tahlil qilib borish; vaziyatni nazoratda ushlash, ehtimoliy oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish; vaziyatni to‘g‘ri talqin qilish va eng muhim omillarni, shuningdek, bir yoki bir nechta o‘zgaruvchan omillarning o‘zgarish ta’sirini aniqlash, boshqaruv maqsadlariga erishish samaradorligini ta’minlovchi aniq boshqaruv usullarini qo‘llay bilish; ongli ravishda jur’at, jasorat va qat’iyat namoyish qila bilish; harbiy jamoa jipsligini ta’minlash; shaxsiy javobgarlikni yodda saqlash; bo‘ysunuvchilarni boshqarish usulini to‘g‘ri tanlay bilish, boshqarish usulini o‘zgartira bilish va yangi shart-sharoitlarga moslashtira bilish; qo‘yilgan vazifaning maqsadi va natijalarini anglay olish va shundan kelib chiqib, qo‘yilgan maqsadlarga erishishning maqbul yo‘llarini tanlay olish va h.k.

Shuningdek, ommaviy tartibsizliklar paytida taktik va operativ darajada qaror qabul qilishda, yuqorida keltirilgan masalalar bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilar tomonidan mustaqil ravishda quyidagi masalalar inobatga olinishi lozim: kuch, qurol va maxsus vositalarni qo‘llash qoidalariga amal qilinishini ta’minlash va shaxsan amal qilish; qonunchilikka, inson huquqlariga rioya qilinishini ta’minlash va shaxsan rioya qilish; harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan o‘zini himoya qilish qoidalariga amal qilinishi uchun sharoit yaratish va shaxsan amal qilish; ofitserlik sharafi, harbiy xizmatchi sha’ni va or-nomusini asrash; qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibga shaxsiy namuna ko‘rsatish va motivatsiya berish; ongli ravishda jur’at, jasorat va qat’iyat namoyish qilish; individual va guruh tarkibida taktik va tezkor harakatlanish qoidalariga amal qilish; qaror qabul qilishning miqdoriy metodlarini bilish; yuqori turuvchi qo‘mondonlik buyruqlari, ko‘rsatmalari va rejalariga amal qilish; harbiy jamoa jipsligini ta’minlash va shaxsan amal qilish; shaxsiy jabobgarlikni yodda saqlash va h.k.

Fikrimizcha, ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va ularni bartaraf qilish jarayonida harbiy xizmatchilarning mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshirish maqsadida, tizimli ravishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirib borish lozim:

birinchida, ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va bartaraf qilish, ommaviy tartibsizliklar yuz bergan taqdirda tegishli rejalar bo‘yicha ishlash, shuningek, nostandart

vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida tizimli ravishda seminar-treninglar, qisqa o‘quv-tayyorgarlik kurslarini tashkil etish;

ikkinchidan, hududlardagi yuqori bo‘g‘in rahbarlar (masalan, boshqarma boshlig‘i, batalyon komandiri va ularning o‘rinbosarlari) uchun seminar-treninglar va kurslarni Jamoat xavfsizligi universitetida tashkil etish;

uchinchidan, Jamoat xavfsizligi universitetida tashkil etilgan seminar-treninglar va kurslarni tamomlagan rahbar kadrlar o‘z qo‘l ostidagi tarkib bilan jangovar va maxsus tayyorgarlik mashg‘ulotlarida Universitetda olgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini o‘z qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibga yetkazish choralari ko‘rish.

Taklif etilayotgan seminar-treninglar, kurslar, shuningdek, harbiy qismlardagi mashg‘ulotlarda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- komandir va boshliqlarda, bo‘lajak ofitserlar va kichik komandirlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish xususiyatlarini shakllantirish; ularda qo‘yilgan vazifalarni chuqur anglash va tanqidir tahlil qilish xususiyatlarini shakllantirish hamda konstruktiv rivojlanishlariga sharoit yaratish;

- jangovar xizmatni o‘tash davomida, jangovar yurishlar va jangovar navbatchilik o‘tash paytida, jangovar tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulotlarda, qo‘mondonlik-shtab, taktik va boshqa o‘quv mashg‘ulotlari davomida komandir va boshliqlarning boshqaruv qarorlarini mustaqil qabul qilishga tayyorlik darajasini ilmiy-metodik baholash va kamchiliklarni aniqlab, bartaraf etish choralarini ko‘rish;

- yuqori va o‘rta darajada mustaqil qaror qabul qilishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanishga o‘rgatish;

- komandir va boshliqlar hamda bo‘ysunuvchilar tomonidan tegishli vazifa yuzasidan mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini avtomatizm darajasiga olib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi / R.A. Muhitdinov va boshq.; mas’ul muharrir N.To‘ychiyev. – T.: Adolat, 2010. – B. 349.

2. Акимов В.Т. Понятие массовых беспорядков // Наука и образование сегодня. – 2019. – №6-2 (41). – С. 92–94.

3. Жогин И.А. Массовые беспорядки. Состав преступления // Педагогика и психология: перспективы развития. Сборник материалов III Международной научно-практической конференции. – 2017. – С. 264–267.

4. Григорьев В.Н. Расследование массовых беспорядков в условиях чрезвычайного положения // М.: Юрайт, – 2008. – С. 5.

5. Соколов И.В. Формирования готовности принимать управленческие решения у военных руководителей // Вестник науки и образования – 2022. – № 1 (121). – С. 92–96.

6. Серёдкин Н.А. Готовность курсантов военного вуза к решению тактических задач // Современные исследования социальных проблем. – 2017. – Том 8. – № 4. – С. 114–125.

7. Несипбаев С.К., Бакиров И.И. Компетентностный подход в решении педагогических задач в военном вузе // Обучение и воспитание: методики и практика – 2016. – № 25. – С. 53–60.

8. Колосов С.В. Педагогические особенности обучения принятию решений в подготовке военного штурмана // Историческая и социально-образовательная мысль. – 2013. – № 2 (18). – С. 71–73.

9. Черкасов А.В. Методология оценки морально-психологического состояния войск (сил) при принятии командиром решения на боевых действия и организацию их морально-психологического обеспечения // Армия и общество. – 2009. – № 2.

10. Шарухин А.П., Легаев А.П. Педагогические условия необходимые для воспитания у курсантов вузов внутренних войск МВД России офицерской чести // Ученые записки. – 2015. – № 2 (120). – С. 197–201.

11. Лепешинский И.Ю., Турин А.Е. Особенности решения военно-профессиональных задач средствами информационно-коммуникационных технологий // Динамика систем, механизмов и машин. – 2012. – № 5. – С. 44–46.

12. Бережнова Л.Н., Гупалов М.М. Самообразование курсантов в образовательной среде военного вуза: проблемы и пути их решения // Ученые записки – 2014. – № 10 (116). – С. 181–185.

13. Рулько Е.В. Подход к имитации процесса принятия решений в системе моделирования военных действий // Системный анализ и прикладная информатика. – 2017. – № 1. – С. 49–55.

14. Меньших В.В., Горлов В.В. Имитационные моделирования действий органов внутренних дел при возникновении массовых беспорядков // Вестник Воронежского института МВД России. – 2015. – №4. – С. 180–189.

15. Подлиняев О. Л., Каримов А. А. Психологические особенности поведения людей в толпе и их учет сотрудниками правоохранительных органов при проведении массовых беспорядков // Психопедагогика в правоохранительных органах. – 2018. – № 3 (74). – С. 10–16.

16. Набиев Р.Ф. Социальные сети интернета как средство провокации массовых беспорядков и особенности противодействия // Вестник Казанского юридического института МВД России – 2011. – №1. – С. 57–61.

17. Романов М.С. Приоритеты показателей принятия решений в органах внутренних дел при возникновении массовых беспорядков // Вестник Воронежского института МВД России. – 2015. – № 3. – С. 114–122.

18. Хабибуллин Л.Р. Предотвращения массовых беспорядков // Ученые записки казанского юридического института МВД России. – 2020. Том 5. – №2(10). – С. 242-243.

Madjitov F.F., Mamarasulov D.X. Shaxsiy tarkibning ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida mustaqil qaror qabul qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari (yaqin xorij mamlakatlari tajribasi asosida)

Ushbu maqolada ommaviy tartibsizliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha vazifalarni bajaruvchi shaxsiy tarkibga mazkur vazifani bajarish uchun zaruriy xususiyatlar, jumladan, kasbiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalar qatorida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasining o‘rni, uni rivojlantirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy tartibsizliklar, shaxsiy tarkib, harbiy xizmatchilar, fikrlash bilim, malaka, ko‘nikma, qaror qabul qilish, jur’at, jasorat, jangovar ruh, kompetentlik, boshqaruv qarorlari.

Маджитов Ф.Ф., Мамарасулов Д.Х. Вопросы развития навыков личного состава по принятию самостоятельного решения в процессе ликвидации массовых беспорядков (на основе опыта ближнего зарубежья)

В этой статье рассмотрены такие вопросы, как необходимые свойства личному составу, выполняющую задачи по предотвращению и ликвидацию массовых беспорядков, в том числе необходимые знания, квалификация и навыки, среди которых навыки по принятию самостоятельного решения, пути совершенствования принятия самостоятельного решения.

Ключевые слова: массовые беспорядки, личный состав, военнослужащие, размышление, знание, квалификация, навыки, принятие решения, смелость, храбрость, боевой дух, компетентность, управленческие решения.

Madjitov F.F., Mamarasulov D.X. Issues of developing the skills of personnel to make an independent decision in the process of liquidating mass riots (based on the experience of neighboring countries)

This article discusses such issues as the necessary properties of the personnel, performing the tasks of preventing and eliminating mass unrest, including the necessary knowledge, qualifications and skills, including skills for making an independent decision, ways to improve the adoption of an independent decision.

Key words: mass unrest (civil disorders), military personnel, reflection, knowledge, qualifications, skills, decision-making, boldness, courage, morale, competence, managerial decisions.

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

HARBIY QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHNI SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Harbiy qonunchilikni tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etib, u yangi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda amalda bo'lganlarni hisobga olishga imkon beradi, normativ hujjatlarning izchilligini ta'minlashga, takroriylikni yo'q qilishga va eskirgan normalarni bekor qilishga yordam berib, davlatning harbiy faoliyati sohasida jamoatchilik bilan munosabatlarni tartibga solishning eng samarali vositalarini to'g'ri tanlashga ko'maklashadi.

Buning ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, U.X.Muxamedov ta'kidlaganidek normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladigan organlar ham har xil bo'lib, bu hujjatlar tizimi tez o'zgarib turadi, yangi qabul qilingan qonun yoki boshqa huquq manbai ko'pincha amaldagi hujjatlarga o'zgartirishlar kiritadi[1].

Ijtimoiy davlat qurish sharoitida harbiy sohadagi qonunchilikni tizimlashtirish orqali amaldagi Qurolli Kuchlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimini tartibga keltirish va takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Qonunchilikni tizimlashtirish yaxlit jarayon bo'lib, tarixan bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Qonunchilikni tizimlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish faqat ma'lum muddatlar uchun umumiy ishlarni bajarishgina emas, balki har bir bosqichda to'plangan tajribalar hamda erishilgan yutuqlar va kamchiliklarni hisobga olgan holda asosiy maqsadlarni belgilab olish, shu maqsadlarga erishish vositalarini aniqlash, istiqbolga mo'ljallangan tegishli tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqishni talab qiladi[1].

Qonunchilikni tizimlashtirish huquqiy normalarning ma'nosini tushunishning, ularni vakolatli organlar tomonidan to'g'ri qo'llanilishining muhim vositasi hisoblanib, umuman huquqning umumiy tamoyillari va munosabatlarini tushunishga yordam beradi[2].

O'z navbatida harbiy sohada mavjud manbalarni o'rganib chiqish, harbiy qonunchilikni tizimlashtirish zaruriyatini belgilab beruvchi omillarni tahlil qilish, mazkur jarayon taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida qonunchilik hujjatlarini yaratilishi tarixi va amal qilish davrini kuzatish, ularning tavsifini o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada, O'zbekiston Respublikasida harbiy qonunchilikni tizimlashtirish xususiyatlari, vazifalari va prinsiplari, muammolarini aniqlab olish hamda istiqbollarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi.

Harbiy qonun hujjatlarini Qurolli Kuchlarning bugungi kundagi erishilgan zamonaviy ijtimoiy darajasiga muvofiq holga keltirish, ularni takomillashtirish, tushunarli bo'lishi va qo'llashni osonlashtirish murim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu fikrimizni oldingi davrlardagi qonunchilik tarixi ham tasdiqlaydi. Xususan, tarixchi Svetoniyning so'zlariga qaraganda miloddan oldingi I asrda Yuliy Sezar tomonidan rejalashtirilgan davlat islohotlari Sezarning orzusi amalga oshishi bilan yakunlanishi, ya'ni fuqarolik huquqini ma'lum normalarga olib kelishi va juda katta hajmdagi qonunlardan eng yaxshilari va eng zarurlarini eng kam miqdordagi kitoblarga to'plashi kerak edi[3].

VI asrda Yustinian kodeksi e'lon qilingan, u oldingi barcha Rim kodekslari va ulardan ayricha chop etilgan qonunlarni qayta ko'rib chiqish natijasi bo'lgan. Ushbu kodekslashtirish imperator Yustinian buyrug'i bilan amalga oshirilgan. Yustinian kodeksida Rim huquqiga tegishli bo'lgan juda katta hajmdagi huquqiy material ko'plab eskirgan normalar va institutlardan tozalangan edi.

O'zbekistonda harbiy qonunchilikning rivojlanish tarixi, o'tmishda mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan davlatlardagi davlatchilik tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Markaziy Osiyo hududiga islom dini kirib kelishi bilan bu erda huquq masalalari shariat asosida hal qilinadigan bo'ldi.

A.X. Saidovning fikriga ko'ra "faqat musulmon faqihlari shariatga ishlov berishgan, uni tizimlashtirishgan va izohlashgandagina amaliy hayotda qo'llash mumkin"[4] bo'lgan.

Amir Temur davlatchiligining asosan tarix, madaniyat va iqtisodiyotga oid masalalarini o'z ichiga olgan "Temur tuzuklari"da davlat tuzumi, yerga egalik shakllari, aholidan olinadigan soliqlar va yig'imlar bilan birga ba'zi huquqiy masalalar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berilgan[5].

Unda vazir va qo'shin boshliqlarini

saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi.

1924 yilda Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm XSR asosida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tuzilishi natijasida ro‘y bergan o‘zgarishlar tufayli 1926 yilda O‘zbekiston SSRning dastlabki kodekslashgan jinoyat qonuni – O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilindi. Uning asosini 1922 yilgi RSFSR JK qoidalari tashkil qilib, harbiy sohadagi jinoiy huquqiy munosabatlar tartibga solingandi.

N.P. Koldayeva “Har qanday qonunchilik sistemasi asosida aynan Konstitutsiya, uning asosiy normalari va prinsiplari yotishi kerak. Bu har qanday tizimlashtirish shaklida qonunchilik tizimini belgilab beradigan obyektiv omildir”[6] deb to‘g‘ri ta’kidlagan edi.

Bu borada professor R.Q. Qayumovning “Ittifoqdagi respublikalar uchun Ittifoq Konstitutsiyasi taalluqli bo‘lib, respublikalar o‘z konstitutsiyasi va qonunlarini Sovet Ittifoqi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda unga to‘la mos keladigan holda qabul qilishlari shart edi. Agar respublikada chiqarilgan huquqiy hujjatlar Sovet Ittifoqi qonunlariga mos kelmasa, bekor qilinishi kerak edi. Shuning uchun ham Ittifoq tarkibiga kiradigan barcha respublikalar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy rivojlanishining bosqichlari Sovet Ittifoqi konstitutsiyaviy rivojlanishining bosqichlariga butunlay mos keladi”[7] degan fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Huquq nazariyasi tomonidan shu tasdiqlanganki, huquq tizimining tarmoqlariga mos keladigan kodekslar, bu turdagi ijtimoiy munosabatlarni maqbul ichki birligini, qonuniy tartibga solishning izchilligi va to‘liqligini ta’minlaydigan, qonunchilikni tizimlashtirishning barcha mavjud shakllaridan eng mukammali hisoblanadi.

E.A.Lukashevaning fikricha, kodeks – o‘ziga boy, to‘laqonli hujjat hisoblanadi va normativ hujjatlarning tizimliligini, birligini va kelishilganligini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, normativ ko‘rsatmalar tizimining yanada aniq qurilishini, ulardan foydalanish qulayligini ta’minlaydi[8].

Aynan kodeks mamlakatning butun hududida davlatning harbiy faoliyatiga tegishli bo‘lgan huquqiy normalarning bir ma’noda tushunilishini va amalda ijro etilishini ta’minlaydi.

Taniqli amerikalik yurist R.Paundning quyidagicha yozgan: “Kodekslarning mo‘ljallanishi nafaqat huquqning o‘tmishdagi rivojlanish yakunlarini avtoritar shaklda qayd etishdan iborat, balki yuristga va sudga yangi normalarni joriy etish uchun yo‘naltirilgan”[9].

Harbiy qonunchilik harbiy huquqning takomillashuviga, pozitiv an’analarga va ilmiy tadqiqotlarga tayanib, harbiy rivojlanishning to‘g‘ri yo‘llarini va harbiycha yurish-turishning eng yaxshi qoidalarini ko‘rsatib beradi.

Harbiy huquqshunoslar tomonidan harbiy-huquqiy normalarni kodifikatsiyalashni imkoni va zaruriyati ancha oldin tan olingan. Masalan, Rossiya imperiyasining harbiy qonunchiligini tizimlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan katta hajmli ishlar natijasida 1838 yilda Harbiy qarorlar to‘plami qabul qilingan. Keyinchalik bunday to‘plam ikki marta – 1859 va 1869 yillarda tuzilgan. Harbiy qarorlar to‘plamini qabul qilish bilan harbiy qonunchilikni tizimlashtirish bo‘yicha deyarli bir asrlik tarixiga ega bo‘lgan muammo hal etildi, bu esa qurolli kuchlarni qurishning normativ asoslarini yaratish uchun progressiv ahamiyatga ega bo‘ldi[10].

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda huquq normalarini kodifikatsiyalanishi azaldan amalga oshirilgan.

O‘sha davrda harbiy qonunchilikni kodifikatsiyalanishini amalga oshirishning obyektiv zaruriyati turli huquqiy jihatlarning ko‘plab normalarida yoyib tashlangan harbiy-huquqiy normalarning ko‘pligi va bir biriga mos kelmasligi bilan izohlangan.

Rossiya harbiy huquqini kodifikatsiyalash tarixi sohasidagi taniqli mutaxassis P.S.Zaussinskiy harbiy huquq normalarining kodifikatsiyalanishini amalga oshirish zaruriyatini asoslab, quyidagilarga ko‘rsatib o‘tgan: “harbiy qonunchilikning tartibsizligi harbiy ishda qoloqligimizning sabablaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda”[11].

Ushbu muallifning harbiy huquq normalarini kodifikatsiyalashni nazariyasi va amaliyotining muammolari bo‘yicha XX asrning boshlarida aytib o‘tilgan qarashlari harbiy huquq rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarb bo‘lganligi bois batafsil ko‘rib chiqilishi lozim.

P.S.Zaussinskiy qonunchilikning kodifikatsiyasini huquqning rasmiy tomonini takomillashtirishga qaratilgan texnik maro-simdan ko‘ra yanada kengroq ko‘radi. U shunga belgilaydiki, kodeksning tuzilishi xalqlarning hayotida, ularn-

ing madaniy va iqtisodiy kuchini to‘sqinliksiz rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi va aksincha uning yo‘qligi nomaqbul oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agarda xalqning huquqiy ongida ma’lum bir sabablarga ko‘ra keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lsa; agar qaysidir sabablarga ko‘ra oldingi asrlar davomida shakllanib kelgan huquqiy negizlar yangi ko‘rish burchagi ostida shafqatsiz tanqid qilinib, jamiyatning amaldagi huquqiy tuzilishiga bunday munosabat natijasida yuridik, axloqiy tushunchalar va institutlarning qayta baholanishi amalga oshsa; agar xalq ommalari hodisalarga va ijtimoiy munosabatlarga yangi qarashlarni o‘zlashtirishgan bo‘lsa – bunday hollarda kodeksning tuzilishi so‘zsiz zaruriy ish bo‘lib hisoblanadi. Bunday holatlarda faqatgina kodeks yangi huquqiy g‘oyalarni ketma-ket ravishda mantiqiy rivojlantiruvchi vosita sifatida yangi va eski huquq o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib qoladi. Yangiliklarga zid bo‘lmagan barcha narsalarni daxlsiz saqlagan holda kodifikator amaldagi qonunchilikdan ularga nomuvofiq bo‘lgan barcha normalarni bartaraf etib, ularning o‘rniga o‘zining mazmuni bo‘yicha mantiqan kelib chiqadigan qoidalarni kiritadi.

Sovet zamonida harbiy qonunchilikni kodifikatsiyalash g‘oyalari 1924 yil 29 oktabrdagi SSSR butun ittifoq saylov qo‘mitasining qarori bilan tasdiqlangan SSSR RKKA va RKKF harbiy xizmatchilari va ularning oilalari uchun imtiyozlar to‘g‘risidagi Kodeksda o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik ushbu Kodeks sezilarli ravishda qayta ishlanib, natijada u RKKA harbiy xizmatchilari va harbiy xizmatga majburlar hamda ularning oilalari uchun imtiyozlar to‘g‘risidagi Kodeks nomi bilan 1930 yil 23 apreldagi SSSR Markaziy saylov qo‘mitasi va xalq komissarlari kengashining qarori bilan tasdiqlangan[12].

Qonunchilikning normalarini kodifikatsiyalash zaruriyatini ifodalaydigan asosiy omil bo‘lib, harbiy huquq normalarini o‘zida aks ettiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning ko‘pligi hisoblanadi.

Jamiyatda qonunchilikni qaror toptirish uchun huquq hammabopligining muhimligini ko‘plab olimlar ko‘rsatib o‘tishgan. Masalan, rus faylasufi I.A.Ilin o‘zining “Huquqiy ongning mohiyati to‘g‘risida” nomli kitobida quyidagilarni qayd etgan: “Xalq orasida savodsiz insonlarning mavjudligi yoki huquqni begona tilda ifodalash, qonunning matniga xalq tomonidan etishib bo‘lmasligi yoxud huquqning ma’nosini murakkab, tushunarsiz ifodalash, bunday o‘z huquqlarini bilmasdan yashash tartibi xalq uchun be’mani va xavflidir. Bunday holatda eng yaxshi holatda xalq va huquq o‘rtasida xalqqa moddiy boyish hisobiga xizmat ko‘rsatuvchi g‘arazli o‘rtakashlarning iyerarxiyasi paydo bo‘lib, huquqning talqin etilishi professional behuda gaplarga aylanadi”[13].

Shubhasiz, harbiy qonunchilikning beqarorligi bir qator salbiy hodisalarni keltirib chiqaradi, ularning oqibatlari ba’zan davlatning harbiy tashkiloti uchun juda jiddiy bo‘lishi mumkin. Birinchidan, qonunning obro‘siga putur yetkaziladi. Ikkinchidan, amaldagi qonunlarga cheksiz kiritilayotgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar shunday vaziyatni yuzaga keltiradi-ki, unga ko‘ra oddiy harbiy xizmatchi, ba’zida esa huquqni qo‘llovchiga u yoki bu normativ hujjat matnining oxirgi variantini topish, bu vaqtda nimalarga amal qilish kerakligini tushunish murakkablashadi.

Harbiy qonunchilikning yana bir muhim kamchiliklari shundan iboratki, tez sur’atlar bilan rivojlanish sababli, ijtimoiy munosabatlarning alohida bir qatlamlari, qonuniy jihatdan tartibga solinmay qolyapti, garchi unga obyektiv ravishda muhtoj bo‘lsalar ham.

Harbiy qonunchilikni kodifikatsiya qilish zarurligi haqidagi savol bizning harbiy huquq fanida birinchi marta ko‘tarilgani yo‘q. Hatto sovet davrida ham harbiy huquqshunos olimlar N.V.Artamonov, YU.M.Biryukov, G.N.Kolibaba, I.F.Pobejimov, mamlakatimizda mustaqillik yillarida O‘.Muxamedov, X.Odilqoriyev, J.Safarov, Sh.Berdiyarov va boshqa bir qator olimlarimiz tomonidan qonunchilikni tizimlashtirish masalasi va boshqa muallif olimlar bunday xulosaga kelishgan.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, harbiy huquq normalarini kodifikatsiyalash muammosi davlatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Masalan, Belorussiya qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi Belorus Respublikasi Harbiy kodeksining qabul qilinishini mudofaa to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini isloh qilishning oxirgi bosqichi sifatida ko‘radi. Ushbu kodeks davlatning harbiy sohasidagi huquqiy tartibga solishning asosini tashkil qilishi kerak[14].

Qonunchilikni tizimlashtirish yaxlit jarayon bo‘lib, tarixan bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Qonunchilikni tizimlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish faqat ma’lum muddatlar uchun umumiy ishlarni bajarishgina emas, balki har bir bosqichda to‘plangan tajribalar hamda erishilgan yutuqlar va kamchiliklarni hisobga olgan holda asosiy maqsadlarni belgilab olish, shu maqsadlarga erishish vositalarini aniqlash, istiqbolga mo‘ljallangan tegishli

tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqishni talab qiladi[14].

Darhaqiqat, davlatimiz Qurolli Kuchlari tarixining turli davrlarida shakllangan harbiy qonunchilikni tizimlashtirish jarayoni va uning rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy asoslangan tasavvurlarga ega bo'lish harbiy qonunchilikni tizimlashtirish faoliyatining birinchi galdagi muhim shartidir. Bu o'z navbatida, harbiy huquqqa oid nazariy bilimlar, konseptual g'oyalar, amaliy vositalardan oqilona foydalanishga, Qurolli Kuchlar faoliyatining asosiy vazifalariga e'tibor qaratishga, harbiy qonunchilikning u yoki bu masalalarini hal qilishda olimlar va mutaxassislarning samarali harakatlarini birlashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, harbiy qonunchilikni tizimlashtirish tufayli harbiy bo'linmalar faoliyatini tartibga solib turgan joriy qonun ijodkorligi jarayonida biror masala bo'yicha avval chiqarilgan normativ materiallarni hisobga olish va yangi qabul qilinadigan normativ huquqiy hujjatlarga zid bo'lgan hujjatlarni o'z vaqtida bekor qilish yoki tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritishga imkon yaratiladi. Bu esa harbiy sohadagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish samaradorligini oshiradi.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, harbiy qonunchilikni tizimlashtirish bugungi zamon talablariga mos kelmaydigan nazariy konstruksiyalar, an'anabozlik doirasida amalga oshirilmasligi lozim.

Milliy qonunchiligini rivojlantirishda qonun va qonunosti hujjatlarni tizimlashtirishning tarixiy jihatlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Umuman harbiy qonunchilikni tizimlashtirishning kelib chiqishi va uning rivojlanish bosqichlariga murojaat etish harbiy sohadagi milliy qonunchilik tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, harbiy sohada mavjud manbalarni o'rganib chiqish, harbiy qonunchilikni tizimlashtirish zaruriyatini belgilab beruvchi omillarni tahlil qilish, mazkur jarayon taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida qonunchilik hujjatlarini yaratilishi tarixi va amal qilish davrini kuzatish, ularning tavsifini o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada, O'zbekiston Respublikasida harbiy qonunchilikni tizimlashtirish xususiyatlari, vazifalari va prinsiplari, muammolarini aniqlab olish hamda istiqbollarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi.

Shunday qilib, harbiy qonun hujjatlarini tizimlashtirish masalasini bugungi kunda harbiy-ijtimoiy siyosat sohasidagi qonun ijodkorligi amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biri deb hisoblash mumkin. Kodeks qonunchilikni tizimlashtirishning eng maqbul shakli hisoblanadi, chunki faqat kodeksda huquqning bir qancha sohalariga tegishli bo'lgan normalar birlashtirilishi va tizimlashtirilishi, ular shakli va yuridik kuchiga ko'ra har xil bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqishi, ba'zan esa butunlay boshqa masalalarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Kodifikatsiya faoliyati davomida amaldagi harbiy qonunchilik qayta ko'rib chiqiladi. Kodifikatsiya – bu ma'lum bir ijtimoiy hodisa yoki jarayonning rivojlanishida eskidan yangi holatga sifatli o'tishni anglatadi.

Davlatning mudofaa va harbiy xavfsizligi sohasida kodifikatsiyalangan normativ-huquqiy hujjatni yaratish ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan kodifikatsiya tamoyillarini to'g'ri tuShunishga bog'liq.

Zamonaviy tadqiqotchilar qonun hujjatlarini kodifikatsiyalashning quyidagi tamoyillarini belgilaydi:

Konstitutsiyaviylik va qonuniylik tamoyili, unga ko'ra kodifikatsiya hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish bo'yicha vakolatli organlarning barcha harakatlari, shuningdek, ushbu hujjatlarning o'zi Konstitutsiyaga asoslanishi va unga mos bo'lishi kerak.

Oldingi tamoyil bilan uzviy bog'liq bo'lgan obyektivlik prinsipi. Aynan obyektiv shart-sharoitlar u yoki bu organ yoki mansabdor shaxsning subyektiv ixtiyorini ifoda etmasdan kodifikatsiya aktini yaratishni talab qiladi. Faqatgina davlatning harbiy tashkiloti rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini hisobga olish va ulardan huquqiy tartibga solishda mohirona foydalanish ijobiy natija berishi mumkin;

Harbiy huquq normalarini kodifikatsiyalashning barcha darajalaridagi tizimlilik tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, har bir harbiy-huquqiy norma harbiy, boshqa tarmoqlar huquqining normalari, va eng avvalo konstitutsiyaviy va xalqaro normalarga mos bo'lishi kerak;

Uzluksizlik va yangilanish tamoyili. Harbiy qonunchilikning rivojlanishi materialistik dialektikaning inkor etish va uzluksizlik kabi tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Qonunchilikning har bir yangi bosqichi avvalgini inkor qiladi, lekin shu bilan birga u mavjud yutuqlarni hisobga oladi, shuningdek, ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy shartlariga javob beradigan yangi huquqiy qadriyatlarni yaratadi. Harbiy huquq normalarini kodifikatsiyalash – huquqiy tizimni tartibga solish, Konstitutsiyaga har doim ham mos kelmaydigan qonun osti hujjatlarining sonini kamaytirish vazifalarini hal qilishning haqiqiy vositasi hisobla-

nadi.

Demokratiya prinsipi kodifikatsiyalangan hujjatlarning loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yishni, fuqarolarni, birinchi navbatda, ilmiy jamoatchilikni yangi kodifikatsiya hujjatlarini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etishga jalb etishni nazarda tutadi.

Komplekslik va maqbullik tamoyili shuni anglatadiki, harbiy huquq normalarini kodifikatsiyalash jarayonida davlatning mudofaa va harbiy xavfsizligi kabi muhim davlat institutlarining ishlashi va rivojlanishining barcha jihatlari hisobga olinishi kerak. Bu tamoyil, shuningdek, harbiy qonun va harbiy siyosat, harbiy huquq va iqtisod, harbiy qonun va axloq o'rtasidagi maqbul muvozanatni saqlash talabini o'z ichiga oladi.

Kodifikatsiyalangan hujjatni tayyorlash va qabul qilishga ilmiy yondashuv tamoyili davlatning harbiy tashkilotining izchil rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash, texnik, iqtisodiy va statistik ma'lumotlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Rejalilik tamoyili. Ma'lumki o'z-o'zidan qabul qilingan qonunlar yuqori sifatga ega emas. Harbiy huquqni kodifikatsiyalashda rejalilik tamoyili kodifikatsiyalangan hujjatning loyihasini ishlab chiqish maqsadlari, vazifalari, muddatlarini, uni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarni, loyihani tasdiqlash, qonun chiqaruvchiga taqdim etish vaqtini aniq belgilashni ko'zda tutadi.

Shu bilan birga, harbiy qonunchilik normalarini kodifikatsiyalashni amalga oshirishda, hozirgi qonunning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida, kodifikatsiyaning o'zi huquqiy munosabatlarga yangi mazmun olib kelishi mumkinmi degan olimlarning fikrlarini va shubhalarini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Masalan, L.N.Zavadskayaning ta'kidlashicha, "... bugungi kunda qonunimizning an'anaviy kodifikatsiya shaklining inqirozi haqida gapirish uchun barcha asoslar mavjud. Kodeks barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun yaxshi... Inqirozga ikkita ijtimoiy tendensiya sabab bo'ladi: eski munosabatlarning yo'q bo'lib ketishi va yangilarining paydo bo'lishi. Huquqning rivojlanish, huquqiy munosabatlar va g'oyalarning evolyutsiyasi nuqtai nazaridan, kodifikatsiya huquqiy rivojlanishning natijasi, tayyor mahsuloti hisoblanadi. U faqat huquqning rivojlanishini belgilab, uni isloh qilmaydi"[15].

Biroq, ushbu muallifning fikriga ko'ra, bularning barchasi kodifikatsiya shaklidan voz kechishni anglatmaydi. Bu shu bilan bog'liqki, qonunchilik an'analarni, amaldagi yuridik, jumladan, huquqni qo'llash amaliyotini, kodekslarni idrok etish uchun tayyorlangan yuridik kadrlarni ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Yuqoridagi mulohazalar, so'zsiz, harbiy qonunchilikni tizimlashtirishni amalga oshirishda hisobga olinishi kerak. Qonunchilikni tizimlashtirishning nazariy (ilmiy) asosi bo'lib, tizimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini ochib beradigan obyektiv qonunlar, ularni huquq sohalariga ajratilishi hisoblanishi kerak. Agar qonunchilik tizimini huquqiy tizim bilan aralashtirib bo'lmasa, demak, ularni bir-biridan ham ajratib bo'lmaydi, chunki kodifikatsiya faqatgina yuzaga kelgan huquq sohasi uchun amalga oshiriladi.

Lekin shuni ta'kidlash kerakki, harbiy qonunchilikni tizimlashtirish (kodekslashtirish)ni yaratish muammosini mutlaq qilish kerak emas. Gap shundaki, ushbu sohada kodifikatsiya ishlari olib borilgan yoki olib borilmaganligini atroflicha o'rganish kerak bo'ladi. Yana harbiy qonunchilikni tizimlashtirish (yoki kodekslashtirish)ning muhim jihati shundan iboratki, uning huquqiy normalari alohida normativ-huquqiy hujjatlarda yoki bitta kodeksda aks ettiriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda harbiy qonunchilikni shakllanishi va takomillashuvini ham mamlakatimiz qonunchiligini tizimlashtirishning jahon sahnasida va undan kelib chiqqan holda mamlakatimizda shakllanishi va rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

Birinchi bosqich. Milodiy I asrdan boshlab Rim imperiyasi, Yevropa davlatlari, qadimgi Rus davlati, Movarounnahrda XIX asrning ikkinchi yarmigacha qonunchilikni kodekslashtirish bo'yicha u yoki bu darajada amalga oshirilgan ishlar davrini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin to 1917 yilgacha bo'lgan davrni o'zi ichiga oladi va 1861-1864 yillarda Rossiyada amalga oshirilgan islohotlar natijasida qonunlar tizimlashtirilishi jarayonini ham qamrab oladi.

Uchinchi bosqich 1917-1924 yillarda Turkiston ASSR, Xorazm va Buxoro XSR hamda O'zSSR tashkil etilgan dastlabki yillardagi RSFSR qonunchiligi asoslari ta'sirida qabul qilingan ilk tizimlashgan qonunchilikdan tortib, 1947 yilda O'zSSR amaldagi qonunlarining sistemali to'plami uchinchi bor nashr etilgunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi bosqich 1947 yildan 1991 yilda

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritguncha bo‘lgan davrda qonunchilik rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Bu davrga mustaqillik davrigacha qabul qilingan qonunchilik tarmoqlariga oid bir nechta kodekslarni misol keltirish mumkin.

Beshinchi bosqich 1991 yil 31 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilingandan keyingi davrni o‘z ichiga oladi va unda mustaqil O‘zbekiston Respublikasining yangi kodekslari, 2001 yil 11 maydagi “Mudofaa to‘g‘risida”gi, 2002 yil 12 dekabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, 2018 yil 9 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi, 2021 yil 20 apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunlari[16], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 8 fevraldagi PQ-2761-son “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari[17] qabul qilinganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Bu hujjatlar qonunchilikni hisobga olish va uni tizimlashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarning normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishini osonlashtirish, jamiyatni huquqiy axborot bilan ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxamedov O‘.X. O‘zbekiston Respublikasida qonunchilikni tizimlashtirishning nazariy va amaliy muammolari. YUrid.fan.dok. Diss. Ishi. – T., 2010. – B.59.
2. Колдаева Н.П. Конституционные основы систематизации законодателства Российской Федерации // Государство и право. -2007. -Н 2. -С. 13.
3. Иодковский А.Н. История советской кодификации // Вопросы кодификации. – М., 1957. – С. 28.
4. Хидоя. Комментарии мусулманского права / Отв. ред. проф. Саидов А. Х. – Тошкент, 1994. – Б. 38.
5. Temur tuzuklari / So‘z boshi muallifi va mas’ul muharrir M.Ali, forschadan tarj. A.Sog‘uniy va H.Karomatov. – Toshkent: “Sharq”, 2005. – B. 62-131
6. Колдаева Н.П. Конституционные основы систематизации законодателства // Государство и право. – Москва, 2003. – №2. – С. 13.
7. Qayumov R.Q. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. – Toshkent, 1997. – B. 51.
8. Права человека и новое российское законодателство (материалы круглого стола) // Государство и право. -2007. -Н 6.- С. 98..
9. Осипян В.А. Идея саморазвивающейся правовой системы // Журнал российского права. -2007. -Н 4. -С. 75.
10. Корен В.Л. Строителство Вооруженных Сил Российской империи в период государственно-правовых преобразований во второй половине XIX века: Дис. ... канд. юрид. наук.- М., 2004.- С. 15 - 16.
11. Зауссинский П.С. История кодификации русского военного законодателства // Военное законодателство Российской империи (Кодекс русского военного права): Российский военный сборник. Вып. 10. -М., 1996.- С. 351.
12. Коровников А.В. Социальная защита военнослужащих: становление, развитие и правовое регулирование.- М., 1995. -С. 83 - 112; Корякин В.М. Военно-социальная политика Российской Федерации: проблемы правового регулирования. -М., 2003. -С. 105 - 107.
13. Илин И.А. О сущности правосознания. -М., 1993.- С. 24.
14. Сҳаршун В.А. Нормативорческая деятелность органов вооруженных сил в системе правотворчества социального правового государства: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. -Минск, 2003.- С. 12.
15. Завадская Л.Н. Концепция закона: отрицание отрицания // Теория права: новые идеи. Выпуск третий. -М., 1993. -С. 12.

16. O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 11 maydagi 211-II-son “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonun / https://lex.uz/acts/108083; 2002 yil 12 dekabrdagi 436-II- son “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi / https://lex.uz/ru/docs/78717; 2018 yil 9 yanvardagi O‘RQ-458-son “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi qonuni / https://lex.uz/docs/3495885 ; O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 apreldagi O‘RQ-682-son “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni / https://lex.uz/docs/5378966.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-son «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni // https://lex.uz/docs/3858817; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son «Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni / https://lex.uz/docs/5400414; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari / https://lex.uz/docs/5841063; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 fevraldagi PQ-2761-son “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari / https://lex.uz/docs/3107753.

Maxsadov M.I. Harbiy qonunchilikni tizimlashtirishni shakllanish bosqichlari

Maqolada harbiy qonunchilikni tizimlashtirishning tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash bo‘yicha milliy va xorijiy olimlarning qarashlari tahlil qilingan hamda muayyan nazariy xulosalarga kelingan.

Kalit so‘zlar: tizimlashtirish, kodeks, qonunchilik, harbiy qonunchilik va boshqalar.

Махсадов М.И. Этапы формирования систематизации военного законодательства

В статье анализируется история систематизации военного законодательства, этапы его развития, взгляды отечественных и зарубежных ученых на систематизацию и кодификацию законодательства, делаются определенные теоретические выводы.

Ключевые слова: систематизация, кодекс, законодательство, военное законодательство и др.

Maxsadov M.I. Stages forming a systematization of military legislation

The article analyzes the history of the systematization of military legislation, the stages of its development, the views of domestic and foreign scientists on the systematization and codification of legislation, and draws certain theoretical conclusions.

Key words: systematization, code, legislation, military legislation, etc.

Murodov Baxrom Murod o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Umumiy taktika va operativ san'at kafedrasi
boshlig'ining o'rinbosari, dotsent

BO'LAJAK OFITSERNING HARBIY-KASBIY TAYYORGARLIGIGA QO'YILADIGAN TALABLAR TAHLILI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

Zamonaviy umumiy va harbiy tayyorgarlik adabiyotlarida harbiy xizmatchilarning harbiy-kasbiy tayyorgarligi bir qator olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan o'rin olgan. Ammo maxsus vazifalarni bajarish bo'linmalarining harbiy-kasbiy tayyorgarligi, ularning kasbiy sifatlariga qo'yiladigan talablar hamda ularni shakllantirish usullari ochiq manbalarda kam yoritilgan. Qayd etish lozimki, aksariyat mamlakatlarda maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'linmalarining tayyorlash jarayoni, dasturlari maxfiylashtirilgan.

Avvalo kasbiy tayyorgarlik, harbiy-kasbiy tayyorgarlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Adabiyotlarda "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasiga quyidagicha izohlar berilgan:

O'rganuvchilarda (o'quvchilarda) muayyan ishni, ishlar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni tezkor egallashlari maqsadidagi kasbiy ta'lim tizimi.

Muayyan faoliyat sohasida ishlarni bajarish imkonini beradigan bilim, ko'nikma va malakalarning egallash tizimi. [1., 111-115 b.]

Rossiyalik olimlar B.T.Tuxvatullin hamda F.N.Alipxanovalar ham yuqoridagi tushunchalarni atroflicha tahlil etishgan. Ularga ko'ra "kasbiy tayyorgarlik" o'quv mashg'ulotlari tizimidagi o'rgatish jarayoni bo'lib, kursantlarni muayyan darajadagi rivojlanishi darajasini hamda ularda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanganligini tavsiflaydigan natijadir. Kasbiy tayyorgarlik esa o'z navbatida harbiy-kasbiy tayyorgarlik hamda axborot-huquqiy, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy tayyorgarlik turlariga bo'linadi. [2., 97-100 b.]

Mazmunan juda yaqin fikrni K.V.Aksyonov ham bildirgan. Unga ko'ra harbiy kasbiy tayyorgarlik bu - bir tomondan ofitserning harbiy xizmatning muayyan kasbi va lavozimidagi xizmat majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlash imkonini yaratadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi, ofitserlik sifatlari, xizmat tajribasi va kasbiy o'zini tutishi bo'lsa, boshqa tomondan bo'lajak ofitserlarga zarur bilimlarni yetkazish, ularning yaxlit malaka hamda ko'nikmalarni rivojlantirish va o'rganuvchilarni oquv faoliyatdan lavozim mo'ljallanishi bo'yicha o'quv-kasbiy va kasbiy faoliyatga o'tishidir. [3., 169-174 b.].

T.V.Markelovaning fikricha harbiy-kasbiy tayyorgarlik deganda ta'lim muassasasi harbiy-ta'lim jamoasi subyektlarining o'quv, tarbiyaviy, tashkiliy-shtat, kadrlar, moddiy-texnik, ijtimoyiy-iqtisodiy tadbirlar majmui va hamkorlikdagi harakatlari tushuniladi. Harbiy-kasbiy tayyorgarlik ofitserning axloqiy-ruhiy, jangovar, psixologik va jismoniy sifatlarini shakllantirish, qurolli kuchlar tarkibidagi harbiy xizmatga ichki tayyorlikni, lavozim mo'ljallanishiga mos ravishda majburiyatlarni bajarishini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga yo'naltiriladi. [4]

Shuningdek, mavjud izohli lug'atda harbiy kasbiy tayyorgarlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: **Harbiy kasbiy tayyorgarlik** – shaxsiy tarkibni o'z kasbiy majburiyatlarini, tinchlik va urush davridagi vazifalarini aniq va nuqsonsiz bajarishga tayyorlashdir. Harbiy texnika va qurollarni qo'llash usullari, ularning barcha imkoniyatlaridan vaziyatning har qanday sharoitlarida to'liq foydalana olish bo'yicha mustahkam harbiy-kasbiy hamda maxsus bilim va ko'nikmalar hosil qilishni ko'zda tutadi. [5., 365 b.]

Lug'atda berilgan ta'rif hamda K.V.Aksyonovning fikriga qo'shilgan holda **bo'lajak ofitserning harbiy-kasbiy tayyorgarligi** deganda harbiy xizmatning muayyan kasbi va lavozimida tinchlik va urush davridagi xizmat majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlash imkonini yaratadigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui, ofitserlik sifatlari va kasbiy o'zini tutishi bo'yicha zarur bilimlarni yetkazish, ko'nikma va malaka hosil qilish va rivojlantirish, bo'lajak ofitserlarni oquv faoliyatdan lavozim mo'ljallanishi bo'yicha o'quv-kasbiy va kasbiy faoliyatga o'tishi jarayonini tushunish mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, harbiy-kasbiy tayyorgarlik – shaxsiy tarkibni tinchlik va urush davrida o'z kasbiy majburiyatlarining harbiy xizmatga aloqador

qismini benuqson va aniq bajarishga tayyorlash jarayonidir.

Tadqiqotchilarning "kasbiy tayyorgarlik", "harbiy-kasbiy tayyorgarlik" tushunchalariga nisbatan fikrlarini tahlil etgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, bunda ko'p hollarda mutaxassisning kasbiy faoliyat olib borish va kasbiy mo'ljallanishi bo'yicha bajaradigan vazifalariga mos bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish nazarda tutilgan.

Yuqoridagi nuqtai-nazarlarga tayangan holda biz maxsus vazifalarni bajarish qo'shinlarining qo'mondonlik-taktik va faoliyati ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak ofitserlarning **harbiy-kasbiy tayyorgarligini** bo'lajak ofitserning **maxsus vazifalarni bajarish bo'linmalarida** xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli boshlashi va samarali olib borishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lishini ta'minlaydigan yagona pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Kompetensiya — xodimning kasbiy faoliyatda bilimlar, ko'nikmalar, mahorat va tajribani qo'llash qobiliyati va rasmiylashtirilgan talablar. [6]

Bo'lajak ofitserning harbiy-kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish uchun oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy-kasbiy ta'lim tizimi yaratilgan.

Harbiy-kasbiy ta'lim – bu harbiy xizmatchilarning amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan fundamental va maxsus harbiy fanlar va ko'nikmalar bo'yicha tizimlashtirilgan bilimlar majmuidir. [7., 141-145 b.]

K.V.Aksyonovning fikriga ko'ra harbiy ta'lim tizimi – bu harbiy ta'lim muassasalari va ularning boshqaruv organlarining fuqarolarni muayyan bir harbiy xizmatchiga zarur bo'lgan, tizimlashtirilgan harbiy bilimlarni egallashlari uchun xizmat qiluvchi davlat tizimidir. [3., 170 b.]

Harbiy-kasbiy ta'lim tizimi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Mamlakatimizda harbiy-kasbiy ta'lim tizimining bir qator o'ziga xosliklari mavjud bo'lib, uni shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich - harbiy ta'lim muassasasigacha bo'lgan ta'lim.

Mazkur bosqich umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litsey va kollejlarda chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik fanini o'zlashtirish, harbiy yo'nalishda ixtisoslashtirilgan maktablardagi (sinflardagi) ta'lim jarayonida, shu bilan birga turli davra suhbatlari, ochiq eshiklar kuni va boshqa tadbirlar doirasida amalga oshiriladi. Ushbu bosqichni harbiy xizmatga tayyorlov bosqichi sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu bosqichdagi ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarda harbiy kasb haqida detallashmagan ilk tasavvurlar paydo bo'ladi.

Ikkinchi bosqich – oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi yoki fuqarolik ta'lim muassasalarining harbiy kafedralari (harbiy tayyorgarlik markazlari)dagi ta'lim davomida amalga oshiriladi.

